



Нормурод АВАЗОВ,
Тошкент давлат санъат ва маданият институти доценти, ф.ф.н.
E-mail. normurod.avazov.63@mail.ru

Ўзбек тили ва адабиёти университети профессори, ф.ф.д Н.Жабборов тақризи асосида

БЕХБУДИЙНИНГ “ТУРКИСТОН МАДАНИЙ МУХТОРИЯТ ЛОЙИХАСИ”ДА МИЛЛАТНИНГ МАЪНАВИЙ ИСТИЛОХАТЛАРИ ТАЛҚИНИ

Аннотация

Мақолада тараққийпарвар Маҳмудхўжа Бехбудийнинг инсоннинг маданий ва маънавий ҳуқуқлари ҳимоячиси сифатидаги фаолияти тадқиқ этилган. У ўзининг ҳаёти давомида маданий, ижтимоий, иқтисодий, ҳуқуқий соҳаларда инсон ҳуқуқининг ҳимоясига бағишланган нормалар ишлаб чиқишда бевосита иштирок этди. Тараққийпарварнинг маданият ва маънавий соҳасидаги ҳамда инсоннинг эркинлиги тўғрисидаги қарашлари кенг ўрин эгаллади.

Калит сўзлар: миллат, маданий, лойиҳа, миллий, дума, мухторият, Туркистон, қонун, тафтиш, мерос, даъво, васият, дунё, шарият, озод, мустахлак, вақфнома.

ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ДУХОВНЫХ ПОНЯТИЙ НАРОДА БЕХБУДИЕМ В "ПРОЕКТЕ КУЛЬТУРНОЙ АВТОНОМИИ ТУРКЕСТАНА"

Аннотация

В статье рассматривается деятельность прогрессивного Махмудхожи Бехбуди как защитника культурных и духовных прав человека. Всю свою жизнь он принимал непосредственное участие в разработке норм, посвященных защите прав человека в культурной, социальной, экономической и правовой сферах. Широкое место заняли взгляды прогрессистов в области культуры и духовности, а также в области свободы человека.

Ключевые слова: нация, проект, национальный, дума, автономия, Туркестан, закон, проверка, наследство, иск, завещание, мир, шариат, свобода, колония, основание.

INTERPRETATION OF THE SPIRITUAL CONCEPTS OF THE PEOPLE BY BEHBUDIY IN THE "PROJECT OF CULTURAL AUTONOMY OF TURKISTAN"

Annotation

The article deals with the activities of the progressive Mahmudhoji Behbudi as a defender of cultural and spiritual human rights. Throughout his life, he was directly involved in the development of norms dedicated to the protection of human rights in the cultural, social, economic and legal spheres. The views of progressives in the field of culture and spirituality, as well as in the field of human freedom, occupied a wide place.

Keywords: nation, project, national, дума, autonomy, Turkestan, law, inspection, inheritance, claim, will, world, sharia, freedom, colony, foundation.

Кириш. М.Бехбудий ўлкада маданий ва маънавий соҳада қонунларнинг мустаҳкам бўлиши учун курашиб яшади. У ўзининг ҳаёти давомида маданий, ижтимоий, иқтисодий, ҳуқуқий соҳаларда инсоннинг ҳимоясига бағишланган нормалар ишлаб чиқишда бевосита иштирок этди.

“Туркистон маданий мухторият лойиҳаси” Бехбудий томонидан ишлаб чиқилган[1]. Бу ҳужжат айни пайда 3-Давлат Думасида кўриб чиқиш учун мусулмон фракциясига топширилган. Профессор Б.Қосимов ушбу ҳужжатни ўзбек матбуотида биринчи марта чоп эттирди. Унинг ёзишча: “Таклифнома билан бирга кўшиб жўнатилган иккита – бири 1907 йил 24 апрелда 2- Думага; иккинчиси 1907 йил ноябрда 3-Дума Мусулмон фракцияси аъзоларига эътиборон мухторият масаласи Русия мусулмонлари сиёсий доирасида тез-тез муҳокама қилиниб турган... Табиийки, маданий мухторият тушунчаси сиёсий, иқтисодий мустақиллик даъвосини ўз олдига қўйди. Миллатнинг миллий – маданий турмушга риоя этилишини талаб қилади. Ва шу орқали унинг ўзлигини сақлаб қолиш умиди билан яшайди. Бу мустақилликка томон қўйилган биринчи қадам эди, холос. Лекин шунинг ўзи ҳам мустабид Русия шароитида ҳеч бир муҳолафатсиз буюк жасорат эди. Тарих гувоҳки, чор ҳукумати шунга ҳам йўл бермади”. Шунингдек, олим таъкидлайдики: “Ҳужжат эндигона босилиб чиқди. Ҳали бизнинг матбуотда нашр қилинган эмас. Унинг шарҳи ва

тадқиқи масалалари олдинда турибди”. Б.Қосимов нашридан сўнг лойиҳа иккинчи марта 2018 йилда нашр этилди[2].

Академик Н.Каримов: ““Мухторият” ғояси 1906 йилдан бошлаб Россия Давлат думасининг мусулмон аъзолари томонидан кўтарилган бўлган. Бехбудий Россия мусулмонлари томонидан эълон қилинган шу масалага доир фикрларни ўрганиб, уни Туркистондаги тарихий шароитнинг ўзига хослигидан келиб чиққан ҳолда талқин қилишга уринади ва Давлат думасининг Мусулмон фракцияси учун тайёрлаган мухторият лойиҳасини “маданий мухторият лойиҳаси” деб атади. Бехбудий бу ифодага “маданий” сўзини қиритиш билан Россия сиёсатдонларини чўчитиши ва бинобарин, уларнинг қаршилигига учраши муқаррар бўлган мухторият лойиҳасини “маданият” гули билан ўрамоқчи бўлган. Бу кичик тафсил ҳам унинг ўтқир сиёсатчи бўлганидан далолат беради”[3]. Олимнинг таъкидлаганидек, Бехбудий ҳар бир масалага ёндошишда узоқларни кўриб, масалани амалга ошириш учун ҳар хил усуллардан фойдаланади. “Мухторият лойиҳаси”га “маданий” сўзининг қўшилиши ҳам масалани амалга оширишнинг Бехбудийга хос ўддабуронлик кўриниши эди.

Бехбудийнинг “Туркистон маданий мухторият лойиҳаси” маданий масалаларни ҳал этишдаги расмий ҳужжат ҳисобланади. Лойиҳанинг изоҳида Темур Хўжаўғли оз бўлсада, созгина сўзларни ёзган. Унинг

ёзишича: “Бу матн диққат билан ўрганилса Бехбудийнинг чор Русияси қарамоғида Туркистонда яшаётган туркистонликлар учун (Бухоро амирлиги ва Хива хонлиги бунга кирмайди) ўз даврига кўра ғоят жасоратли, кенг ҳуқуқлар талаб этувчи мухторият истагани маълум бўлади” [4].

Лойиҳанинг “Иккинчи Дума фраксияси исломиясининг хидмати олийлари”на “Ифода” Бехбудий томонидан 1907 йил ноябрь ойида “Иттифоқи мусулмин” идораси номидан юборилган. Бунда Бехбудий: “Миллатимизни истеъдодсиз ва идораи дохилия ва афтономияни ижро ва ҳифзи (кўринмок) кодир эмас зан эдувчилар (гумон қилмок) албатта хато эдарлар. Оврупойи рус мусулмонларидан зиёдроқ афтономияни Туркистонга берилмоғи лозимдур”. Муаллифнинг таъкидлашича, Туркистон учун автономия берилиши талаби айна пайтда улкан жасорат эди. Муаллиф лойиҳани қўйидаги тўққизта: ““F” Дума хусусинда”, “Русия мусулмонлари раиси”, “Туркистон Идораи рухония ва дохилияси асосининг мусаввадаси туркистон Идораи рухония ва дохилияси хусусинда”, “Идораи рухония ва дохилия аъзоларининг хатти – ҳаракати”, “Идораи рухония ва дохилия тасарруфиндаги ишлар”, “Идораи рухония ва дохилия масъулияти”, “Туркистон қозилари хусусинда”, “Жоний ва бадкорлар”, “Туркистон яхудиylари ва ажнабийлари” каби бўлимлар ва элликта моддадан иборат бўлган нормаларни киритган. Шунингдек, унга “Мулкий маҳкамалар хусусинда ” қўшимча бўлим киритилиб, унга “Вакифлар хусусинда”, “Умумий мактаблар”, “Сув ва ерлар хусусинда” каби боблар остида йигирма бешта моддалар ўрин эгаллаган[5].

Лойиҳанинг ““F” Дума хусусинда” бўлими “Давлат Думаси учун Туркистон адади нуфус (аҳоли сони) исломиясига мутаносиб вакил сайлансун” дейилади. Профессор Б.Қосимов келтирганидек: “Ўша пайтда Туркистонда яшаётган рус аҳолисининг сони 322 минг, маҳаллий халқ адади 5 миллион 378 минг эди. Нисбат деярли бирга йигирма эди”(6). Тараққийпарвар айна пайтда олий орган ҳисобланган Думада маҳаллий миллат вакилларининг ҳам аҳоли сонига қараб, адолатли вакиллар сайланишини расмийлаштиришнинг тарафдори эди. Яъни, лойиҳанинг 2-моддасида “Русияга ва Русия ҳукуматиға дин ва дунё тўғрисида бўлатурғон мажлисларға адади нуфуса муносиб суратда Туркистон(дан) мунтахаб (сайланган) маъбус (вакил) жалб қилинсун” тарзидаги қафолат белгилаб қўйилган.

Лойиҳада уммроссия мусулмонларининг диний ва ҳаётий ишларини тартибга солиш мақсадида Петербурда “Ислом маҳкамаси” жорий этилиши ва унинг раисини тайин этиш масаласи иккинчи бўлимда қафолатланади. Белгиланадики, раис диний ва дунёвий илмлардан хабардор бўлган, сайлов асосида келиши назарда тутилади. Шунингдек, лойиҳанинг учинчи бўлимида Туркистон ўлкасида “Ислом маҳкамаси”нинг бош идораси Тошкент шаҳрида жорий этилиб, уни Шайхулислом лавозими ҳам сайлов асосида лавозимга келиши кўрсатилган. У лавозимдаги шахсининг диний ва дунёвий илмдан хабардорлиги лозимлиги белгиланган. Шунингдек, Туркистон ўлкасининг маъмурий ҳудудий тузилиши бўйича мавжуд Сирдарё, Фарғона, Самарқанд, Ёттисув, Баҳри Ҳазар (Закаспийск) вилоятларида ҳам “Ислом маҳкамаси” идораларининг бўлимлари жорий этилиши кўрсатилди. Ҳужжатнинг ушбу бўлимида бу идораларнинг штат таркиблари ҳам белгилаб қўйилган. Шунингдек, “Идораи рухония ва дохилия аъзоларининг хатти-ҳаракати” бўлимида Шайхулислом ва унинг қарорлари; унинг вилоят бўлимлари билан алоқалари ҳамда юқори идоранинг қарорларига риоя этилиши; мажлислар ўтказиш тартиблари каби қоидалар ўрин олган. “Идораи рухония ва дохилия тасарруфиндаги ишлар”

бўлимида идоранинг шўбаларидаги бир – бирларининг боғлиқликлари, уларнинг тартибга солиниши; шарият ҳуқуқи доирасидаги: ислом фуқаролик ҳуқуқи билан боғлиқ муносабатлар: туғилиш, бола боқиб олиш ва уни тарбиялаш, никоҳ ва талок, васият ишлари, вақф масалалари, мулкий муносабатлар каби масалалар билан шўғулланиш қоидалари идора тасарруфидаги вазибалар сифатида белгиланди.

Лойиҳанинг “Идораи рухония ва дохилия масъулияти” бўлимида идора ижроия маҳкамасининг, раис, аъзоларнинг вазибалари белгиланиб, маҳкаманинг биринчи вазибаси сифатида унинг тафтиш олиб бориши кўрсатилган.

Лойиҳа ҳужжатининг “Туркистон қозилари хусусинда” бўлимида Туркистон ўлкасида қозиларнинг лавозимга келишидан тартиб, бўшатилишигача бўлган тартиб қоидалар нормага солинган. Қозиларнинг сайланиш асосида лавозимга келиши, уларнинг шу лавозимга лойик ва лойик эмаслиги, уларнинг ишдан бўшатилиши идоранинг ихтиёрида бўлиши белгиланган. Қозиларнинг фавқуллода сёзларини ташкил этилиши кўрсатилган. Шунингдек, қозихона доирасидаги барча иш ҳужжатларининг маҳаллий тилда бўлиши белгилаб қўйилган. Қўринадики, белгиланган қоидаларда қозиларнинг барча тартиблари маданий норма қоидалари асосида бўлиши лозим.

Лойиҳанинг “Жоний (жиноятчи) ва бадкорлар (ахлоқсиз)” бўлимида эса шарият маҳкамаларига уч марта ўғирлик содир этганлар, миллатга зарар келтирадиган гуноҳли ишларни содир қилганлар жазоларини ўтаганларидан сўнг ҳам Туркистоннинг бошқа маҳаллаларига вақтинчалик ёки бир умрга ҳайдалиш қарорини бериш масаласи кўрсатилган. Лойиҳада белгиланганидек, ўлкада миллатнинг орасидаги ахлоқсизлик оқибатида содир этиладиган ҳолатларни йўқотишга эътибор қаратилади. Натижада маданий тарбияни кучайтириш зарурлиги кўрсатилади.

Лойиҳада “Туркистон яхудиylари ва ажнабийлари” бўлимида Туркистонда яшаб турган бошқа миллат вакилларининг сўз эркинлиги ишларида иштирок этиш масалари, даъво масалаларининг қоидалари нормага солинган. Яъни, агарда бошқа миллат вакиллари ўзлари билан боғлиқ даъво масалаларини содир этсалар, ўзларининг одат нормалари асосида, Туркистон ўлка миллат вакиллари билан боғлиқ муносабатларда содир этган суд ишлари юзасидан “Ислом идораси” маҳкамаларида қўриб чиқилиш тартиби белгиланган. Бу ҳам маданий тарбиянинг ўзига хос қўринишларидан бўлиб, миллатнинг келажи учун миллий тараққиётда ўзига хос аҳамиятга эга бўлади.

Ҳужжатнинг “Мулкий маҳкамалар хусусинда” бўлими изоҳий қоидалар тарқасинда берилган бўлиб, унда ҳам йигирма бешта модда киритилган. Мулкий ва молия масалалар бўйича идора ходимлари, аъзолари, маслаҳатчилари тайинланиши қонунийлаштирилган. Шунингдек, лойиҳада Туркистон ўлка халқига сув ва ерлар масалаларида катта ҳуқуқлар берилишини талаб этиб, бу йўналишда моддалар киритилган. Туркистондан дунёнинг ҳамма томонида яшовчи мусулмонлар ер олиш ҳуқуқиға эга бўлиши, ўлка миллат вакиллари ҳам дунё мусулмонлари билан шерикчилик қилиш қоидаи киритилди. Лойиҳада ер ва ҳудуд бўйича яна бир модда киритилганки, яъни Туркистон ўлкасига тегишли ерлар ғайри мусулмонларга тақдим этилмаслик масаласи эди. Шунингдек, ўлка халқининг ўзлари талаб қилмаган тақдирда ўлкаға муҳожирларни киритмаслик ва уларни жойлаштирмаслик масаласи ҳам модда сифатида амалийлаштирилган. Бу шунинг учунки, маҳаллий миллат аҳолисининг обрусини ошириш, уларнинг маданий савиясини кўтаришдан иборат эди.

Шунингдек, лойиҳанинг “Умумий мактаблар” бўлимида кўрсатилганидек, Туркистондаги ўқитиш масаласи ҳам Россиядаги умумий ўқитув масаласи каби тенг асосда бўлиши талаби қўйилади. Шунини айтиш лозимки, яна энг муҳим масалалардан яна бири, “Туркистон мактаб ва мадрасалари ҳукумат назоратидан озод бўлсун”, яъни бу дегани ўлкада хусусийлаштирилган ўқув мактабларини ташкил қилиш” эди. Бу эса, ўлкада маданий ва маънавий ислоҳат соҳасидаги кескин бўрилишга қадам қўйиш эди.

Кўринадики, Бехбудийнинг “Туркистон маданий мухторияти лойиҳаси” мустабидлик тузумида яратилишига қарамадан, миллатнинг маданий ва умумий ҳуқуқларини ҳимоя қилишга қаратилган ҳужжат бўлиб

майдонга чиқди. Ҳужжат тўла маънода инсоннинг маданий ва маънавий ҳуқуқларини тиклашга қаратилган.

Қаранки, Бехбудий бугунги мустақиллик кунларига интилиб яшаган, хурриятни кўришни истаган, инсоннинг маънавий ҳуқуқлари тикланган озод – эркин миллат ҳамда мамлакат бўлишини ҳақнинг олинishi деб қараган нажоткор инсон эди.

Адабиётчиларимиз Бехбудий ёзган “Туркистон маданий мухторияти лойиҳаси” билан танишиши, янада кенг тадқиқ этиши ва шунингдек адабиёт ҳамда ҳуқуқ ўртасидаги боғлиқликларни Бехбудий кўзи билан кўра олишлари лозим. Чунки, “Туркистон маданий мухторияти лойиҳаси” чинаккам демократик асосларни ўзида мужассам этган эди.

АДАБИЁТЛАР

1. Бехбудий М. Туркистон маданий мухторияти лойиҳаси//Жоҳон адабиёти, 2003 йил №8. – Б.146-156. Лойиҳа матни проф.Б.Қосимов томонидан эълон қилинган. Шунингдек, лойиҳа матни олим С.Ахмедов томонидан тўплаб нашрга тайёрланган: М.Бехбудий. Танланган асарлар.Биринчи жилд. – Тошкент: “Академнашр”, 2018. – Б.137-148.
2. Бехбудий М. Учинчи Думанинг ададдул эхтиром мусулмон фракцияси рижоли мужоҳидлари мажлисларина. Танланган асарлар.Биринчи жилд. – Тошкент: “Академнашр”, 2018. – Б.137-148.
3. Каримов Н. Эрк ва хуррият жарчиси. М.Бехбудий меросининг миллий ғоя тарғиботидаги аҳамияти. Илмий мақолалар тўплами. – Тошкент: “Мумтоз сўз нашриёти”, 2014. – Б.214.
4. Темур Хўжаўгли. Бехбудийнинг Туркистон маданий мухторияти лойиҳаси.Изоҳ//Жоҳон адабиёти, 2003.- №8. – Б. 147-148.
5. Бехбудий М. Учинчи Думанинг аладдул эхтиром мусулмон фракцияси рижоли мужоҳидлари мажлисларина. Танланган асарлар. Биринчи жилд. – Тошкент: “Академнашр”, 2018. – Б. 137-148.
6. Бехбудий М. Туркистон маданий мухторияти лойиҳаси. Б.Қосимовнинг сўз боши//Жоҳон адабиёти, 2003 йил №8. – Б.147.



УДК: 81'1:811.111:811.512.133

Камола АЛАУТДИНОВА,
Ўзбекистон Миллий университети таянч докторанти
E-mail: kamola.mansurovna.phd@gmail.com

ЎзМУ доценти, Ph.D. Ш.М. Жалолова тақризи асосида

SPECIFIC FEATURES OF ABBREVIATIONS IN LOGISTICS SPHERE

Annotation

This article discusses the abbreviations that make up most of the terminology of the logistics industry, the linguists who conducted research on them, as well as the specifics of the use of abbreviations in this area. Besides, according to the emperic analysis and gathered materials related to abbreviations in Uzbek language, we have classified the specific types of abbreviations, gave the definitions for them with authentic examples.

Key words: Logistics terminology, logistics terms, logistics abbreviations, Uzbek and English abbreviations, classification of abbreviations.

ОСОБЕННОСТИ АББРЕВИАТУР В СФЕРЕ ЛОГИСТИКИ

Аннотация

В данной статье рассматриваются аббревиатуры, составляющие большую часть терминологии логистической отрасли, лингвисты, проводившие исследования по ним, а также специфика использования аббревиатур в данной сфере. Кроме того, на основании эмпирического анализа и собранных материалов по аббревиатурам в узбекском языке мы классифицировали отдельные виды аббревиатур, дали им определения с достоверными примерами.

Ключевые слова: Логистическая терминология, логистические термины, логистические аббревиатуры, узбекские и английские аббревиатуры, классификация аббревиатур.

ЛОГИСТИКА СОҲАСИГА ОИД АББРЕВИАТУРАЛАРНИНГ ЎЗИГА ХОС ЖИҲАТЛАРИ

Аннотация

Ушбу мақолада логистика соҳасининг терминологиясини катта қисмини ҳосил қилган аббревиатуралар, улар устида илмий тадқиқот олиб борган тилшунос олимлар ҳамда айнан соҳага доир аббревиатураларнинг ўзига хос жиҳатлари тадқиқ этилди. Бундан ташқари ўзбек тилидаги аббревиатураларнинг таҳлили натижасида қисқартмаларнинг турлари аниқланди, уларнинг изоҳлари берилди, эмперик мисоллар билан тасдиқланди.

Калит сўзлар: Логистика терминологияси, логистика терминлари, логистика аббревиатуралари, ўзбек ва инглиз тили аббревиатуралари.

Кириш. Бугунги кунда номинатив бирликларни яратишнинг умумий усулларида бири бўлган қисқартмалар кенг қўлланилиб, замонавий Европа тилларида улардан фойдаланиш частотаси сезиларли даражада ошмоқда. Албатта бунда экстралингвистик ва интралингвистик омиллар сўзларни бевосита қисқартириш тенденциясини янада тезлаштиради.

С.А.Беляеванинг фикрича, қисқартмаларнинг пайдо бўлиш сабабларидан бири «замонавий илм-фан, техниканинг тез суръатда жадал ривожланиши бевосита мураккаб таркибли бирликларни ва сўз бирикмаларни ифодаловчи янги тушунчаларни ифодалаш истаги, сўз бирикмаларини қисқартиришни талаб қиладиган алоқа воситаларидан кенг фойдаланиш билан боғлиқдир»[1].

Маълумки, қисқартмалар билимнинг барча соҳаларига янгидан (био-, IT ва компьютер технологиялари) тортиб, анъанавий соҳаларгача (иктисодиёт, бизнес, техника, логистика, илм-фан ва бошқалар) кириб келди ва кенг қўлланилмоқда. Қисқартмалар иккинчи даражали номинативлар натижаси бўлиб, аниқлаш ва таснифлаш хусусиятларини қамраб олади. Қисқартмалар шунингдек, узул ва окказионал лексикада сўз яшаш лақуналари ёки лексикани тўлдирадиган восита сифатида хизмат қилади.

Е.С.Кубрякованинг фикрича, аббревиация, бу «сўз мақомига эга бўлган иккинчи даражали номинативларни яратиш жараёни бўлиб, яъни мотивация манбасининг исталган чизиқли қисмида ажратиб олишдан иборат бўлган, натижада ўз шаклида маълум бир қисмини ифода этадиган сўз ёки оригинал тил компонентидаги бирликни ифода этувчи сўзни пайдо қилади»[2].

Аббревиацияни маълум бир турдаги махсус белги деб ҳам аташимиз мумкин. Чунки, ҳар қандай қисқартма дастлаб мавжуд бўлган сўз ёхуд сўз бирикмаларининг бир варианты вазифасини бажаради. Кейинчалик эса мустақил сўз сифатида ўзига хос хусусиятларга эга бўлади ва кўпинча контекстга боғлиқ бўлмаган оддий лексик бирликлар тоифасига айланади.

Аббревиация сўз яшаш усули қисқартириш тоифасига кириб, маълумотларни интегратив узатиб, барча турдаги ахборот воситаларининг мазмунини оширишга ёрдам беради. Лексемаларни ёки терминологик бирикмаларнинг моддий қисмини қисқартириш бевосита уларни қабул қилиш тезлигига таъсир қилиб, маълумот узатиш жараёнини ҳам қисқартиради. Шунингдек, қисқартмалар нафақат тил бирлигининг талаффуз қилиш вақтини тежайди, балки, ёзув ҳаракатларини ҳам тежайт имкониятини беради.

Аббревиация инсон фаолиятининг барча жабҳаларида коммуникатив аҳамиятга эга бўлиб, иккинчи даражали номинативнинг энг махсусдор бўлинмаларидан бўлиб, бир томондан барқарорлиги билан, иккинчи томондан ўзгарувчанлик, ҳаракатчанлик хусусиятлари билан тавсифланади. Қисқартириш микросистемаси доимий ҳаракатда бўлиб, бу баъзи қисқартмаларнинг йўқолиши ва бошқаларнинг пайдо бўлиши, учинчисининг маъноси ўзгариши, тўртинчисининг дискурсив хусусиятлари ўзгариши билан боғлиқдир.

Маълумки, аббревиатура (италиянча *abbreviatura* латинча *brevis* «қисқа») - бу сўз ёхуд сўз бирикманинг қисқартмаси билан ҳосил қилинган ва инициал, яъни бош

харфларнинг алифбо номи ёки унга киритилган сўзларнинг бош товушлари билан ўқиладиган сўздир[3]. Ўзгариш содир бўлган қисмда, «ab»префиксни кенгайтиради, «-s» кичик сонини йўқотди ва узун«-atura» га эга бўлди деб изоҳланади. XVIII асрдан XX аср бошларига қадар бу сўз асл этимологик маъносиди қўлланилган. Жумладан, Флоренция Павленкованинг луғатидаги мазкур сўзнинг талқини бўйича: аббревиатура-«ёзма ва босмаҳонадаги қисқартма» деб келтирилади[4].

Мавзуга оид адабиётларнинг таҳлили.

Аббревиация назарияси ривожланиши юзасидан турли тилларда олимлар томонидан жуда кўп изланишлар олиб борилган. В.Ф.Алтайский, Д.И.Алексеев, А.А.Безрукова, Р.И.Могилевский, немис олими Г.В.Павлов, француз тилида К.Н.Подрезова, А.П.Шаповалова, К.Н.Редозубов, инглиз тилида И.А.Потапова, М.М.Сегаль, В.В.Борисов, О.Н.Семенова, В.Н.Шевчук ва бошқалар ўз ҳиссаларини қўшган. Алоҳида эътиборга молик тадқиқотчилардан яна Н.В.Гяч, В.Г.Гак, А.Н.Елдьшев, Г.М.Экономовлар қисқартмаларни турли тиллар материаллари асосида чоғиштириб ўрганганлар.

И.В.Арнольд таъкидлашича, қисқартмалар бўш жой ва кучни тежаш учун сўз ёки лексик бирликлнинг шаклини қисқартиришда қўлланилади. Қисқартмалар сўзнинг бир неча қисмларидан харфларни тушириб қолдириш орқали ҳосил қилинади[5].

Бу таъриф «қисқартириш» тушунчасини тўлиқ очиб бермайди ва «қисқариш, камайиштириш» тушунчасидан фарқ қилмайди.

О.С.Ахманова аббревиатурага «сўз бирликларнинг қисқартирилган бошланғич элементларидан (морфемаларидан) тузилган сўз», шунингдек, «сўзларнинг бош харфлари ёки бош товушларини қўшиш ёрдамида ҳосил бўлган сўз» деб таърифлайди[6].

Элиза Маттелло ўзининг «Extra-grammatical Morphology in English: Abbreviations, Blends, Reduplicatives» номли китобида «аббревиатура» ва «аббревиация» тушунчаларига қуйидаги талқинни беради: «аббревиатура (ёки (shortening)) тилдаги учта ўхшаш ҳодиса учун умумий терминдир, яъни қисқариш (clippings), акроним ва инициализмлаш» [7].

Тадқиқот методологияси. Инглиз тилшунослигида аббревиацияларни қўллаш учун турли терминлар қўлланилади. Жумладан: Abbreviation, abecedism, acronym, alphabetic word (alphabetism), anagram, blend, clipping, contraction, curtailment, elliptical word, incomplete compound, initialism, logogram, protogram, shortening, stump-word, trunk-word ва бошқалардир[8]. Айнан бир термин бир вақтда турли кўринишдаги қисқартмаларни ифодалаш учун қўлланилади ёки аксинча, айнан бир турдаги қисқартма турли терминларни англатиши мумкин. Бу каби терминологиядаги мавҳум ноаниқлик аббревиацияларни ўрганишни мураккаблаштиради.

Таъкидлаб ўтилган терминологиядаги аббревиациялар категориясини аниқлашда яқдиллик мавжуд эмаслиги билан бирга ханузгача, аббревиатуранинг функционал ва шаклланиши каби аспекти долзарб муаммолар қаторида қолмоқда. Олиб борилган тадқиқот натижаларига кўра хусусан, бир ёки икки тилдаги қисқартма жараёнларининг таҳлили маълум бир соҳада тематик жабҳаларда чегараланган бўлиб, мулоқотнинг маълум бир аниқ турида қисқартмалар қўлланилади. Бу эса турли тизимли тиллардаги материалларда аббревиация жараёнлари айнан аниқ тизимли интеграциялашган тадқиқотлар ўтказишни тақозо қилади.

Аббревиациялар бу флексив тилларда органик равишда ҳосил бўлган ҳодисадир. Инглиз, рус ва француз тиллари каби флексив тиллар қисқартма модели бўйича сўзларнинг ясалишида юқори потенциалга эгадир.

Агглютинатив, изоляциялаш ва инкорпоратив хусусиятларга хос тилларда эса қисқартмалар маданиятлараро ва тиллараро таъсири натижасида пайдо бўлади. Шунингдек, асосан тайёр аббревиациялар ва сўз ясаш моделлари флексив тиллардан ўзлаштири натижасида кириб келади. Қисқартмаларнинг тил тизимига кириши, уларнинг тўлақонли номинатив бирлик (иккиламчи) мақомига айланиши ва тўлиқ сўзлар биля яқинлашуви тил бирликларининг қуйидаги ўзига хос хусусиятларида намоён бўлади:

номинативлик;
формал-структур шаклга ўтиши;
мотивацион (асл шаклнинг номинатив қобилиятини ривожлантириш билан);
парадигматик (синоним ва омоним қаторларни шакллантириш билан) кириш;
парадигматик ва синтагматик муносабатлар;
семантик ривожланиш имкони;
семантик категориялар ва субкатегорияларнинг шаклланиши;

диахрон кесимда лексик маънонинг ўзгариши;
турли кўринишдаги дискурсларда қўлланилиши;
деривация жараёнларида иштирок этиш (қисқартирилган қўшма сўзлар ёрдамида –янги сўз ва шакллар ясаш);

фонетик структурани фонетикага ва орфоэпик тил меъёрларига мослаштириш ва ҳоказолар.

Умуман олганда инглиз, рус, ўзбек тилларида логистика соҳасида қисқариш жараёнларида универсал ҳодисалар ва тенденциялар интеграл ҳамда дифференциал хусусиятларни кўрсатади. Фарқли хусусияти кўпинча тилларни грамматик ташкил этишга боғлиқ эканлиги билан ажралиб туради. Флексив тиллардаги қисқариш жараёнларининг ўхшаш хусусиятлари структур, семантик, номинатив, мотивацион, деривацион, парадигматик, информатив, синтагматик, прагматик муносабатларда намоён бўлади.).

Лексик тизимларга кириш даражаси қисқартма бирликларнинг туридан келиб чиқиб фарқланади:

Юқори даражали лексик аббревиатуралар, қуйи даражали лексик аббревиатуралардир (график, график-лексик қисқартмалар).

Бугунги кунда қисқартмаларнинг ривожланишининг асосий тури бу сўзнинг ёки сўз бирикмаларнинг график-лексик қисқартмадан график вариантдан мустақил сўзга ўтиш шаклидир. Мулоқот жараёнида логистика қисқартмалари ўзига хос хусусияти билан тавсифланади. Масалан, соҳалар кесимида сиёсий- илмий соҳада хусусан, ҳамма турдаги қисқартмалар характерли бўлса, бизнес мулоқотида график қисқартмалар устулик қилади. Илмий соҳада хусусан график-лексик, маиший соҳаларда эса кўпроқ лексик қисқартманинг оддий тури қўлланилиши билан характерланади.

Логистика соҳасида аббревиациялар барқарорлиги, нейтраллиги, қисқартирилган лексик бирликларнинг умумий қўлланилиши ва мулоқотдаги ҳосил бўладиган қисқартмалар одатда стилистик жиҳатдан эса аниқ, экспрессив каби хусусиятлари билан ўзига хос аҳамият касб этади.

Аббревиациялар бу синонимик иборага киритилган лексемаларнинг ажратиб олинган қисмларидан таркиб топган отлар бўлиб, уларнинг охириги асосий компоненти ахлит, ажралмайдиган сўздан иборатдир. Шунингдек, қисқартирилган сўз-бу иборанинг қисқартирилган бошланғич элементларидан, яъни морфемалардан тузилган бўлади. Таҳлил қилинган материаллар натижаси шуни кўрсатадики, логистика соҳасида аббревиациялар жуда фаол қўлланилиши билан ажралиб туриши кузатилди.

Таҳлил ва натижалар. Логистика соҳасининг терминологиясининг жуда катта қисми аббревиату-

ралардан ташкил топган эканлиги тадқиқотимиз жараёнида аниқланди, айниқса инглиз тили логистика соҳасига оид аббревиатураларнинг ўндан ортиқ турлари ажратилиб олинди. Аббревиацияларнинг генетик типологик хусусиятларига кўра, ўзбек тилидаги логистик аббревиатуралар келиб чиқиш манбаларига асосан қуйидаги турларга ажратилиб тавсифланади.

Ўзлашган логистика аббревиациялари;

Кўчирма (калька, ярим калька, транслитерация-ланган) логистика аббревиациялари;

Автохтон турдаги аббревиациялар.

Кўчирилган аббревиатураларнинг ўзбек тилида ҳосил бўлишига экстралингвистик омиллар асосий сабабчи бўлади. Инглиз тилида турли хил қисқартмаларнинг миқдор жиҳатидан ортиб боришининг асосий сабаблари сифатида ахборот оқимининг ошиши, ижтимоий-иқтисодий, маданий алоқаларнинг юксалиши, оммавий коммуникатив воситаларининг тезкор ривожланиши, фанлараро дифференциалашув ва интеграциялашувини қайд этиш мумкин.

Ўзлашган логистик аббревиациялар инглиз тилидан тайёр ҳолда кириб келган аббревиатуралар ҳисобланиб, инглиз тилида пайдо бўлгани сабабли қисқартмалар талаффуз қоидаларига асосланган ҳолда ўқилади. Масалан:

Q (quotation) – Таклиф этилаётган хизмат тури;

P (price) – Хизмат нархи;

O (offer) – Талаб ва таклифнинг оптимал ҳолати (нарх ва маҳсулот миқдорининг оптимал кесишув нуктаси);

B – бугунги кундаги паррандачилик бозоридаги юқори нарх ва маҳсулот миқдорининг камлигини изоҳловчи нукта;

S (strong) – (Кучли томонлар (хизматга булган талабнинг мавжудлиги ва зарурий техниканинг мавжудлигига нисбатан қўлланилади);

W (weak) – (Кучсиз томонлар (кучли брендга эга эмаслиги);

FP (Full Period) – маълум маҳсулотнинг тўлиқ ишлаб чиқариш даври;

HP – автомобил электр қувватини ўлчаш паспорти;

Кўчирилган аббревиатуралар ҳам миқдор жиҳатдан салмоқли бўлиб, уларнинг ўзига хос дифференциал хусусияти – қисқартмани ташкил қилган материал (сўз, бўгин, морфема) асли инглиз тилидан кириб келган бўлсада аксар қисми рус тили орқали ўзбек тилига ўзлашган ҳисобланади. Рус тилидан калька ва

транслитерация усулида ўзлашган, аммо ўзбек тили логистика ҳужжатларида кенг қўлланиладиган қисқартмаларга қуйидагилар киради:

МП – хом ашё оқими;

ЛЦ – логистик занжир;

ЛО – логистик операция;

РЦ – тақсимловчи марказ (товарлар ва юкларга нисбатан);

МР – материал ресурслари;

ГП – тайёр маҳсулот;

Автохтон аббревиациялар сўз ва қисқартириш модели-қилипи ички манбадан олинган бўлиб, ушбу турдаги аббревиацияга акронимлар, реверсив ва қисман инициал қисқартмалар киради. Чоғиштирилаётган тиллар учун автохтон аббревиациялар нисбатан унчалик катта миқдорни ташкил этмаслиги билан тавсифланади. Уларга қуйидагиларни мисол тариқасида келтирамиз. Ўзбек тилида:

Тб (талаб) – Хизматга булган потециал талаб;

Тф (таклиф) – Хизматга потенциал таклифи;

Mat. Oqim (математик оқим) –инвертаризация тўплами;

Т – Тўсиқлар (кучли рақобатчиларнинг пайдо бўлиши);

Шунингдек, ўзбек тилида логистика соҳасига оид акронимлар ҳам фаол қўлланилади. Инглиз тилидан тўғридан тўғри транслитерация ёрдамида ўзлашган акронимларга қуйидагилар мисол бўла олади:

MP TRUCKS – материал ресурслари ташувчи юк машиналари; Just-in-Time – ўз вақтида етказиш

Ушбу акроним ўзбек тилидаги логистика лексемалари билан кенг қўлланилиб, аллақачон ўз терминологик тизмини шакллантириб улгургани эътиборга моликдир. Масалан; Just тизимини бошқариш, JIT ҳаракатлари, JIT тизими, JIT тизимини жорий этиш, JIT ни модификациялаш; MT оғбор.

Хулоса ва таклифлар. Шундай қилиб, аббревиация усули, янги сўз яшаш усулларида бири сифатида илм-фан, техника-технология, ижтимоий-иқтисодий бизнес ва логистика каби соҳаларда жадал суратда такомиллаштириш акс эттириб, бунинг натижасида кириб келаётган янги тушунчаларга ном беришда муҳим аҳамият касб этади. Хусусан, логистика термин тизими ва термин бирикмалари йиғиндисини, асосан, логистика соҳасида амал қиладиган, унда фаолият олиб боровчи мутахассислар ишлайдиган шароитлардаги ўзига хос реалаялар ва жараёнлар ҳисобига шаклланади.

АДАБИЁТЛАР

1. Беляева, С.А. Модели языковой компрессии в английской терминологии / С.А. Беляева // Терминоведение и терминография в индоевропейских языках. – Владивосток: ДВО АН СССР, 1987. – С. 110 – 118
2. Кубрякова, Е.С. Типы языковых значений / Е.С. Кубрякова – М.: Наука, 1981. – С.71.
3. Большая российская энциклопедия: [в 35 т.] / гл. ред. Ю.С.Осипов. – М.: Большая российская энциклопедия, 2004-2017.
4. Словарь иностранных слов, вошедших в состав русского языка: Сост. по Энциклопед. слов. Ф. Павленкова с соответствующими сокращениями в объясн. слов и доб. в их числе. – Санкт-Петербург: Ф. Павленков, 1900. – [4] с., 714 с
5. Арнольд И.В. Лексикология современного английского языка (текст) / И.В. Арнольд – М.: Высшая школа. 1986. – С.136-144.
6. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – М.: Советская энциклопедия, 1969. –607с.
7. Matiello, E / Extra-grammatical Morphology in English: Abbreviations, Blends, Reduplicatives (текст) / E. Matiello. – Berlin, 2013/ – 64с.
8. Кочарян, Ю.Г. Аббревиация в английской военной лексике: автореф. дис. ... канд. филол. наук. – М., 2007. – 21 с.



Shaxnoza ALMAMATOVA,
Jizzax davlat pedagogika instituti dotsenti, f.f.n
E-mail.shaxnoza@gmail.ru

Filologiya fanlari doktori N.Alimov taqrizi asosida

THE USE OF LEXICAL SYNONYMS IN ABDULLAH QAHHOR'S STORIES

Annotation

Although phrases are stable compounds, their components interact syntactically. Auxiliary lexemes also play an important role in making this connection. This article discusses phrases and their components, as well as their syntactic relationship.

Keywords: Phraseology, phraseme, verbal phraseme, language, speech, linguistics, stable combinations, semantic event, word meaning.

ABDULLA QAHHOR HIKOYALARIDA LUG'AVIY SINONIMLARNING QO'LLANILISHI

Annotatsiya

Frazemalar turg'un birikmalar bo'lishidan qat'i nazar, ularning komponentlari o'zaro sintaktik aloqaga kirishadi. Bunday aloqani ro'yobga chiqarishda yordamchi leksemalarning ham alohida o'rni bor. Ushbu maqolada frazemalar va ularning komponentlari xususida hamda ularning o'zaro sintaktik aloqasi haqida fikr yuritilgan.

Калит сўзлар: Фразеология, фразема, феъл фразема, тил, нутқ, тилшунослик, тургун бирикмалар, семантик ходиса, сўз маъноси.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ СИНОНИМОВ ЛЕГ В ИСТОРИЯХ ГНЕВА АБДУЛЛЫ

Аннотация

Сравнение служит основой для научных, философских, социальных, духовных и просветительских выводов. Сравнение чрезвычайно важна в развитии человеческого мышления. В этой статье обсуждается сравнение и ее роль в полировке человеческой речи, в частности, умение использовать сравнение в рассказах Абдуллы Каххара на основе анализа рассказов.

Ключевые слова: Фразеология, фразема, глагольная фразема, язык, речь, языкознание, устойчивые сочетания, семантическое событие, смысл слова.

Kirish. Tilshunoslikda sinonimlarning bir-birini inkor qilmaydigan bir necha xil ta'rifi berilgan. Sinonimlar til leksikasining tarkibiy qismidir. Ayni paytda, o'z ma'nolari funksional qo'llanishi jihatdan til stilistikasi, shuningdek nutq madaniyati bilan ham uzviy bog'langan bo'lib, bu sohada ham muhim ahamiyatga egadir. Bular oqibatda mazkur til hodisasining nazariy va amaliy ahamiyati qanchalik muhim ekanligini ko'rsatadi. Sinonimlar – leksik ma'nosi to'liq yoki qisman mos keladigan, bir so'z turkumiga oid fonetik jihatdan turli so'zlardir.

O'zbek tilshunosligida sinonimiya hodisasiga semasiologiya nuqtai nazaridan yondoshilmoqda. Shu nuqtai nazardan sinonimlar mazmun tomonidan muayyan gruppalar, qatorlarga birlashadigan so'zlarning bir ko'rinishi sifatida tavsiflanadi. Sinonimlarni bir gruppaga birlashtiradigan semantik asos, semantik kriteriy o'zbek tili sinonimik boyligini o'rganishda bu nuqtai nazar katta rol o'ynaydi. Bu prinsip asosida o'zbek tili sinonimlari bo'yicha qator tadqiqotlar amalga oshirildi, o'zbek tilining lug'aviy sinonimlari lug'ati yaratildi [1].

Semantik aspekt sinonimiya nazariyasi uchun juda katta ahamiyatga ega bo'lsa ham, lekin sinonimiya hodisasining tub mohiyatini ochishda, uning barcha tur va ko'rinishlarini izohlashda bu prinsip kamlik qiladi. Sinonimiya bilan maxsus shug'ullanuvchi tilshunoslarning fikricha, sinonimiya problemasini to'g'ri hal qilish uchun uning semantik aspekti bilan bir qatorda funksional aspekti ham hisobga olinishi lozim. Sinonimiya problemasining bu aspekti bo'yicha o'zbek tilshunosligida bir qator ishlar qilingan [2]. Sinonimiya problemasining semantik aspekti nazariya va amaliyot uchun qanchalik muhim bo'lsa, uning funksional aspekti ham bu soha uchun shunchalik zarur.

Funksional nuqtai nazardan sinonim so'zlar nutqda biri o'rnida boshqasi qo'llana oladigan so'zlar gruppasi sifatida talqin qilinadi [3]. Funksional tomondan sinonim so'zlar nutqda birining o'rnida boshqasi qo'llana oladigan so'zlardir. Lekin o'zaro o'rin almashish prinsipini sinonimlikning beistisno shartiga aylantirmaslik kerak. Ma'nolari absolyut teng keladigan ikki va undan ortiq so'zni topish qiyin bo'lgani singari, har qanday sharoitda o'zaro o'rin almashadigan ikki va undan ortiq so'zni ham topish oson emas.

Bu haqda ko'p va mo'l so'zlari misolida ko'rib o'tamiz: ko'p va mo'l so'zlari bir qarashda har qanday konstruksiyada, kontekstda o'rin almashadigan – sinonimlarga o'xshaydi. Ammo ularning nutqda qo'llanishiga nazar tashlasak, ularning o'rin almashish – funksional qo'llanish imkoniyatlari juda cheklanganligining guvohi bo'lamiz. Masalan: G'alladan ko'p hosil oldik-g'alladan mo'l hosil oldik, ammo mehmonga ko'p odam keldi-mehmonga mo'l (?) odam keldi; notiq ko'p gapirdi-notiq mo'l(?) gapirdi va hokazo.

Og'zaki va yozma nutqni, badiiy matnni o'rganish shundan dalolat beradiki, ma'lum matnda funktsionallik faqat lug'aviy sinonimlarga xos xususiyat emas. Sinonimiya masalari bilan maxsus shug'ullangan olimlar nutqda funksional qo'llanadigan vositalar doirasi lug'aviy sinonimlar doirasiga nisbatan beqiyos keng ekanligini alohida ta'kidlab ko'rsatishadi. O'zaro sinonimik aloqasi juda zaif bo'lgan so'zlar ham nutqda ba'zan biri o'rnida boshqasi qo'llana olishini ko'rsatadigan faktlar mavjud[4].

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Bu mulohazalar S.O.Karsevskiyning har qanday lingvistik ramz(so'z, leksik birikma, frazeologik ibora va shu kabilar) potensial sinonim hisoblanadi, degan fikri haqiqatdan uncha uzoq emasligini ko'rsatadi[5].

Bu keltirilgan nazariy xulosa va fikrlarning amaldagi, real faktlardagi ko'rinishini, isbotini haqiqiy xalq san'atkori bo'lgan Abdulla Qahhor hikoyalari misolida tadqiq qilamiz.

Buyuk so'z ustasi, xalq tilining bilimdoni Abdulla Qahhor xalq tilining o'zida bo'lmagan har qanday vositadan, u badiiy tilga qanchalik jilo berishidan qat'iy nazar voz kecha olgan. Ayni paytda shuni aytish lozimki, bu hol yozuvchining o'ziga xos hikoya uslubiga ham bog'liq. Abdulla Qahhor so'zni shunday qo'llaydiki, bunda so'zning asosiy ma'nosidan tashqari uning barcha ma'no qirralari, nozikliklari tiniq ko'rinib turadi. So'zning ma'no qirralari umumiy voqea, holat, yozuvchi pozitsiyasi, hikoyalarning yaxlit intonatsiyasiga to'lig'incha yopishib ketgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Ma'lumki, sinonimlar ijodkorga nutqning serjiloligini, ta'sirchanligini, ifodaliligini, ayni paytda mayin va shiddatligini ta'minlash uchun tanlash imkoniyatini beradi. Yozuvchi shu imkoniyatlardan qay darajada foydalanganligini hikoyalari misolida ko'rib chiqaylik. Bu o'rinda sinonimiya qatoridagi asosiy tushunchani tashuvchi so'z(dominanta)ning shaxsni, narsa-buyumlarni, tabiat hodisalarini anglatishi hamda nisbiy so'zlarning qo'llanishi nuqtai nazaridan tartib berilib izohlanadi.

Abdulla Qahhor hikoyalarida shaxsga taalluqli sinonimlar salmoqli o'rin egallaydi. Yuqorida ta'kidlanganidek, Abdulla Qahhor hikoyalarida so'zni shunday qo'llaydiki, so'zning asosiy ma'nosidan tashqari uning barcha ma'no qirralari, nozikliklari ko'rinib turadi. Yozuvchi pozitsiyasi, hikoya intonatsiyasiga yopishib, kirishib ketgan. Masalan: "Anor" hikoyasida:

Er-xotin tek qolishdi. Xotin... to'ng'illadi:

–Havasga anor yeydi deysiz shekilli...

–Bilaman... Axir, nima qilay? Xo'jayinimni o'ldirib pulini olaymi, o'zimni hindiga garov qo'yaymi? G'alatimisan o'zing?

Shu o'rinda g'alatimisan so'zi o'rinda qiziqmisan, eshushing joyidami? So'zlarini qo'llash mumkin edi. Qiziq, alomat, antiqa, g'alati, allambalo kabi sinonimiya qatorida qiziq so'zi stilistik jihatdan neytral, bo'lsa g'alati so'zi esa neytral emas, ya'ni unda achinish, ayash, ilojsizlik kabi ma'no qirralari ikkinchi shaxsga qaratilganligi bilan ekspressivlikni yanada oshirgan. Yozuvchining mahorati shundaki, o'ta asabiylashgan Turobjonni oila muqaddasligini saqlash, uning darz ketishiga yo'l qo'ymaslik nuqtai nazaridan juda sipolik, bosiqlik, mulohazakorlik bilan gapirtiradi.

"Adabiyot muallimi" hikoyasida shunday gapni o'qiy-miz:

Hamida o'n olti yoshlardagi tirik, quvnoq qiz, pochchasini ko'rib sevinib ketdi. ("Adabiyot muallimi", 1-tom, 103-bet).

Ayni o'rinda sho'x so'zi emas, balki tirik so'zi atayin qo'llangan. Bu so'z "qiz"ning sifatlovchisi sifatida quvnoq so'zi bilan birgalikda uyushib kelmoqda. Aslida quvnoq so'zi o'zining sinonimi bo'lgan sho'x so'zi bilan uyushib kelishi kerak edi, ammo "tirik"ni uyushiq bo'lak sifatida semantik-stilistik maqsadda qatnashtirgan. Bu adabiyot—"nafis adabiyot" muallimining ruhiy holati, dunyoqarashi, kasbni egallaganlik darajasiga juda mos tushgan. Agarda tirik so'zi o'rinda sho'x leksemasi qo'llanganda xushchaqchaq, o'ynoqi qiz sifatlanar edi. Lekin yuqorida tavsiflangan adabiyot muallimiga tirik – serg'ayrat, harakatchan, tiyrak sifatlariga ega bo'lgan shaxs – qiz qarshi qo'yilmoqda. Bu bilan "ikki olam" – o'zini "bilimdon", "yetuk" sanaydigan domla bilan bilimga chanoq, harakatchan qiz to'qnashmoqda. Ana shularning hammasi o'quvchini o'ylashga, fikrlashga, mulohaza yuritishga majbur qiladigan tirik leksemasi vositasida anglashilmoqda, tafakkur tarzi yoritilmoqda. Bu o'rinda tirik, serg'ayrat, harakatchan, tiyrak sinonimiya qatoridagi tirik leksemasi adabiy-badiiy nutqning emotsional-ekspressivligini shakllantirishga xizmat qilmoqda.

"Ming bir jon" hikoyasida: Mirrahimov (jikkakkina kishi) birdaniga uchta dardning nomini aytdi.

–Voy sho'rim!.. – dedi Mastura, – jindakkina joningizga-ya! Shu jussangizga uchta dard sig'adimi? ("Ming bir jon", 1-tom, 302-bet).

Ajoyib san'atkor, metindek iroda sohibi Abdulla Qahhor qahramonlar psixologiyasini yaratar ekan hayot uchun kurash, yashash uchun kurash nima ekanligini kichik-kichik detallarda beradi. Misolda berilgan jussa leksemasi o'zining sinonimi bo'lgan gavdaga nisbatan ekspressivligi bilan ajralib turadi. Gavda so'zi neytral. Unda umumiy ma'no –tashqi qiyofasiga ko'ra turli xil bo'lishi mumkin, aniqrog'i kichiklik, bejirimlik ottenkasi sezilmaydi. Jussa so'zi esa, albatta, kichiklik, noziklik kabi bo'yog'i bilan ajralib turadi. Hikoya bosh qahramoni Masturaning hayotga, yashashga chanoqligi, har qanday sharoitda ham o'zini dadil tutishga harakat qilishi uning hazil-askiyasidan ham bililib turibdi. O'zi bir holda-yu, o'z oyog'i bilan yurgan Mirrahimovning ustidan kulib "shu jussangizga uchta dard sig'adimi?" deyishi hammani ijobiy ma'nodan lol qoldiradi. Bu ruhiy jarayon, faqat, jussa so'zi bilangina ifodalanadi.

O'zbek tilining hassos bilimdoni Abdulla Qahhor asar qahramonlari holatini tasvirlashda tilimizning chuqur ummonlaridan nozik, nafis tushunchalarni anglatuvchi so'zlarni teradi. Bu so'zlar asar qahramonlarini shu qadar ayashga xizmat qiladiki, boshqacha aytsa go'yo asar qahramoni xafa bo'ladiganday, eziladiganday tuyulaveradi. "Ming bir jon" hikoyasida o'qiy-miz: Palataga kirdik. Shu payt oftob yana bulut orasiga kirdi-yu, palatani shom qorong'iligi bosdi. Kattakon derazaning chap tomonidagi karavotdan zaif, yo'q, zaif emas, mayin tovush eshitildi:

–Kelinglar... Rahmat! Odamga odam quvvat bo'ladi, ming rahmat! Akromjon, kursi qo'yib bering... ("Ming bir jon", 1-tom, 300-bet).

Asar qahramonining tovushini sifatlash uchun zaif, mayin so'zlarini sinonimik qo'llaydi. Zaif so'zi kuch-quvvatga nisbatan qo'llanib juda ham kuchsiz ma'nosini anglatadi. Lekin Abdulla Qahhor o'ta nimjon, "xasta emas", "o'lik", "teri-yu suyakdan iborat bo'lgan murda ichiga botib ketgan bo'zlar"ni zaif tovushli degisi kelmaydi, mayin tovush deydi. Bu o'rinda kuchsiz so'zining ma'no qirralaridan biri bo'lgan zaif leksemasini qo'llash bilan o'zining bundan noroziligini bildirib, go'yo xato qilganday zaif emas, mayin deydi. Shundan so'ng mayin so'zi har qanday holatda ham optimist bo'lishga chorlovchi chaqiriq bo'lib xizmat qiladi. Abdulla Qahhor hikoyalarida shaxsni, uning xarakteri bilan bog'liq voqea hodisalarini anglatuvchi sinonimlar bilan bir qatorda narsa-buyum, harakat bilan bog'liq bo'lgan sinonim so'zlarni ham o'ta chiroyli qo'llagan.

"Anor" hikoyasida shunday epizod mavjud: - Yo, qudratindan, ishonmaydi-ya! - dedi Turobjon keltirgan matoini titkilab, - mana chaynab ko'r! Ko'rgin, bo'lmasa, innaykeyin degin... ("Anor", 1-tom, 50-bet).

Bu o'rinda atayin narsa so'zining sinonimi bo'lgan mato so'zini ishlatgan. Narsa so'zi stilistik qo'llanish jihatdan neytral, mato so'zida shu ma'noda ekspressiya kuchli, ya'ni unda kamsitish bilan bog'liq ma'no qirrasini mavjud. Bu ma'no qirrasini titkilab ravishdosh shakli bilan yanada kuchaytirilgan. Anorga boshqorong'i bo'lgan va erining anor olib kelishini ko'zi to'rt bo'lib kutib o'tirgan ayol nazarida, bu-ku arining uyasi mumli asal ekan, toza asalning o'zi bo'lganda ham narsa emas, faqat mato bo'lar edi. Hikoya syujetining umumiy yo'nalishi, voqealar rivoji ayni shu o'rinda mato so'zini boshqa sinonim so'z bilan almashtirishga yo'l qo'ymaydi. Buyum, narsa, mol, mato(h) sinonimiya qatoridagi salbiy bo'yoqqa ega bo'lgan mato so'zi ushbu o'rinda yozuvchining maqsadini ro'yobga chiqarish uchun xizmat qilgan va u orqali muallif mahorati namoyon bo'lgan.

Abdulla Qahhor asarlarida semantik sinonimlarni[6] o'rinni qo'llagan. "Oltin yulduz" hikoyasida o'qiy-miz: Qish

o'tdi. Zo'r tashvishlar, umidlar ko'klami keldi. ("Oltin yulduz", 1-tom, 180-bet).

Matnda tashvishlar, umidlar leksemalari o'zaro sinonimik qo'llangan. Bu so'zlarining ma'nolarida nozik semantik qirralari ularni sinonimik holda qo'llab, uyushiq bo'laklar hosil qilish imkoniyatini bergan. Bir qarashda bu so'zlarning sinonimiya qatori tashkil qilishi sezilmaydi. Ular anglatgan ma'no nozikliklariga e'tibor berilsa, umumlash-tiruvchi tushuncha namoyon bo'ladi. Tashvish so'zi aksariyat hollarda salbiy bo'yqda qo'llansa-da, uning tinchini buzmoq (ijobiy ma'noda), urinmoq (foydali ishga) ma'no qirralari ham mavjud. Umid so'zining biror narsaga erishish uchun itilishi, istak, orzu, niyat kabi semantik komponentlari mavjud. Bu ma'no nozikliklariga e'tibor bersak, bir umumiy tushuncha harakat qilmoq sememasi atrofida birlashganini ko'ramiz.

Ayni shu o'rindagi sinonimlarning qator, uyushib kelishida ramziy ma'no ifodalangan. Qishning o'tishi, albatta, tabiiy qiyinchilik (havoning sovuqligi, qishdagi turli-tuman tashvishlar)ning bartaraf bo'lishini anglatmoqda. Bahor tashvishlari haqiqiy ma'nodagi zo'r tashvishlar: hamma tomonda-tabiatda, insoniyatda, hayvonotda bo'ladigan ijobiy ma'nodagi o'zgarishlardir. Ikkinchi tomondan, mavzu Ulug' Vatan urushi bo'lganligi, asosiy e'tibor urushning taqdiriga bog'liqligidir, ya'ni urushning qishi o'tdi, g'alaba onlari tobora yaqinlashayotgan, bizning urushda yutganimiz simvolini anglatmoqda. Endigi tashvish va umidlar, faqatgina, bahorday yoqimli, umidli, uyg'onuvchan harakatdan iboratligidir. Bunday semantik sinonimlarni o'rinli, mavridli qo'llash yozuvchi mahoratining namunalaridan biridir.

Hikoyalarda qo'llangan lug'aviy sinonimlardan yana biri – olov leksemasi. "Xotinlar" hikoyasida o'qiymiz: Risolat olovdek yonib turgan ufqqa qarab: - Ertaga havo ochiq bo'ladi, – dedi. ("Xotinlar", 1- tom, 268-bet).

Olov leksemasi o't, otash so'zlari bilan bir sinonimiya qatorini hosil qilib, stilistik neytraldir. Bu qatorda olov so'zi ham, o't so'zi ham paralel qo'llanaveradi. Deyarlik ko'pchilik o'rinlarda bir-birini almashtiradi. Ba'zan almasha olmaydigan o'rinlari ham mavjud (birinchi qavs o'rniga o'choqqa o't(olov) yoqdi. Urush olovini (o'tini?)yoquvchilar): « yoki »

Abdulla Qahhor hikoyalarining mavzusi rang-barang. Har bir hikoya voqea-hodisalariga mos bo'lgan so'z tanlash ne'mati Abdulla Qahhorga berilgandek ko'rinadi. "Xotinlar" hikoyasida kechgan voqealar milliy qadriyatlar asosiga qurilgan: insonni qadrlash, uning qabrini ziyorat qilish, shu asosda o'z insoniylik burchini qalban bajarish va boshqalar. Shu qadriyatlar sirasiga halq meteorologiyasi – ertangi ob-havoni bashorat qilish ham kiradi. Bu o'rinda ertangi kunning ochiq bo'lishi bugungi sa'y-harakatga bog'liq, qadriyatlarini mana shunday hurmatlash ertangi kunimizning ravnaqi hamdir, degan ramziy ma'no ham singdirilgan.

Shuningdek, "Karavot" hikoyasida tovush leksemasi vositasida hosil qilingan sinonimlardan o'rinli foydalanilgan: Biron kilometr yo'l bosilgandan keyin, shu yaqin oradan miltiq tovushi chiqdi. ("Karavot", 1 tom, 281-bet).

Keltirilgan parchadagi tovush leksemasi ovoz, tovush, un, sado, sas, nido, sazo so'zlari bilan birgalikda sinonimik qatorni tashkil qiladi. Bular orasida ovoz so'zi odam va jonli narsalar tovushini ifodalash uchun qo'llanilsa, tovush kalimasi odam, jonli narsalar hamda jonsiz predmetlarning urilishi

natijasida, ishqalanishi natijasida paydo bo'lgan ovozlarni ifodalash uchun qo'llanadi.

Tahlil va natijalar. Yuqorida ta'kidlanganidek, Abdulla Qahhor hikoyalaridagi voqealar tasviri, syujet chizig'i uning sarlavhasidan anglashilib turadi: kelajakka ishonch, kunning dolzarb muammolari, ijtimoiy hayotdagi keskin o'zgarishlar kabi. Xuddi shuningdek, "Yillar" hikoyasining sarlavhasidan ham ko'rinib turibdiki, vaqt, zamon, davr o'tishi, aksariyat holatlarda, dard, alam, achinish, afsuslanish bilan yakunlangan voqealardir. Bu hikoyada ham o'tmish bilan hozir(hikoya voqealari kechgan vaqt–izoh bizniki) taqqoslanib, afsus-nadomatlarining kech bo'lganligi tilimizning boy imkoniyatlarini mohirlik bilan qo'llash orqali tavsiflanadi: Hoji (Hojimirsiroj–izoh bizniki) ko'chaning u yuziga o'tib, bitta-bitta qadam tashlab borar ekan, o'ylar edi: "Mashina ham, bu mashinalar bilan qilinadigan ish ham o'zingniki ...tankist...tank ham o'zingniki! Yillar, yillar o'tdi! O'tgan bu yillar dunyoni ostin-ustin qildi!.." ("Yillar", 1-tom, 133-bet).

"Yillar" leksemasini reduplikativ qo'llash orqali vaqt deb ataluvchi o'lchov mezonining mahv qiluvchi lahzalarini eslatadi. Darhaqiqat, vaqt tushunchasi o'ta mavhum va o'ta aniq o'lchovdir. Vaqt falsafasi dam, on, lahzadan tortib aql bovar qilmaydigan uzoq muhlatga sayohatdir, ya'ni yuz beradigan voqea-hodisa va narsalarning asrlar, yillar, oylar, soatlar, minutlar va hokazolar bilan o'lchanadigan davomiyligidir. Yillar leksemasini takror qo'llash orqali asar qahramonini "kim edim-u kim bo'ldim", deb afsuslantiradi. Bu sinonimik qo'llash vaqtning kimlarning zarariga-yu, kimlarning foydasiga ishlashi, asosiysi, mehnat qilganning rohat topishi bosh falsafadir. "Vaqt doim harakatda: u senga biror narsani taqdim qiladi yoki bor narsangni tortib oladi" (Vilgelm Fisher) Abdulla Qahhor personajlar nutqini shakllantirishda so'zlashuv nutqiga xos, nisbiy so'zlar sinonimiyasidan ham o'ta mohirlik bilan foydalangan. Masalan: "To'yda aza" hikoyasida: Karim otaning bu taxmini, domlaning keyingi vaqtlardagi raftoriga qaraganda ehtimoldan uzoq bo'lmasa ham, odamlarga qattiq malol keldi. ("To'yda aza", 1-tom, 176-bet).

Parchadagi qattiq so'zi so'zlashuv nutqiga xos bo'lib, ayrim ma'no qirralari bilan juda ravishi hamda o'ta ravishdoshi bilan sinonimiya qatorini tashkil qiladi. Ayni o'rinda qattiq so'zining o'rniga juda, o'ta (juda malol keldi, o'ta malol keldi) so'zlarini qo'llash mumkin edi. Ammo bu so'zlar stilistik neytral, qattiq so'zi esa aynan shu ma'nosi – kuchaytiruv ottenkasi bilan stilistik buyoqdordir, ya'ni so'zlashuv nutqiga xos bo'lgan ma'no qirralari mavjud. Mahalla yoqimtoyi bo'lgan domladagi quusurlar, ularni befarq qoldirmaydi. Bundan ranjigan mahalla ahlining ruhiy holati qattiq so'zi orqali kuchaytirib berilmoqda.

Abdulla Qahhor hikoyalarida qo'shma so'zlar sinoni-miyasidan ham mohirlik bilan foydalangan. "Ayb kimda" hikoyasida shunday gapni o'qiymiz: Narigi uydin, uvadasi chiqib ketgan yostiqni ko'tarib, Hamdam chiqdi. ("Ayb kimda", 1-tom, 108-bet).

Xulosa sifatida ytish mumkinki, Abdulla Qahhor hikoyalarida fikrni aniq, maqsadga muvofiq tarzda ifodalash uchun lug'aviy sinonimlardan o'rinli foydalanish orqali tilimizning lug'aviy sinonimlarga boyligini yana bir karra namoyish qilgan.

ADABIYOTLAR

1. Хожиев А. Ўзбек тили синонимларининг изоҳли луғати. "Ўқитувчи"нашриёти,1974й.
2. Кучкортов И. Луғавий синонимик воситалар ва уларнинг асосий турлари. ЎТА журнали,1984 й,4-сон,3-8 бет.
When using another stylistic technique, such as comparison, a visual image arises when two explicitly expressed meanings of the characterized and the characterizing interact. It should be noted here that comparison is a less powerful means of creating a clear visual picture than metaphor. On the other hand, comparison is characterized by the presence of so-called similarity scales, which makes it possible to strengthen or weaken the sign of comparison by replacing comparative words.

A characteristic feature of the comparison is that it can explicitly emphasize certain aspects, qualities, features of the object being characterized, for example: Richard Tarleton stood straight as a lance, and had been handsome as Apollo.

The use of this technique is very common in fiction. Comparison is often used as a compositional technique, or serves as the basis for the deployment of the image [12].

A.I. Efimov in his work argues that comparison is a comparison of the described persons, characters, events, paintings with images with which the reader is familiar in most cases. As a result of this comparison, what is depicted seems to be concretized, becomes more obvious and expressive [13].

Another "helper" of the author in creating the image of the hero, to some extent, is hyperbole. Hyperbole as a stylistic device is widespread not only in our everyday speech, but also in works of fiction, as a very effective linguistic means in terms of expressiveness. It is intended to exaggerate, exceed or anticipate any characteristic of a measure of quality, quantity, degree or mode of action, events, processes and states in the daily activities of native speakers. According to

the famous philologist A.I. "Hyperbole is a stylistic figure of explicit and intentional exaggeration, in order to enhance the expressiveness and emphasize the said thought"[14]. Accordingly, writers can use this trope if they want to "elevate" their hero above others in order to highlight his special qualities. In such cases, hyperbole fits perfectly.

Analyzing other stylistic techniques, we can say that such techniques as, for example, litota, etc., which are not based on the representation of one subject through another independently, that is, not in combination with metaphor, metonymy or comparison, are not able to create a figurative picture.

As mentioned above, images create an opportunity to convey to the reader that special vision of the world that is contained in the text and inherent in the hero, author or his character and characterizes them. Therefore, images have a key position in the development of ideas and themes of the work, and when interpreting the text, they are considered as the most important elements in the structure of the whole.

The artistic work differs from real life in that it contains information about the characters, their characters and thoughts, their life stories are not only invented by the author, but also selected and organized in such a way that they serve the realization of the author's idea, that is, the creation of an artistic image. If in real life an event occurs on a clear sunny day, then it is a matter of chance. If the same thing is described in a work of fiction, then this is already the author's choice. The author could not mention the weather at all if it does not affect the image, but could "make" the sun shine to emphasize the bright, joyful mood of the characters. Unlike real life, there are no accidents in a literary text; there are only means of creating an image.

Any literary work reflects the ideas, life experience and attitude to the events of its author, condensed into symbols that can convey emotions. These symbols and emotions, expressed using the above means, give importance to the characters of certain ideas and feelings of the heroes of literature, create the illusion that what we are reading about, or about whom we are reading, lives its own life and is an important component of a work of art.

LITERATURE

1. Маслова, В.А. Филологический анализ художественного текста. М.: Минск, 1997. – 173 с.
2. Арнольд И.В. Стилистика. Современный английский язык : учебник для вузов. – М.: 2002. – 384 с.
3. Голуб И. Б. Русский язык и культура речи. М.: 2010. –432 с.
4. Кожина М.Н. Стилистика русского языка М.: 2003. – 223 с.
5. Розенталь Д. Э., Теленкова М. А. Словарь трудностей русского языка. - 3-е изд. — М.: Айрис-пресс, 2003. 832 с
6. Ярцева В. Н. Лингвистический энциклопедический словарь / – 2-е изд., доп. – М. : Большая рос. энцикл., 2002. – 709 с
7. Касаткин Л.Л. Краткий справочник по современному русскому языку - М.: Москва, 1991. – 400 с.
8. Токмаков А.Н. Метонимия как средство прагматического воздействия: на материале французской кинокритики. М.: 2005. – 23 с.
9. Гальперин И.Р. Очерки по стилистике английского. М.: Либроком, 1958. – 459 с.
10. Турсунова, Л. А. Структурные типы и стилистические функции эпитета в языке английской художественной литературы XX века. М.,1973. – 198с.
11. Кухаренко, В.А. Интерпретация текста М.: Просвещение, 1988. – 192 с.
12. Потоцкая Н.П. Стилистика французского языка. – М.: Москва, 1974. – 247 с.
13. Ефимов А.И. О языке художественных произведений. – М.: Издательство МГУ, 1954. – 288 с.
14. Николаев А. И. Лексические средства выразительности: учебное пособие для студентов филологических специальностей. М.: ЛИСТОС, 2011. – С. 121-139.



УДК:81(045)(575.1)

Махлиё МИРЗААХМЕДОВА,
Тошкент давлат юридик университети катта ўқитувчиси
E-mail: tsul77777@gmail.com

ФарДУ ўқитувчиси ф.ф.ф.д. PhD. М.Дехқонова тақризи асосида

THE INTERPRETATION OF ENLIGHTENMENT IN “OTHELLO” BY SHAKESPEARE

Annotation

Although the idea of goodness is specific to any work of art, the criteria is that it ensures the realization of goodness and is interpreted differently by writers. However, the concept of enlightenment has always played an important role in the emergence of a literary pattern in line with the idea of goodness. This article is devoted to the interpretation of the idea of enlightenment in the tragedy “Othello” by William Shakespeare, one of the rare masterpieces of world linguistics.

Keywords: Enlightenment, idea, kindness, knowledge, tragedy, sanctification, suffering, western literature.

ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ПРОСВЕЩЕНИЯ В ТРАГЕДИИ УИЛЬЯМА ШЕКСПИРА «ОТЕЛЛО».

Аннотация

Хотя представление о добре специфично для любого художественного произведения, критерии, обеспечивающие реализацию добра, трактуются писателями по-разному. Но понятие просвещения всегда играло важную роль в возникновении литературного образца, соответствующего идее добра. Данная статья посвящена интерпретации идеи просвещения в трагедии «Отелло» Уильяма Шекспира, одного из редких шедевров мирового языкознания.

Ключевые слова: Просвещение, идея, доброта, знание, трагедия, освящение, страдание, западная литература.

УИЛЬЯМ ШЕКСПИРНИНГ “ОТЕЛЛО” ТРАГЕДИЯСИДА МАЪРИФАТ ТАЛҚИНИ

Аннотация

Эзгулик ғояси ҳар қандай бадий асар учун хос бўлса ҳам, эзгуликнинг рўёбга чиқишини таъминловчи мезонлар адиблар томонидан турлича талқин қилинади. Лекин маърифат тушунчаси ҳақида эзгулик ғояси билан уйғун ҳолда адабиёт намунасининг пайдо бўлишида муҳим аҳамият касб этади. Мазкур мақола жаҳон тилшунослигининг нодир дурдоналаридан бўлган Уильям Шекспирнинг “Отелло” трагедиясида маърифат ғоясининг талқин этилишига бағишланган.

Калит сўзлар: Маърифат, ғоя, эзгулик, билим, трагедия, табаррук, изтироб, ғарб адабиёти.

Кириш. Билим, илм, маърифат тушунчалари кенг қамровли бўлишига қарамай, қўлланилиши, моҳиятига кўра бир-биридан фарқ қилади. Луғатларда билим – объектив борлик ҳақидаги муайян (илмий, маданий, маърифий, маънавий, ҳарбий ва бошқа) соҳаларга оид илмий, амалий маълумотлар, тушунчалар мажмуи; илм – ўқиш ўрганиш ва тадқиқот, таҳлил этиш билан эришиладиган билим, кўникма, маълумот; маърифат – таълим-тарбия, иқтисодий, сиёсий, диний, фалсафий ғоялар асосида кишиларнинг онг-билимини, маданиятини ўстиришга қаратилган фаолият. У табиат, жамият ва инсон моҳияти ҳақидаги турли билимлар мажмуаси сифатида изоҳланади[1]. Бу тушунчалар орасида мазмун-моҳияти жиҳатидан маърифат юқорида мазмун касб этади. Шу сабабдан ҳам мазкур мақолада Уильям Шекспирнинг Отелло асарида маърифат талқини масаласини ёритишга жазм қилдик.

Тадқиқот методологияси. Ушбу тадқиқотнинг мақсади Шекспирнинг “Отелло” трагедиясида маърифат талқинини ёритиш, бу тушунчанинг қандай акс этганини таҳлил этиш саналади. Тадқиқотни амалга оширишда “Отелло” трагедиясининг Ғ.Ғулом томонидан амалга оширилган таржимаси тадқиқот объекти сифатида танлаб олинди. Тадқиқотнинг предметини “Отелло” трагедиясидаги маърифат тушунчасининг талқини ташкил этади.

Уильям Шекспирнинг “Отелло” трагедиясидаги қаҳрамонларнинг маърифий дунёсини ёритиш, уларни баҳолаш ва шу орқали буюк драматургнинг маърифий образ яратишдаги маҳоратини таҳлил қилиш мақсадида адабиётшуносликнинг назарий методларидан анализ, синтез, дедукция, аналогия методларидан фойдаланилди.

Мавзуга оид адабиётлар таҳлили. Инсон туғилган пайтиданок атрофдаги оламни англашга, янгиликларни кашф этишга мойил бўлади, улғайиб борар экан, ўз билимини, илмини кенгайтириб бориш натижасида юксак маънавиятли, маърифатли шахсга айланиб боради. Сўз санъати – бадий адабиётнинг асосий вазифаларидан бири эса инсонларнинг билимини ошириш, маърифатли шахс сифатида шаклланишларига кўмаклашидир. Шу сабабдан ҳам барча даврлар ва барча халқлар адабиётида маърифат талқини ўз аксини топган.

Ғарб адабиёти тарихига назар ташлайдиган бўлсак, энг қадимги юнон афсоналари, миф ва асотирларида ҳам маърифатли шахс тимсоли энг биринчи планда турганига гувоҳ бўламиз. Юнонлар ажойиб афсона, ривоят, шеър, дoston, трагедия ва комедиялар яратганлар, бу ривоятлар оғзаки тарзда авлоддан авлодга ўтиб келган. “Прометей”, “Геракл”, “Дедал ва Икар”, “Аргонавтлар”, “Одиссея ва Иллиада” каби афсона ва дostonлар юнон адабиётининг нодир намуналари ҳисобланган. Санаб ўтилган адабиёт намуналарида асосий қаҳрамонлар кучли, жангвор қобилиятларга эга, яхши етакчи бўлишлари билан бир қаторда, жуда ақлли ва доно, муаммоларга тез ечим топа оладиган уддабурон ҳам бўлишган. Бу эса антик даврлар адабиётида ҳам маърифатнинг акс этганини англатади.

Маърифатга, илмиларга бундай қарашлар Уйғониш даври адабиётида янада тараққий топди, ривожланди. Хусусан, буюк драматург Шекспир ўз асарлари орқали инсонпарварлик ва маърифатни худбинлик, мунофиқлик, ёвузликка қарши қўйиб, эзгулик ғояларини тараннум этди. Шекспирнинг бутун ижодини нурлантириб турувчи хусусият юксак ахлоқий маънавий муаммоларнинг тасвири ёритилганлигидир.

Шекспирнинг жаҳон адабиётида қолдирган изи бекиёс, асарлари неча асрлар ўтса ҳам долзарб. Шекспир трагедияларини саҳналаштирамаган бирор халқ театри бўлмаса керак. Хўш, Шекспир трагедияларининг муваффақияти нимада? Драматургияда бутун дунё бўйлаб ҳар йили минглаб саҳна асарлари ёзилади, шундай бўлса ҳам буюк Шекспирнинг асарлари ҳеч қачон унутилмайди, иккинчи планга ўтиб қолмайди. Бизнингча, бундай муваффақиятнинг сабабларидан бири драмаларнинг маърифатга йўғрилганлиги, эзгуликнинг улуғланганлигидир.

Шу ўринда маърифат ва эзгулик ўртасида ўзаро боғлиқлик хусусида тўхталиб ўтиш жоиз. Ҳар қандай бадиий асар асосида эзгуликка етаклаш, ёвузликдан қайтариш мақсади ётади. Инсоннинг эзгуликни ўрганиши замирида эса билим, маърифат ётади. Юқорида маърифат сўзига берилган таърифда уни таълим-тарбия, сиёсий, иқтисодий, диний, фалсафий қарашлар асосида маънавиятини юксалтиришга қаратилган фаолият сифатида кўриб чиққан эдик. Демак, инсон нимадир янги нарсга ўрганса, маърифатли бўлиш томон бир қадам ташлаган саналади. Бу эса эзгуликка томон ташланган қадам ҳам ҳисобланади. Демак, Шекспир ўз трагедияларида эзгулик ва ёвузлик ўртасидаги азалий курашни акс эттириб, барча даврлар ва халқлар учун хос бўлган ғояларни акс эттирган. Инсоният ҳаёти билан бевоқифа уйғун бўлган эзгулик/ёвузлик конфликтини яққол акс этгани учун ҳам Шекспир асарлари ўз қиммати, аҳамиятини йўқотмайди. Эзгуликнинг негизида эса маърифат ётади.

Натижа ва таҳлиллар. “Отелло” трагедиясининг бош қаҳрамони – араб қўмондони Отелло трагедияда ўзининг маърифатини бор бўйи билан намоён этади. Қуйидаги сатрларни таҳлил қилиб кўрайлик:

Отелло:

Ҳой, шу олмос қиличларни қинига жойланг,
Тагин шабнам кўниб, занглаб қолмасин улар.
Бизга таъсир этадиган кулолингизмас,

Шу табаррук ёшингиздир, муҳтарам синьор.

Отелло - жангчи, унинг ҳаётини жанглрсиз, қуролларсиз тасаввур этиб бўлмайди. Шунга қарамай, юқоридаги сатрларда Отеллонинг ёши улуг инсонлар билан қиличбозлик қилмаслиги акс эттирилган. Қилич ҳаётининг ажралмас қисми бўла туриб, Отелло ёши улуг инсонларга ҳурматини, уларни иззат қилишини унга “таъсир этадиган нарсга қурол эмас, табаррук ёш” эканлигини таъкидлаш орқали ифодаляди. Ўта тарбияли, маърифатли зотларгина бундай илтифот кўрсатишга қодир бўлади. Демак, Отелло образининг асоси эзгулик билан, маърифат билан муносабат билдириш асосига қурилган.

Отеллонинг ақл-идроки, матонати Дездемона нуткида акс этган сатрлар ҳам мавжуд:

Дездемона:

Мен марвни севдим бирга яшамоқ учун.
Қисматининг қанотланган, учқур бўрони
Бу савдони бор дунёга қилди овоза.
Юрагимни асир этдим матонатига,
Ақлу идрокида кўрдим унинг жамолин.
Унинг шавкатига, унинг шижоатига
Қалбим билан толсимни тикдим тамоман.

Дездемона бу сўзлари билан Отеллонинг севиб қолганини тан олади, ҳабаш қўмондоннинг айнан қандай фазилатлари унинг муҳаббатига сазовор бўлганини санаб ўтади. Ҳабаш бир жангчини қандай севиш мумкинлигига барча хайрон қолиб, ўз таажжубини изҳор этган пайтда Дездемона “унинг жамолини ақлу идрокида кўргани”ни баён этади. Бу билан амин бўлиш мумкинки, Отеллонинг кучи, ютуғи, Дездемонани ўзига ром қилган фазилати унинг ақли ва идрокидир.

Юқорида таъкидланганидек, маърифат – эзгуликнинг асоси, маърифатли шахс яхши инсоний фазилатларга ҳам эга бўлади. Яго нуткидан келтирилган қуйидаги сатрларда Отеллонинг инсоний фазилатлари ҳам акс этган:

Яго:

Мавр табиатан софдил, содда эмасми,
Бу гапларга ишонади, лаққа тушади.
Мен эсамчи, нўхта солиб унга бегумон,
Эшшак каби йўрттираман, этаман сарсон.

Отеллонинг табиатан софдил, содда, ишонувчан эканини билган Яго унга қарши режа тузиб, тузоқ қўяди. Табиийки, барчани ўзи каби ҳақиқатгўй деб уйлаган Яго тухматларга ишонади.

Яго салбий қаҳрамон, лекин у ҳам ақлли, фақат ақлини жамият манфаати учун эмас, ўз фойдасига ишлатади. Яго Дездемона ва Эмилиага лагифалар айтиб, унда аёллар ҳақида ўз фикрларини билдиради:

Яго:

Қиз оқила, аммо хунук бўлса, беэиён,
Муносиб бир йигитчани топар бегумон.
Гўзал, аммо нодон бўлса, бўлур аломат,
Нодонлиги туғишига қўл келар фақат.

Бу сатрларда ҳам Дездемона фикрларининг такрорини учратамиз. Дездемона Отеллонинг ақли, заковати ташқи кўринишидан устун келишини эътироф этганидек, Яго ҳам кизларнинг хунук бўлса ҳам оқила бўлиши зарурлиги, бундай кизлар гўзал ва нодон кизлардан устун туришига урғу беради. Хулоса қилиш мумкинки, фикрлар қаҳрамонлар тилидан айтилган, аслида Шекспирнинг ғоялари, унинг маърифатга, илмликка чорловидир.

Шекспирона муваффақиятнинг яна бир жиҳати ёвузлик орқали ҳам эзгуликнинг ифодаланишидир. Қоронғулик бўлмаса, ёруғликнинг, совуқ бўлмаса иссиқнинг хоссаларини билиб бўлмайди. Шу сабабли салбий қаҳрамонлар ҳам ижобийларининг фазилатларини янада бўрттириб кўрсатиш, салбий ҳолатлар ижобийларининг намунавий жиҳатларини акс эттириш учун измат қилади.

“Отелло” трагедиясида ҳам Кассио аслида виждонли, олижаноб, масъулиятли шахс. Яго унга шароб таклиф қилиб, турли номақбул ҳаракатлар қилишга йўллайди. Хушига келгач, ўз қилмишидан пушаймон бўлган Кассио алам ва изтироб, уят билан қуйидаги фикрларни баён этади:

Ундан кўра, мени ҳақорат қилинг, деб ялиниб –
ёлвораман... Ўлгудек ичиш!... Сўнг тўтидек валақлаш... Уч
пуллик нарсани деб жанжал – тўполон кўтариш, кўприб
мақтаниш, сўқиниш... Кейин ўз соянг ила баланддан келиб
гапдонлик қилиш!... О, сен, шаробнинг кўринмас арвоҳи!
Номинг бўлмаганда, сени иблис деб атасак, яхшироқ
бўларди!

Кимгадир бирор зарарли ишни қилма, дейиш мумкин. Лекин бу сўзларнинг таъсири нисбатан кам бўлади. Шу зарарли ҳатти-ҳаракатнинг оқибатларини келтириш эса инсонни фикр қилишга ундайди, нутқнинг таъсир даражасини оширади. Худди шундай, юқорида келтирилган нутқ парчасида Кассио ўз қилмишидан пушаймон бўлиб, ичкилик оқибатида қандай ноҳўя ишларни амалган оширганини айтади. Бундай моҳирона ифодалаш орқали Шекспир ичкиликнинг зарарларини келтиради, бунга Кассионинг мисол қилиб келтириш эса энг тўғри танлов бўлган. Чунки маърифатли, яхши инсон ҳам алданиши, хато қилиши мумкин. Фақат фарқи шундаки, маърифатли шахс ўз хатосини тан олади, хатосидан тўғри хулоса чиқаради. Бу ҳам, қайсидир маънода Кассио маърифатининг намоён бўлишидир.

Хулоса ва таклифлар. Келтирилган таҳлиллардан хулоса қилиш мумкинки, Шекспир “Отелло” трагедияси

оркали маърифатли шахс ғоясини ҳам тарғиб қилган. Шекспирнинг “маърифатли шахс”и фақат билимли, ақлли инсон эмас, чунки Яго ҳам ақлда Отеллодан, Кассиодан кам эмас, балки устунроқ ҳам. Буюк драматургнинг ғоясига кўра, маърифатли шахс оқил ва доно бўлиш билан бир қаторда, эзгу фазиларга эга бўлган, софдил,

виждонли, ўз хатоларидан тўғри хулоса чиқара оладиган шахсдир. Демак, шекспирона маърифатли шахс эзгулик ғоялари билан тўйинтирилган, эзгу амаллар қилувчи, билими ва ақлини фақат ўз манфаати учун эмас, жамият, инсоният манфаати учун сарф қиладиган қаҳрамондир.

АДАБИЁТЛАР

1. Ўзбек тилининг изоҳли луғати 5 том. Тошкент: 2006-2008 йил.
2. Ҳаққулов И. Шекспир машъали. Б-81//Қаранг:Вильям Шекспир. Сайланма.Биринчи жилд.Тошкент: “Фан”, 2007.
3. Вильям Шекспир “Отелло”: таржимон Ғ.Ғулом.-Тошкент: “Адабиёт ва санъат нашриёти”, 1981.
4. Жўраева С. Ҳақиқат манзаралари. Тошкент. 2010.
5. Жўрақулов.У.Назарий поэтика масалалари. –Тошкент: Ғофур Ғулом, 2015.
6. Маматқулова Х.А. Навоийнинг “Лайли ва Мажнун”, Шекспирнинг. “Ромео ва Жультта” асарларининг қиёсий тадқиқи. Фил.фан.ном...дисс.-Тошкент, 2010.
7. Сулаймонова Ф. Шарқ ва Ғарб. –Тошкент.: Ўзбекистон, 1997.
8. Тоҳир Малик. Одамийлик мулки. Тошкент. 2017.
9. Mirzaakhmedova, M. Y. Approaches to science and education in the east and in the west. International journal of science and research (ISSN 2319-7067).
10. Yuldashevna, M. M., & Abdijalilovna, Z. D. (2019). The impact of the East in Shakespeare's tragedies. Journal of Critical Reviews, 7(3), 2020.
11. Iskandarovna, X. G., & Yuldashevna, M. M. (2020). The interpretation of enlightenment in shakespeare and navai works. PalArch's Journal of Archaeology of Egypt/Egyptology, 17(6), 14793-14810.



УДК:812. 978

Шахрибон МУСУРМАНКУЛОВА,
Гулистон давлат университети докторанти
E-mail: Shahribon_musurmanqulova@gmail.com

АДУ доценти, ф.ф.н З. Қодиров тақризи асосида

ФРАЗЕМАЛАРНИ СТРУКТУР-ГРАММАТИК ЖИХАТДАН МОДЕЛЛАШТИРИШ

Аннотация

Ушбу мақолада фраземаларни структур-грамматик жиҳатдан моделлаштириш ҳақида сўз юритилган. Моделлаштириш тилнинг барча сатҳ бирликлари ҳос универсал ҳодиса сифатида амал қилади. Хусусан, тилнинг қуйи сатҳига тегишли фонологик бирликлардан то юқори сатҳ бирликлари қадар барча сатҳ бирликлари лингвистик тадқиқот объекти сифатида тил-нутқ дихотомияси асосида инвариант-вариант зидланишини ҳосил қилади. Ҳар қандай модель, шу жумладан фразеологик модель ҳам моделлаштирилаётган объектнинг энг муҳим белгилари муносабатидан ташкил топган конструкт эканлигига таянган ҳолда ҳосил қилинади.

Калит сўзлар: Фразема, моделлаштириш, тилшунослик, семантик ва синтагматик хусусиятлар, сатҳ бирликлари, турғун бирикмалар.

STRUCTURAL AND GRAMMATICAL MODELING OF PHRASEMAS

Annotation

This article discusses structural-grammatical modeling of phrases. Modeling acts as a universal phenomenon specific to all level units of language. In particular, all phonological units from the lower level of the language to the upper level units form an invariant-variant contradiction based on the dichotomy of language-speech as an object of linguistic research. Any model, including a phraseological model, is created based on the fact that the object being modeled is a construct consisting of the relationship of the most important features.

Keywords: Phrase, modeling, linguistics, semantic and syntagmatic features, level units, fixed compounds.

СТРУКТУРНО-ГРАММАТИЧЕСКОЕ МОДЕЛИРОВАНИЕ ФРАЗЕМ

Аннотация

В данной статье рассматривается структурно-грамматическое моделирование словосочетаний. Моделирование выступает как универсальное явление, характерное для всех уровней единиц языка. В частности, все фонологические единицы от нижнего уровня языка к единицам верхнего уровня образуют инвариантно-вариантное противоречие, основанное на дихотомии язык-речь как объект лингвистического исследования. Любая модель, в том числе и фразеологическая модель, создается исходя из того, что моделируемый объект представляет собой конструкт, состоящий из взаимосвязи важнейших признаков.

Ключевые слова: Словосочетание, моделирование, языкознание, семантико-синтагматические признаки, уровневые единицы, устойчивые соединения.

Кирриш. Дунё тилшунослигида тилни белгилар системаси сифатида эътироф этиш, ҳар қандай тил бирлигини, жумладан, фразеологизмларни элементларнинг ўзаро муносабатидан ташкил топган система сифатида белгилаш, шаклий ва мазмуний хусусиятларини асослаш, уларни синтагматик ва парадигматик муносабатлари асосида моделлаштириш долзарб масалалардан ҳисобланади.

Ҳар бир халқнинг, миллатнинг урф-одатлари, маънавияти унинг тилида намоён бўлади. Миллат кўзгуси сифатида халқ маданиятини ўзида намоён этувчи, унинг руҳиятини яққол кўрсатишга хизмат қилувчи муҳим воситалардан бири бўлган фразеологик бирликларни яхлит шаклий ва мазмуний структурага эга бўлган, муайян элементларнинг барқарор муносабатидан ташкил топган қурилма эканлигини илмий асослаш, тил бирликларига мураккаб қурилма сифатида ёндашиш ва уларнинг конструктив моделларини яратиш, фразеологизмларни семантик-структур ва шаклий-синтагматик асосда тадқиқ этиш, шу орқали уларни моделлаштириш тилшуносликнинг долзарб вазифаларидан саналади.

Мавзуга оид адабиётлар таҳлили. Дунё тилшунослигида тил бирликлари, хусусан, фразеологизмларни шаклий моделлаштириш масалалари XX асрнинг бошларида тилшунослар эътиборини торта бошлаган. Мустиқиллик йилларида тилнинг узоқ йиллик тарихини

мукаммал ўрганиш, унинг табиатини очиб бериш, тилимизни илмий асосда пухта ўрганишга қаратилган лингвистик тадқиқотлар муҳим муаммо сифатида кун тартибига қўйилмоқда. Бу эса фразеологизмларни шаклий ва мазмуний асосда моделлаштириш муаммосини монографик тадқиқот объекти сифатида лексик ва грамматик бирликлар билан бир қаторда таҳлил этиш, унинг ифода имкониятларини халқ миллий дунёқараши билан боғлиқ ҳолда аниқлаш заруратини келтириб чиқаради. Шу билан бирга, фразеологизмларнинг семантик-структур ҳамда когнитив-прагматик хусусиятларини атрофлича ўрганиш, уларнинг маъно тузилиши, семантик ва синтагматик хусусиятлари борасида янги илмий ҳулосалар чиқариш имконини беради.

Жаҳон тилшунослигида ўтган асрнинг 60-йилларидан бошлаб қатор назарий-олимпларнинг лингвистик бирликларни моделлаштириш муаммосига алоқадор асарлари майдонга келиши натижасида тил бирликларининг конструктив қурилма эканлиги ёритиб берилди ва ана шу конструктлик белгиси асосида уларни моделлаштириш имконияти вужудга келди. Натижада И.И.Ревзиннинг тил структурасини моделлашувчи система сифатида эътироф этишга бағишланган илк монографик асари майдонга келди[2].

Фразеология тилшуносликнинг алоҳида бўлими сифатида ўтган асрнинг 40-йилларида майдонга келди. Фразеология назариясининг ривожига Ш.Балли, Е.Д.Поливанов, Л.А.Булаховский, В.В.Виноградов-ларнинг, туркийшуносликда С.К.Кенесбаев, С.Н.Муратов каби тилшуносларнинг алоҳида хизматлари бор. Ўзбек фразеологиясининг назарий масалалари бўйича дастлаб Е.Д.Поливанов, [3] кейинчалик Ш.Раҳматуллаев, Я.Пинхасов, Б.Йўлдошев, Абдимурод Маматов, Абдуғафур Маматов, А.Исаев, А.Рафиев, М.Содиқова, Қ.Ҳакимов, Ш.Усмонова, К.Бозорбоев, Б.Жўраева, Ш.Абдуллаев, Ш.Алмаматова, М.Вафоева ва бошқа қатор тилшуносларнинг асарлари майдонга келди[4].

Ўтган асрнинг 80–90-йилларида Ш.Раҳматуллаев томонидан ўзбек тилидаги баъзи фразеологизмларнинг шаклий тузилишини ифода қилувчи моделлар кўрсатиб берилди. Бироқ шу кунга қадар ўзбек тилшунослигида фразеологик бирликларнинг структур таҳлили ҳамда моделлаштириш муаммоси монографик планда махсус тадқиқ этилмаган.

Фразеология тилшуносликнинг жадал ривожланаётган соҳалари қаторига кирди. Ҳозирга қадар фразеологизмларнинг ҳосил бўлиш усуллари, фразеологик маъно табиати, фраземаларнинг ўзаро синонимик, антонимик, вариантдошлик, омонимик хусусиятлари, фразеологизмларнинг морфологик структураси, уларнинг гап таркибидаги синтактик вазифаси, фразеологизмларни қиёсий, структурал-типологик таҳлил қилиш, байналмилал фразеология масалалари, бадий ва публицистик услуб фразеологияси, фраземаларни коммуникатив-прагматик аспектда тадқиқ этиш, фразеология ва фразеографиянинг шаклланиш тарихини ўрганиш бўйича қатор ишлар амалга оширилди.

Мустақиллик йилларида фраземаларнинг компонент таҳлили, бирикувчанлик хусусиятлари ҳамда бошқа тиллар фраземалари билан қиёсий ўрганишга эътибор кучайди. Хусусан, Қ.Ҳакимовнинг фразеологизмларнинг зарурий бирикувчанлигига бағишланган, [5] Ш.Раҳматуллаевнинг феъл фраземаларнинг боғлашувига[6] алоқадор монографик изланишларида феъл шаклли фразеологик бирликларнинг валентлигига эътибор қаратилди. Шунингдек, Ш.Усмонова, М.Холикова, Ш.Абдуллаевларнинг тадқиқотларида ўзбек тилидаги фразеологизмларнинг бошқа тиллардаги фразеологизмлардан фарқлари алоҳида ўрганилди[5]. Абдимурод Маматовнинг тадқиқотларида нутқ маданияти ва фразеологик норма муаммолари кенг таҳлил қилинди[8]. Абдуғафур Маматов эса ўз асарларида фразеологизмларнинг шаклланиши билан боғлиқ бўлган назарий асосларни белгилаб беради[7]. Б.Йўлдошевнинг қатор асарлари ҳамда докторлик диссертацияси фраземаларнинг функционал-услубий хусусиятлари, айни вақтда, ўзбек фразеографияси тараккиётида катта бурилиш бўлмоқда.[10] К.Бозорбоевнинг сўзлашув нутқи фразеологизмларига, [8] Ш.Алмаматованинг фраземаларнинг компонент таҳлиliga, М.Вафоеванинг фразеологик синонимларга бағишланган тадқиқотлари фразеологиянинг ривожига маълум даражада ҳисса бўлиб кўшилди [9].

Тадқиқот методологияси. Эркин ва турғун бирикмаларнинг дифференциал хусусияти «тайёрлик» ёки «барқарорлик» белгисидир. Бу белгига кўра оппозицияга киришувчи сўз бирикмасининг турғун бирикма аъзоси кучли, маркерланган, эркин аъзоси эса кучсиз, маркерланмаган аъзо ҳисобланади. Турғун бирикмалар «тайёрлик», «барқарорлик» белгиларига кўра умумийликни ҳосил қилса ҳам, ўз ичида маълум дифференциал белгиларига кўра фарқланади ва шу асосда кичик гуруҳларга бўлинади. Турғун бирикмалар шу кунга қадар турли муаллифлар томонидан турлича номланиб келмоқда[11].

Таҳлил ва натижалар. Маълумки, тилнинг турли сатҳ бирликлари тил-нутқ дихотомияси асосида инвариант-вариант зидланишини ҳосил қилади. Тилнинг ҳар қайси сатҳида инвариантлар моделлар орқали белгиланади. Инвариант-вариант оппозицияси тилнинг барча сатҳларига дахлдор экан, лингвистик модель ва моделлаштириш ҳам барча сатҳларга хос универсал ҳодисадир.

Муайян сатҳ бирликларини моделлаштиришда бир умумий тамойил, яъни сезги аъзоларимиз орқали реал моддий бирликларнинг релевант ва иррелевант белгиларини ажратиш ҳамда иррелевант белгиларни четлаштириш тамойилига амал қилинади. Ўрганилаётган объектнинг шу объект учун иккинчи даражали, номуҳим белгиларидан четлаштириш орқали муҳим белгиларини ажратиш ва ана шу муҳим белгилар асосида объект моҳиятини аниқлаш моделлаштиришнинг бош тамойили ҳисобланади. Бунда объектнинг номуҳим белгилари шундай четлаштириладики, бундай четлаштириш объектнинг умумий моҳиятига таъсир этмайди.

Ўзбек тилшунослигида ўтган асрнинг 70-80-йилларидан бошлаб лингвистик модель ва моделлаштириш усуллари кенг фойдаланила бошланди. Фразеологизмларни моделлаштириш масаласига эса ўзбек тилшунослиги тарихида илк бора Ш.Раҳматуллаев томонидан эътибор қаратилди. Олим модель атамаси ўрнига формулаи атамасини қўлайди[8]. Муаллиф фраземанинг ифода жиҳатини моделлаштиришда асосан унинг таркибидаги барқарор бирликларга таянади ва уларнинг нутқий жараёнда воқеланишига эътиборини қаратади. У тил бирлиги ва унинг нутқий воқеланишини фарқлар экан, уни кўзини оч бирикмаси мисолида тушунтириб беришга ҳаракат қилади. Олимнинг фикрича, тузилиш жиҳатидан бирикмага тенг ушбу фраземанинг иккинчи аъзоси оч лексемаси билан ифодаланган. Бу фраземага бўлишли-бўлишсизлик, майл, замон, шахс-сон кўрсаткичи бир бутун ҳолда нутқда кўшилади. Фраземадан ташқари, нутқда худди шундай бирикма ҳам тузиб ишлатилади. Нутқнинг ўзида тузиладиган бундай бирикма эркин бирикма дейилади ва бундай бирикмага зид ҳолда фразема турғун бирикма дейилади[9].

Фразеологизмларни моделлаштиришда барча аллофраземалар, яъни вариантларда такрорланадиган, уларнинг ҳаммаси учун умумий бўлган барқарор компонентлар асос сифатида хизмат қилади. Вариантларнинг айримларидагина қўлланиладиган фразеологизм элементлари нутқий элементлар сифатида фразеологизм моделидан четда қолади.

Фразеологизация динамик жараён бўлиб, яхлитланиш даражаси градуал ўсиб боради. Фразеологизация динамик жараён экан, бу жараёнда мазмуний марказ ва фразеологик марказ тушунчалари муҳим аҳамиятга эга. Бу тушунчалар фразеологизмларни моделлаштиришда ҳам таянч нукталар бўлиб хизмат қилади. Фразеологизм таркибида фразеологик маъно ҳосил қилиш функциясини бажарадиган компонент шу фразеологизмнинг мазмуний маркази саналади. Мазмуний марказ ролини, асосан, мустақил сўзлар бажаради. Мазмуний марказ барча фразеологизмлар учун хос бўлиб, у эркин қўлланган сўз билан мувофиқ келиши орқали белгиланади. Фразеологизмларни мазмуний моделлаштиришда ана шундай мазмуний марказга таяниш катта аҳамиятга эга.

Фразеологизмларни моделлаштиришда уларни парадигмалар асосида ўрганиш ҳам муҳим. Ўзбек тилшунослигида Ш.Раҳматуллаев, шунингдек, Ш.Алмаматовлар ишларида фразеологизмларнинг узвий таҳлиliga эътибор қаратилади, [10] бу изланишларда ўзбек тили фраземалари компонентларининг маълум жиҳатлари камраб олинган.

Мақолада «персоналлик» муштарак семали фразеологизмлар ва уларни моделлаштириш тўғрисида ҳам тўхталиб ўтамиз. «Персоналлик» муштарак семасига эга бўлган фразеологик бирликлар гуруҳи таркибида ижтимоий-иқтисодий ҳолат билдирувчи фраземалар микрогуруҳи алоҳида ажратилади. Буларга бошидан ошиб ётмоқ, тиши ўтмайдиган, бошига етса оёғига етмайди, қўли юпқа, ўзига тўқ, бўйни йўғон, бошига кўтармоқ, бурнини ерга ишқамоқ, бўйнидан соқит қилмоқ, бўйнига олмоқ, бўйнига қўймоқ сингари фразеологизмлар киради.

- **Хулоса ва таклифлар.** 1. Ҳар қандай илмий тадқиқот бевосита сезги аъзоларимиз орқали идрок қилинган объектни бошқа шунга ўхшаш объектга киёслаб, улар ўртасидаги умумий ва ўзига хос белгиларни аниқлаб, шу объект учун муҳим белгилар асосида уни абстрактлаштириш даражасига олиб чиққандагина, объектив ҳақиқатга эришади. Абстрактлаштириш эса объектни моделлаштиришга олиб келади.

2. Турғун бирикмалар ўзининг «тайёрлик», «барқарорлик» белгиларига кўра эркин бирикмалардан фарқланади ва ўз ичида маълум фарқловчи белгиларига кўра ажратилади. «Турғунлик», «барқарорлик» белгилари турғун бирикмаларнинг бирлаштирувчи, интеграл белгиси саналади. Барқарор бириклар системасида фразеологизмлар алоҳида ўрин тутди. Улар «барқарорлик», «тайёрлик», «семантик транспозитивлик», «информатив тугаллик» белгилари орқали парема билан приватив оппозицияга киришиб, парема – гипероним, фразеологизм эса гипоним мақомига эга бўлади.

3. Фразеологизм билан лексема ўртасида изоморфлик мавжуд. Фразеологик бирликлар лексик бирликлар каби шакл ва мазмун муносабатидан ташкил топади ва ҳар икки томон ўз ички тузилишига эга бўлади. Уларнинг мазмуний тузилиши денотатив, коннотатив, прагматик семалар, шунингдек, туркумлик семасини ҳам ўз ичига олиши билан характерланади. Лексемадан фарқли ҳолда, фразеологик бирликнинг мазмуний тузилишида ички шакл фразеологик маънонинг фарқловчи ёки умумий компоненти сифатида таркибий қисм эмас, умуман бошқа мустақил бўлган этимологик маънони ташкил қилади.

4. Моделлаштириш тилнинг барча сатҳ бирикларига хос универсал ҳодиса сифатида амал қилади. Хусусан, тилнинг қуйи сатҳига тегишли фонологик бириклардан то юқори сатҳ бирикларига қадар барча сатҳ бириклари лингвистик тадқиқот объекти сифатида тил-нутқ дихотомияси асосида инвариант-вариант зидланишини ҳосил қилади. Ҳар қандай модель, шу жумладан фразеологик модель ҳам моделлаштирилаётган объектнинг энг муҳим белгилари

муносабатидан ташкил топган конструкт эканлигига таянган ҳолда ҳосил қилинади.

5. Бир-бири билан парадигматик муносабатда бўлган бириклар ўзига хос ва умумий белгилар воситасида моделлаштирилади, интеграл белгилар объектни синтезлаш, система ҳосил қилиш учун хизмат қилса, дифференциал белгилар система аъзоларини бир-бирдан фарқлаш вазифасини бажаради. Ҳар қайси сатҳ бирилиги ўзидан бир поғона юқори сатҳ бирилиги учун материал сифатида хизмат қилади.

6. Структурал нуқтаи назардан лексемалардан фарқли ҳолда, фразеологизмлар таҳлилида уларнинг таянч компонентларига ҳам эътибор қаратилади. Ўзбек тилидаги инсон аъзолари билан боғлиқ бўлган фразеологизмлар соматик фразеологизмлар парадигмасини ҳосил қилади. Бундай фразеологизмларни моделлаштиришда соматизмлар таянч нуқта бўлиб хизмат қилади.

7. Лексик-фразеологик контекст сўз билан фразеологизм орасидаги синтагматик муносабат асосида ҳосил бўлади. Фразеологик бириклар компонентлари деактуализациялашганлиги туфайли улар мустақил қўлланиш хусусиятини йўқотиши натижасида контекст қисми саналмайди.

8. Фразеологизмларнинг синтагматик муносабатида фразеологик қуршов тушунчаси муҳим ўрин эгаллайди. Фразеологизм билан структур ва семантик боғлиқ бўлган сўз фразеологик қуршовни ҳосил қилади. Фразеологик қуршов ҳисобига фразеологик маъно билан лексик маъно ҳамкорлиги майдонга келади ва бу ҳамкорлик уларни моделлаштиришда муҳим роль ўйнайди.

9. Валентлик икки томонлама моҳиятга эга бўлган лингвистик бириклар орасидаги синтагматик муносабатни, тил бирикларининг ўзаро бирикувини таъминлашга хизмат қилади. Фразеологик бириклар нутқ жараёнида валент хусусиятлари асосида бошқа бириклар билан синтагматик муносабатга киришади. Фразеологизмларнинг валентлик имкониятлари ҳам моделлаштиришга асос бўлади.

10. Ҳаракат, ҳолат, белги мазмунини англатувчи фраземалар объект, субъект, темпорал, локал, сабаб, мақсад ва микдор сингари валентликларга эга бўлиб, улар мажбурий (облигатор) ва факультатив турларга бўлинади. Фразеологик бирикларнинг облигатор валентлиги нутқ жараёнида тўлдирилиши зарур бўлган, факультатив валентлик эса нутқ вазиятига кўра аниқланадиган валентликлар саналади. Фразеологизмларни синтагматик моделлаштириш уларнинг облигатор валентликларига асосланади.

АДАБИЁТЛАР

1. Саямов Г.Т. Лексико-фразеологические вопросы художественного перевода (принципы перевода пословиц, поговорок и идиом с русского на узбекский язык): Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Ташкент, 1964. – 21 с.;
2. Исаев А. Соматические фразеологизмы узбекского языка: Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Ташкент, 1976. – 21 с.
3. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик лугати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978;
4. Йўлдошев Б. Ҳозирги ўзбек адабий тилида фразеологик бирикларнинг функционал-услубий хусусиятлари: Филол. фанл. докт. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1993. – 49 б.;
5. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилида феъл фраземаларнинг боғлашуви. – Тошкент: Университет, 1992;
6. Усмонова Ш.Р. Ўзбек ва турк тилларида соматик фразеологизмлар: Филол. фанл. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1998. 256.;
7. Абдуллаев Ш.Д. Таржима асарларда фразеологизмлар семантикаси (Т.Қайипбергенов асарларининг ўзбекча таржимаси асосида): Филол. фанл. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2006. – 256.;
8. Маматов А.Э. Проблемы лексико-фразеологической нормы в современном узбекском литературном языке: Автореф. дисс. ... доктора филол. наук. – Ташкент, 1991. – 46 с.
9. Йўлдошев Б. Ўзбек фразеологияси ва фразеографиясининг шаклланиши ҳамда таракқиёти. – Самарқанд. 2007;
10. Жуков В.П. Семантика фразеологических оборотов. – М.: Просвещение, 1978. – С.115.
11. Ревзин И.И. Структура языка как моделирующей системы. – М.: Наука, 1978.



Matluba NORBABOYEVA,
Qarshi Davlat Universiteti Pedagogika instituti o'qituvchisi
E-mail: matluban@gmail.com

ChDPI professori, p.f.d S.Matchonov taqrizi asosida

G'ARB VA SHARQ ADABIYOTIDA "YETIM BOLA" LARGA MUNOSABAT

Аннотация

Ushbu ilmiy maqolada G'arb va Sharq adabiyotida "Yetim bola" obrazi talqiniga alohida ahamiyat qaratilgan. Jamiyatda "Yetim bola" larga bo'lgan munosabat va ijtimoiy qadriyatlaridagi farqlar tahlil qilingan. Jahon adabiyoti turkumidan Charlz Dikkensning "Oliver Tvistning boshidan kechirganlari" asari hamda o'zbek adabiyotidan G'afur G'ulomning "Shum bola" asarlaridagi "Yetim bola" lar obrazi qiyosiy tahlil qilindi, ulardagi o'ziga xos milliy o'ziga xoslik hamda tipologik xususiyatlar ochib berilgan. Ikki milliy adabiyotdagi o'zaro adabiy ta'sir qiyosiy o'rganilgan.

Kalit so'zlar: Badiiy adabiyot, badiiy obraz, "Yetim bola" obrazi, ijtimoiy muhit, ijtimoiy muammo, adabiy ta'sir, sentimentallik, individuallik.

ATTITUDE TO "ORPHAN CHILDREN" IN WESTERN AND EASTERN LITERATURE

Annotation

This scientific article focuses on the interpretation of the image of the "orphan child" in Western and Eastern literature. Differences in attitudes and social values towards "orphan children" in the society were analyzed. The work of Charles Dickens of the World Literature Series "Experienced the Oliver Twist", as well as the image of "orphan children" in the works of Gafur Gulom "Shum bola" from Uzbek literature were analyzed comparatively, the specificity and typological features of them were revealed. The comparative study of the interaction of literature in the two national literature archives-project topics

Keywords: Fiction, art image, "Orphan" image, social environment, social problem, literary influence, sentimentality, individuality.

ОТНОШЕНИЕ К "ДЕТЯМ-СИРОТАМ" В ЗАПАДНОЙ И ВОСТОЧНОЙ ЛИТЕРАТУРЕ

Аннотация

В данной научной статье особое внимание уделяется толкованию образа "сироты" в Западной и восточной литературе. Проанализировано отношение к "детям-сиротам" в обществе и различия в социальных ценностях. Сравнительный анализ образа "мальчика-сироты" в произведении "Приключения Оливера Твиста" Чарльза Диккенса из цикла мировая литература и "Озорник" Гафура Гулама из узбекской литературы, выявлены характерные национальные особенности и типологические особенности. Сравнительное изучение взаимного литературного влияния в двух национальных литературах.

Ключевые слова: Художественная литература, художественный образ, образ "Сироты", социальная среда, социальная проблема, литературное влияние, sentimentальность, индивидуальность.

Kirish. XIX asr Angliya adabiyotini Ch.Dikens asarlarisiz tasavvur etish qiyin. Dikens o'z asarlarida Angliya hayotining ijtimoiy muammolarini ko'tarib chiqdi. Adibning "Sovuq uy", "Martina Chelzvitanning hayoti va boshidan kechirganlari", "Dombi va o'g'li", "Nikolas Niklbining hayoti va sarguzashtlari", Devid Kopperfild hayoti, o'zi haqida aytganlari", "Edvin Drudning siri", "Oliver Tvistning boshidan kechirganlari" kabi asarlarida Angliyaning real hayotini ko'rsatish, ijtimoiy turmushini o'zgartirish kabi muammolar ko'rsatilganligi e'tiborimizni tortdi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. G'arb og'zaki ijodi janrlarida ham mavjud. S.Yu.Neklyudovning "Сирота в сказках. Фольклор и постфольклор" ("Ertaklarda yetimlar obrazi: Folklor va postfolklor") nomli maqolasida "Ayozbobo" ertagida "Yetim bola" obrazi tahlil qilingan [6], Olga Buxinaning "Сироты в детской литературе" ("Bolalar adabiyotida yetimlar") maqolasida Yakob va Vilgelm Grimmlarning "Золушка" ("Kuloyim"), Kiplingning ("Jungli kitobi") kabi ertaklardagi "Yetim bola" lar obrazini, tahlil qilingan [2]. V.I.Nikolayevna "Тема сиротства в детской литературе" ("Bolalar adabiyotida yetimlik mavzusi") nomli maqolasida P.P. Bajovanning "Серебряное копытце" ("Kumush toyochoq"), G.X.Andersenning "Дикие лебеди" ("Yovvoyi oqqushlar") [7] ertaklaridagi o'z holiga tashlab qo'yilgan yetimlar taqdirini o'rgangan. Dunyo xalqlarida

yetim bolalarga bo'lgan munosabatda tipologik xususiyatlar hamda o'ziga xos farqli jihatlar ham kuzatiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ikki milliy adabiyotda mavjud bo'lgan holatlar, tasvirlar, badiiy obrazlar o'zaro qiyosiy-tipologik, germevntik talqin, sentimental yondashuv asosida tahlil qilindi va o'rganildi. Dikens talqinida "Yetim bola" obraziga munosabat hamda G'.G'ulom ijodida "Yetim bola" larga bo'lgan jamiyatning munosabati o'zaro adabiy ta'sir doirasida talqin etildi.

Tahlil va natijalar. Dikkensning "Oliver Tvistning boshidan kechirganlari" asari ingliz adabiyotida ijtimoiy yetim bolalar bilan bog'liq muammolarini ochib tashladi. Adib o'z davrining eng dolzarb masalalaridan biri kambag'allar, yetimlarning ahvolini yurakdan his qilib Oliver Tvist obrazini yaratdi. Asar qahramoni boy oilaning zurriyodi bo'lib, yetimligi tufayli ko'p azob-uqubatlarga giriftor bo'ldi. Dikkensning asarlarida mana shunday holatlar ingliz jamiyatidagi kamchiliklar sifatida ochib berildi. Ijodkor asarda Oliver Tvistning xatti-harakatlari orqali inson va jamiyat, hayot va o'lim kabi masalalarni ham o'rta tashladi. Asarda Oliver Tvistni ovqatga qorni to'ymay, yana qo'shimcha ovqat so'ragan holati tasvirlanadi, buni ko'rgan nazoratchi bolani qo'lidan mahkam changallab, bidni chaqiradi. Dikens asarlari tahlili bilan shug'ullangan Tugusheva vaziyatni bunday izohlaydi: "Bu oddiy so'zni aytish undan ulkan jasurlik talab qilardi. Asosiysi, nimjongina bolakay amaldagi

“qonun”ni buzishga jur’at qildi va jimgina ochlikdan o’lishga rozi bo’ldi” [3].

Twist o’zidagi qo’rquvni yengib, ulkan jasorat bilan bunga jur’at etdi va buning evaziga o’ziga haqorat va xo’rlilik oldi. Twistning xatti-harakatlari jamiyatdagi mavjud qonunlarga qarshi chiqish bo’lib tuyuldi, moddiy va ma’naviy jazolandi. Dikkins Twistning xatti-harakatlari orqali yetim bolalarning bu dunyoda ham qorin, ham ko’ngil to’ydirib yashashi naqadar qiyin ekanligini tasvirlaydi. “...Tripiga olib qo’rgan yaxna go’shtning qolgan-qutganini manavi bolaga bering... “Go’sht” deganini eshitganida Oliverning ko’zlari chaqnab, uni tezroq yeyish ishtiyoqida vujudi titrab ketdi-yu, “ha”, deya javob qildi, shundan so’ng uning oldida qolgan-qutgan ovqat solingan taqsimchani qo’yishdi” [3].

Charlz Dikkins davrida Angliyaning mehnat uylarida yetimlarning og’ir mehnat qilishga majbur etilishi, biror marta to’yib ovqat yemaganligi, ochlik azobi ularni qanday ahvolga solib qo’rganligini Oliver Twist kabi “Yetim bola” larning holatidan anglash qiyin emas. It yeyishdan hazar qilgan “laziz taom”ga Oliver Twistning tashlanganligi, uning qanchalik ochlikdan qiynalayonligini izohlaydi. “Do’konning o’rtasidagi qora chorpoqa ustida turgan chala tobut ko’ziga shunchalar mudhish hamda vahimali ko’rindiki, bu sovuq narsaga tikilarkan, Oliverning yuragi muz tortib, eti jimirlab ketdi; nazarida qandaydir dahshatli jasad hozir asta boshini ko’tardi-yu, o’zi bo’lsa qo’rquvdan aqlidan ozib qoladiganday tuyuldi” [3].

Yosh Oliver Twist o’likni ko’rib qattiq qo’rquvga tushdi. Tobutsoznikidan yangi hayot izlab keldi, afsuski, unga tobutlar eski qayg’ularini ota-onasining o’limini eslatdi. Unga ham o’lim sharpasi ko’ringanday bo’ldi. Unda keyinchalik bu hayotga ko’nikish hissi paydo bo’ldi. Oliver mister Saurberi bilan birga o’liklarni ko’rib tobut yasashga o’rganib qoldi. Inson yolg’iz qolgan kezlarda o’zi haqida, boshidan kechirganlari haqida o’ylashi katta yoshdagi odamlarga xos holat. Oliverda ham bu holat – kattalardek siqilish holati kuzatiladi. “... tosh qotib uyquga ketgan o’zini esa o’t-o’lanlar mayin shitirlaydigan, ko’hna qo’ng’iroqning jarangi allalaydigan qabristonga eltib ko’mishlarini istab qoldi” [3].

Oliver Twist yosh bola bo’lsa-da, ko’p eshikni ko’rgan, qiynalgan yetim bola. U o’n yoshda ko’lishiga qaramay, o’limni his qildi. Bola shu yoshga qadar atrofdagilardan mehr ko’rmadi, xo’rlandi. Mehnat uyida uning dardini eshitadigan hamdardi yo’q. Buning ustiga u juda yosh bo’lishiga qaramay, tobutlarni ko’rishga majbur bo’ldi. Hali o’lim nimaligini bilmaydigan yoshda bola tobutlar turgan xonada yotib shu manzaraga moslashishga majbur bo’ldi. “Inson tabiatining qiziqilgini ko’ringki, bir vaqtning o’zida bir odam ham hukm etuvchi, ham mahkum, ham ijrochi, ham xaloskor” [4].

Jajji Oliver ruhida konfliktlar mavjud. Birinchi holatda unda o’limni eslatuvchi narsalardan seskanish, qo’rqish, yashashga muhabbat kuchli bo’lsa, ikkinchi holatda esa o’limni qumsash, u dunyodan farog’at izlash, bu dunyo mashaqqatlaridan qochishni istash mayli kuchli. O’lim sharpasi nafaqat Oliverni asarda u bilan birga mehnat uyida ishlayotgan kichik Dikni ham chetlab o’tmadi. Dikda bu holat boshqacha kechadi. Sababi u o’zining yaqinda o’lishini biladi. “...– Sen sog’ayib ketasan, baxtli bo’lasan hali! – Qaniydi, ... O’lganimdan keyin shunday bo’ladi. Bilaman, Oliver, doktor to’g’ri aytgan, nimaga desang, tez-tez osmon farishtalari, keyin sira-sira ko’rinmaydigan mehribon yuzlar tushimga kiradi” [3].

Dik hayotni, yashashni qanchalik sevmasin, o’lishni ham xohlaydi. Uning nazarida faqat o’lim bu qiyinchiliklarga yagona yechim. O’lgan yaqinlari – ota-onasi va hech qachon yuzini ko’rmagan singilchasini u dunyodan topishini eslab, hayotni tark etishni istaydi. Bola ruhiyatidagi konfliktlarni Dikkins shu xilda ochib beradi. Inson hech qachon mutlaq hissiyotning, kayfiyatning ta’sirida bo’lmaydi. Inson ruhiyati bir vaqtning o’zida ziddiyatni ifodalaydi. Dik Oliverdan ham

kichik. Shunday kichkina bola bir burda non yeyish uchun jamiyatda xo’rlandi, qiynaldi, og’ir yumushlarni bajarishga majburlandi. Ch.Dikkins asar orqali bolalar mehnat uylarida bolalarning og’ir ishlarga jalb etilishi, ularning ruhan, ma’nan, jismonan qiynalishini tanqid qilgan. Dik va Oliverga o’xshagan yetim bolalar jamiyatda ko’p edi.

Ch.Dikkins Oliver Twist obrazini mehnatkash kambag’allar va yetim bolalarning bir vakili sifatida ifodalaydi. Dikkins talqinidagi yetim bola, Oliver og’ir, vazmin kattalardek zehnlilik, o’ylovchan. Yozuvchi ijtimoiy hayot qiyinchiliklarini ham “Yetim bola” obrazi orqali tasvirlaydi. Asarni o’qigan kitobxonda jajji Oliverga nisbatan achinish kuzatiladi. Oliver Twist va Dik o’zining o’limini istab qolishi va ayni paytda hayotni ham sevrishini anglab yetishi kabi konfliktlar Ch.Dikkins talqinidagi “Yetim bola” obrazining ideallikka intilishiga xos xususiyatlardandir.

“Shum bola” va “Oliver Twistning boshidan kechirganlari” asarlarida ikki milliy adabiyot namunasi sifatida adabiy aloqa va universal jihatlarini birlashtiruvchi qirra millatlarning adabiy kechimidagi tipologik umumiyliklardir. Qiyoslanayotgan bu asarlarda ikki millatning ijtimoiy-siyosiy va badiiy-estetik taraqqiyoti tarixidagi mushtarak jihatlar kuzatiladi. Oliver va Shum bola obrazlarida umumiy jihatlar kam kuzatiladi. Ularda sarguzasht bor, bu obrazlarning har xil xarakterga ega bo’lishini muhitlardagi, millatlardagi o’zaro farqda kuzatish mumkin. Ikkala obrazda ham o’liklar bilan bog’liq vaziyatlar keltirilganki, yosh bolalarning o’limni ko’rishi va his qilishi biroz qiyin vaziyatni yuzaga keltiradi. Oliverda bu jarayon sentimentallik ruhida kechsa, Shum bolada “komiklik asosida yengib o’tish” orqali amalga oshiriladi. Shum bola o’likka qiziqqanidan ko’rmog’chi bo’lsa, Oliver shundan boshqa boshpana yo’qligidan, ya’ni majburligidan bu ishga qo’l uradi, boshida qo’rqinchilik tuyulgan bu ishga bora-bora ko’nikib qolishga majbur bo’ladi. Shum bolaga xos holatlarni talqin etar ekanmiz adabiyotshunos U.Normatovning bir fikrlarini keltirib o’tish joiz: “Asl ismi pinhon tutilgan qissadagi bosh personaj – Shum bola hech qanaqa qoliqlarga tushmaydigan adabiy qahramon” [5].

Demak, Shum bolaning o’ziga xos jihatlarini qanchalik talqin qilmaylik, ularni bir tizimga sig’dirib bo’lmaydi. Ya’ni Shum bolada bir vaqtning o’zida o’zaro konfliktlar namoyon bo’ladiki, ularni qay tomondan tahlil qilaversak, yangi qirralarini kashf etib boraveramiz. Shuning uchun ham Shum bola obrazi xususida bir to’xtamga kelib bo’lmaydi. Shum bola bir tekis yashay olmaydi, unga bunday yashash qiyin, uning sarguzashtlarida ko’chib yurish, bir joyda muqim qololmaslik, albatta, nimanidir uhdasidan chiqolmay davralardan quvilish kabi holatlar kuzatiladi. “Uning bu xildagi qo’nimsiz, darbadar, betayin hayoti, g’aroyib sarguzashtlarida ham hayotga, zamonasiga, odamlarni, millat zurriyodini o’z holiga tashlab qo’rgan kelajagi notayin, maqsadsiz tuzum-u tizimga qarshi o’tkir kinoyalar bor” [5].

Bugungi kunning qahramoni faqat salbiy yoki ijobiy bo’yoqlarga ega emas. Bugunning qahramoni har ikki xarakterga tushadigan xususiyatlarga ega qahramon. Shum bola ham shunday qahramon. U ayni paytda ziyrak, saxiy, yolg’onchi, qiziquvchan, maqtanchoq, so’zamol “Yetim bola” obrazi. Shum bolada o’z tabiatiga mos ko’chib yuruvchi xarakter mujassam. U o’g’rilar davrasida o’g’ri, bozorda savdogar-xaridor, eshon dargohida mullavachcha, boynikida xizmatkor bo’la oldi. Oliver Twistda og’ir bo’yoq-nuvchan xarakter mavjud. U o’zi xohlamagan ishni ham qilishga majbur bo’ladi, ko’nikadi. Shum bola esa davralarga qo’shilib rol o’ynab kirishib ketaveradi. U o’z ixtiyori bilan bunday davralarni tark etmaydi, balki dargohlardan quviladi, Oliver esa o’g’rilar to’dasidan qachonlardir qochib ketishni umid qilib yuradi. Shum bola obrazida shumlik, qitmirlik, beg’araz kinoya mavjud. Undagi bu jihatlarini o’lik yuvayotganda, qopdagi go’sht o’rniga o’zi tushib olganda, eshonning

dargohidagi qiliqlarida kuzatish mumkin. Shum boladagi bu holatlarni “komik katarsis” (ta’kid Suvon Meliniki) (“kulgiga yo’g’rilgan qayg’u”) deb izohlasak, Oliverning xarakterini sentimentallik deya izohlash mumkin. Shum bola xarakterida ruhiy holat ta’siri tez o’tib ketsa, Oliverda esa uzoq ta’sirlanish, ko’p siqilish, shu tushkunlik holatidan chiqishga qiynalish kabi ruhiy holatlar kuzatiladi. Uning xatti-harakatlari kishida achinish, rahm-shafqat hissini uyg’otadi.

Xulosa va takliflar. G’afur G’ulom Shum bola obrazida o’zbekona haq-huquqini uncha-muncha biladigan,

shaddod “Yetim bola” obrazini tasvirlasa, Dikpens Oliver Tvist obrazida ingliz jamiyati qonunlarini ko’rsatadiki, bu qonunlar kambag’allar, yetimlarni himoya qilmas, ularning manfaatlarini ifoda etmas edi. G’afur G’ulomning “Shum bola” qissasida individul ta’sir, Charlz Dikpensning “Oliver Tvistning boshidan kechirganlari” romanida esa ijtimoiy muhit ta’siri seziladi. Ikkala adabiyotda ham milliy o’ziga xoslik, ijtimoiy hayotning badiiy adabiyotga ta’siri kuzatiladi.

ADABIYOTLAR

1. Baxtin M. Romanda zamon va xronotop shakllari. – T.: 2015. – B.288.
2. Buxina O. Сироты в детской литературе. <https://cyberleninka.ru>
3. Dikpens. Ch.Oliver Tvistning boshidan kechirganlari. –T.: 1984, – B.27.
4. Jo’raqulov U. “Hududsiz jilva”. –T.: Fan, 2006. – B.189.
5. Normatov U. Ijod sehri. – T.: Sharq, 2007. – B.150, 151.
6. Neklyudov S.Yu. Сирота в сказках. Фольклор и постфольклор. <https://www.ruthenia.ru>
7. Nikolayevna V.I. Тема сиротства в детской литературе. <https://infourok.ru>
8. Meli S. Komik katarsis. O’zbek tili va adabiyoti. 2003. №2. – B.11-13.
9. Тугушева М.П. Чарлз Диккенс: Очерк, жизнь и творчества. М.: Детская литература. 1979. – С.29. .
10. G’ulom. G’. Shum bola. – T.: Sharq, 2004. – B.151.
11. Hamdamov U. Qosimov A. Jahon adabiyoti. – T.: 2015.



УДК: 811.113:512.133 (575.1)

Гулфия РАХИМОВА,
Национальный университет Узбекистана
Преподаватель кафедры французской филологии
E-mail: goulfiyarakhimov@mail.ru

На основании рецензии д.ф.ф., профессор УзГУМЯ Ж.А. Якубова

СИМВОЛИКА ЦВЕТООБОЗНАЧЕНИЙ ВО ФРАНЦУЗСКОМ, РУССКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация

В статье рассматриваются закономерности символизации цвета во французском, русском и узбекском языках, черты их сходства и различия в связи с выражением положительных и отрицательных эмоций. Статья посвящена теме эмоций и их выражению во французском и русском языках. Автор останавливается на тесной связи чувств с духовными и культурными потребностями общества. Выделены отличительные черты эмоций как интенсивность, ограниченная продолжительность, полярность и другие. Приведены различные подходы к классификации эмоций, а также приведены лексемы, связанные с вербализацией эмоций и чувств. Одним из аспектов исследования колористической лексики является изучение эмотивного восприятия различных цветов носителями разных языков, а также гендерные аспекты данной проблематики.

Ключевые слова: Символизация, цвет, цветовая триада, эмоция, чувства, колористическая картина мира, отличительные черты, классификация.

SYMBOLS OF COLOR TERMS IN THE FRENCH, RUSSIAN AND UZBEK LANGUAGES

Annotation

The article discusses the patterns of color symbolization in French, Russian and Uzbek, their similarities and differences in connection with the expression of positive and negative emotions. The article is devoted to the topic of emotions and their expression in French and Russian. The author dwells on the close connection of feelings with the spiritual and cultural needs of society. The distinctive features of emotions are highlighted as intensity, limited duration, polarity and others. The article presents various approaches to the classification of emotions, as well as lexemes associated with the verbalization of emotions and feelings. One of the aspects of the study of color vocabulary is the investigation of the emotion perception of different colors by speakers of other languages including the gender aspects of this issue.

Key words: Symbolization, color, color triad, emotion, feelings, coloristic picture of the world, distinctive features, classification.

ФРАНСУЗ, РУС ВА ЎЗБЕК ТИЛИДАГИ РАНГ СИМВОЛИКАСИ

Аннотация

Мақолада франсуз, рус ва ўзбек тилларида ранг тисоли қолиплари, уларнинг ижобий ва салбий ҳис-туйғуларни ифодалаш билан боғлиқ ўхшашликлари ва фарқлари муҳокама қилинади. Мақола ҳиссиётлар ва уларнинг франсуз ва рус тилларида ифодаланиши мавзусига бағишланган. Муаллиф туйғуларнинг жамиятнинг маънавий-маданий еҳтиёжлари билан чамбарчас боғлиқлигига тўхталиб ўтади. Туйғуларнинг интенсивлиги, чекланган давомийлиги, қутбилиги ва бошқалар каби ўзига хос хусусиятлари таъкидланган. Туйғуларни таснифлашда турли хил ёндашувлар, шунингдек, ҳис-туйғу ва ҳис-туйғуларнинг сўзлашуви билан боғлиқ лексемалар келтирилган. Рангли лўғатни ўрганишнинг йўналишларидан бири бу турли хил тилларда сўзлашувчилар томонидан турли хил рангларни ҳиссий идрок этиш, шунингдек, ушбу масаланинг гендер жиҳатларини ўрганишдир.

Калит сўзлар: Символизация, ранг, ранг триадаси, ҳиссиёт, ҳис-туйғулар, дунёнинг ранг-баранг тасвири, ўзига хос хусусиятлар, тасниф.

Введение. Одним из аспектов исследования колористической лексики является изучение эмотивного восприятия различных цветов носителями разных языков [2]. Важным свойством восприятия цвета является его символизация, которая обычно складывается исторически. На физические параметры цвета у человека определенного социума накладывается сетка культурного восприятия, что еще раз подтверждает огромную роль «цветовой картины мира». Сами по себе цвета спектра как физическое явление не содержат оценочного момента, но их сочетания могут быть благоприятными или неприятными для глаз, подобно сочетаниям звуков, причем история живописи разных этносов и культур демонстрирует и разное отношение к сочетаемости цветов, и разные достижения в этой области.

Существенные различия систем цветообозначений объясняются не физиологическими особенностями зрения разных рас и этносов, а историей этносов, общностью или

несовпадением культурно-исторического развития, возможно, условиями жизни этносов, с чем связаны освещенность и различная «цветность» мира, а также – что очень существенно – со спецификой системы номинации, структурой словаря и его соотношения с другими типами номинации. Это позволяет сформулировать положение о зависимости системы цветообозначений не только от вхождения языка в определенную языковую семью, но и от типа языка.

Анализ научной литературы по теме. Так, О. Леманн отмечал, что желтый цвет вызывает веселое настроение (а Н. Н. Ланге добавляет сюда красный с оранжевым), голубой цвет приятен, но холоден, зеленый цвет успокаивает, а фиолетовый вызывает меланхолию, цвета чистые и яркие нравятся, а цвета бледные и «грязные» вызывают неудовольствие.

Однако на физические параметры цвета у человека определенного социума накладывается сетка культурного

восприятия, что подтверждает огромную роль языковой картины мира (ЯКМ) в цветовом восприятии мира. Следует особо подчеркнуть, что эмоциональное воздействие цвета может осуществляться через категорию эстетического, что тесно связано с символикой цвета. В данном аспекте существенной представляется нам полемика между А. Вежицкой и В.И. Шаховским по проблеме универсальности этнического своеобразия духовности человека: «А. Вежицкая в ряде своих работ выдвигает и обосновывает гипотезу о существовании универсальных культурных концептов человечества, которые она определяет, как алфавит ментальных атомов (семантических примитивов). Благодаря этому специфическому алфавиту обеспечивается межязыковая коммуникация в различных формах. С этим утверждением спорить нельзя. Что же касается ее мнения о тождественности способов мышления и восприятия у разных этносов, равно как и ее утверждения о духовном единстве человечества, то с этим трудно согласиться».

Если осмыслить особенности эмоционального восприятия мира представителями разных национальных культур (фактов и событий), можно заметить не только параллели, но и довольно резкие контрасты, не позволяющие признать тезис о духовном единстве всего человечества или отдельно взятой страны» [9]. И сопоставительное изучение цветообозначений, и сравнение вербального представления эмоций во французском, русском и узбекском языках позволяют нам присоединиться к точке зрения В.И. Шаховского.

Методология исследования. Исследования на стыке колористической и эмоциональной лексики имеет в лингвистике уже определенную сложившуюся традицию, они связаны с ассоциативными экспериментами между цветом и эмоциями. Интерес к ассоциациям зародился ещё в древности, но в настоящее время ассоциативные эксперименты стали особенно актуальны в русле психолингвистических исследований.

Важным свойством восприятия цвета является его символизация, которая обычно складывается исторически. На физические параметры цвета у человека определенного социума накладывается сетка культурного восприятия, что еще раз подтверждает огромную роль «цветовой картины мира». Сами по себе цвета спектра как физическое явление не содержат оценочного момента, но их сочетания могут быть благоприятными или неприятными для глаз, подобно сочетаниям звуков, причем история живописи разных этносов и культур демонстрирует и разное отношение к сочетаемости цветов, и разные достижения в этой области.

Мы исходим из гипотезы о преимущественно символической, а не физиологической связи определенного цвета и эмоций, причем эта символика в разных языках может совпадать или различаться (при этом возможность чисто физиологического воздействия цвета на определенного человека в определенное время не отрицается, так как обычно, наряду с национальными колористическими триадами, у каждого индивида существует свой набор любимых и нелюбимых цветов).

Так, французские фразеологизмы с компонентом *blanc* – белый и *noir* – черный выражают как отрицательные, так и положительные эмоции. Так, например, белый во французском языке может служить усиленно негативной коннотации имен эмоций: *colère blanche* – ярость, *jalousie blanche* – слепая ревность, *peur blanche* – смертельный страх, ужас.

В следующих примерах белый цвет сам служит передачи эмоций страха, гнева, бешенства: *voix blanche* – глухой, беззвучный голос от страха, гнева, *mal blanc* – флегмона, страшилище, мордоворот, *chauffer à blanc* – доводить до белого каления.

Исследуя фразеологизмы с компонентом *noir*, мы выявили во французском языке тенденцию передачи черным цветом негативных эмоций и явлений: *bête noir* – самое ненавистное, предмет особой ненависти и отвращения, злой гений, *humeurs noires* – приступы черной меланхолии, *humeur noir* – черный юмор, *mélancolie* – черная меланхолия, *papillons noirs* – черные мысли, *peur noire* – панический страх, *point noir* – опасное место на дороге, трудность, *le noir ravage* – берег Стикса, царство смерти, *le noir séjour* – ад, *le trou noir* – безнадежность, безысходность.

Белый цвет передает такие положительные эмоции как воодушевление, волнение, радость, однако подобных фразеологизмов не очень много: *être blanc* – побледнеть от волнения, *marquer de blanc* – отметить как радостное событие, *monter le blanc en neige* – взбодрить, воодушевить.

Через семантику «черного» может быть выражена степень эмоционального напряжения: *avoir un fun noir* – сильно веселиться, получать огромное удовольствие.

Передача через понятие белого цвета не только положительных, но и отрицательных эмоций составляет специфическую черту французской языковой картины мира, особенно по сравнению с узбекским языком, в котором данный цвет обычно связан с положительными эмоциями.

При лингвистическом описании эмоций, на наш взгляд, их экстралингвистическая сущность (положительные/ отрицательные, конструктивные/ неконструктивные, напряженные/ненапряженные, длительные/ недлительные и т.д.) не должна игнорироваться, однако следует учитывать трансформацию реальной эмоциональной сферы личности через сложившиеся модели в каждом языке модели выражения эмотивности.

Сами лексемы эмоция, чувство, сочетание эмоциональное состояние представляют собой своеобразные имена выделенного М.И.Лазариди ономаσιологического поля, имеющего сложную структуру. В состав этого поля нами включены:

общие наименования эмоций (чувство, страсть, волнение);

наименования нейтрального эмоционального состояния (апатия, безразличие, покой, умиротворение, равнодушие) как своеобразные «нулевые» состояния, имеющие, однако положительные (покой, умиротворение) или отрицательные (три остальные лексемы) оценочные индексы;

наименования положительного эмоционального состояния (радость, блаженство, восторг, любовь, нежность, воодушевление, жалость, умиление, азарт, вдохновение);

наименования отрицательного эмоционального состояния (гнев, страх, тоска, страдание, зависть, ненависть, ярость, грусть, злость, ревность, стыд, агрессия, умиротворение, отчаяние, отвращение, подавленность, уныние, смущение, смятение, возмущение, бешенство, обида, боязнь, печаль, скорбь, ужас, испуг, азарт, апатия, беспокойство, вдохновение, горечь, досада, злость, скука, раздражение, уныние);

– наименования эмоциональных состояний «интеллектуальной окраски»: удивление, изумление.

«Не следует думать, что в общем реестре человеческих эмоций положительные эмоциональные состояния имеют меньший удельный вес. Видимо, большое разнообразие отрицательных эмоций дает возможность более успешно осуществлять адаптацию к неблагоприятным обстоятельствам, о характере которых успешно и тонко сигнализируют отрицательные эмоциональные состояния» [4]. Тем не менее в

количественном отношении наименования отрицательных эмоций явно преобладают.

Символика цветообозначений тесно связана с системой сложившейся в каждом этническом языке полисемии. Х. Чирнер устанавливает соотношение между происхождением прилагательного и его однозначностью или многозначностью. «К основным цветообозначениям относятся в русском языке красный, желтый, зеленый, голубой, синий, коричневый, черный, белый, серый. Именно они являются полисемантическими, в отличие от прилагательных оранжевый и фиолетовый, которые являются заимствованными и однозначными» [8].

Новое, негативное в обыденном сознании значение зафиксировано в русском языке у субстантивированного прилагательного голубой: «лицо мужского пола, имеющее нетрадиционную сексуальную ориентацию».

Таким образом, основные прилагательные-цветообозначения не только являются многозначными, но

и наблюдается определенная тенденция к росту их многозначности.

Одним из проявлений несовпадения «цветовых картин мира» в разных языках являются национальные цветовые триады [3].

Анализ и результаты. Для сопоставляемых языков характерны различия в способах передачи оттенков цвета – через непроемлемые лексемы, производные слова, сложные слова и словосочетания описательного характера (аналитический способ).

Однако основными обозначениями средством дифференциации цвета являются цветные прилагательные, а среди них «те лексические единицы, которые служат обозначением цвета без оттенков и выступают в роли опорного слова в синонимических рядах» [8], таким образом, в определение основных цветообозначений включается лингвистический момент (табл.1).

Таблица 1

Соотношение наиболее употребительных цветов во французском, узбекском и русском языках

Французский	Русский	Узбекский
Rouge	Красный	Қизил, алвон, қирмизи
Bleu-ciel	Голубой	Мовий, нилий, осмоний, самовий, зангор, ложувард
Brun, maron	Коричневый	Жигар ранг
Orange	Оранжевый	Апельсин ранг, тўқ сарик
Turquoise	Бирюзовый	Феруза
Violet	Фиолетовый	Сапсар, нафармон
Bleu	Синий	Кўк, зангор
D'or	Золотой	Тилла ранг, сап-сарик
Bleuatre	Сизый	Кўк, кўкимтир
Couleur salade	Салатный	Оч яшил, баргикарам
Cramoise, Framboise	Малиновый	Тўқ кизил, малина ранг
Violacé	Сиреневый	Сирень ранг, оч бинафша ранг
Jaune	Желтый	Сарик, саман
Vert	Зеленый	Сабз, яшил
Beige	Бежевый	Оч жигар ранг, сарғиш
Bordeau, rouge foncé	Бордовый	Тўқ кизил
Pourpre	Пурпурный	Тўқ кизил, қирмизи
Rose	Розовый	Пушти, нимпушти
Lilas	Лилловый	Бинафша ранг, нафармон
D'argent	Серебряный	Кумуш ранг
Noir	Черный	қора
Purpurin	Багряный	Тўқ кизил, кип-кизил, аргувон
Gris	Серый	Кул ранг, кўкимтир
Kaki	Хаки	Яшил, мош ранг
Ardent	Огненный	Олов ранг
Roux, carotte	Рыжий	Малла
Blanc	Белый	Оқ
D'emerade	Изумрудный	Зумрад
Couleur cerise	Вишневый	Олча ранг
Couleur moutarde	Горчичный	Хантал – не цвет
Grenat	Гранатовый	Ёкут ранг, кип-кизил
Couleur de perle	Жемчужный	Садафдек опппоқ
Azur	Лазурный	Зангор
Blanc perle	Перламутровый	Садаф рангли
Couleur de peche	Персиковый	Шафтоли ранг
Ambré	Янтарный	Қаҳрабо ранг, оқ сарик, тиник сарик

Заклучение и предложения. Таким образом, символизм прилагательных-цветообозначений во французском, русском и узбекском языках имеет как изоморфные, так и алломорфные черты; не исключена также индивидуальная символизация цветов.

Проявлениями символики цветообозначений служат переносные значения многозначных прилагательных, фразеологические единицы и национальные цветочные триады.

Одним из существенных аспектов специфики «цветовой картины мира» французского, русского и узбекского языков является не только разное членение цветового спектра, но и специфическая организация многозначности прилагательных-цветообозначений.

Структура и семантика цветообозначений в каждом из анализируемых языков в определенной мере зависят от типа данного языка, причем по богатству цветообозначений и их оттенков узбекский язык не уступает французскому и русскому языкам.

ЛИТЕРАТУРА

1. Додонов Б. И. Эмоции как ценность. – М.: Политиздат, 1978. – С. 272-297.
2. Елизаветинская И. В. Французский в цвете // Школа Альянс-Франсез в Санкт-Петербурге. – СПб. 2006 <http://www.af.spb.ru/coursspe/couleurs.htm>
3. Караулов Ю. Н. Активная грамматика и ассоциативно-вербальная сеть. – М.: ИРЯ РАН, 1999. – 180 с.
4. Лазариди М.И. Психические состояния в полевом описании. – Бишкек: Кыргызско-русский славянский университет, 2003. – 311 с.
5. Рахимова Г. Национальные триады как отражение языковой картины мира // Роман ва герман тилшунослигининг долзарб муаммолари. Мат-лы научно-практ. конф. – Т.: УзГУМЯ, 2009. – С. 96-98.
6. Рахимова Г. Колористическая лексика в аспекте языковой картины мира // Филологические науки: вопросы теории и практики №3(7). Научно-теоретический и прикладной журнал. – Тамбов: Грамота, 2010. – С. 130-134.
7. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. 80000 дан ортиқ Сўз ва сўз бирикмаси / Тахрир хайъати: Э. Бегматов, А. Мадвалиев, Н. Махкамов... – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006-2008.
8. Чирнер Х. Семантический объем прилагательных, обозначающих цвета, в русском языке в сопоставлении с немецким.: Автореф. дисс... канд. филолог. наук. – М.: МГУ, 1973. – 27 с.
9. Шаховской В. И. Эмоции. Долингвистика. Лингвистика. Лингвокультурология. – М.: Либерком, 2009. – 124 с.
10. Dubois D., C. Grinevald. En voir de toutes les couleurs: processus de dénomination des couleurs et constructions cognitives. Langues et cognition. Paris: Lavoisier, 2003.



Xurshida RAHMONOVA,
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti katta o'qituvchisi, PhD
E-mail. xurshida.xalilovna@gmail.com

Fil.f.d. U.Rasulova taqrizi asosida

KHURSHID DOSTMUHAMMAD'S PROFICIENCY TO CREATE AN ARTISTIC IMAGE

Annotation

One of the most important issues in literary criticism has always been to understand and explain the art of prose and the essence of its images. The article examines the scientific and theoretical views of Uzbek literary scholars on the art of prose, in particular, on the issues of image and imagery, and analyzes the stories and narratives of the writer Khurshid Dostmuhammad. The nature of the images in the author's works, the essence of individual metaphors, the writer's unique style of deepening the psyche of the protagonist were studied. The illumination of meaning through symbols in the author's works is also analyzed on the basis of examples.

Key words: Nature of images, traditional and individual metaphors, symbols, artistic generalizations, image of contemporary man and historical figure, national and universal values, historical environment, psychological image

МАСТЕРСТВО СОЗДАНИЯ ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ОБРАЗОВ ХУРШИДА ДОСТМУХАММАДА

Аннотация

Понимание и объяснение искусства прозы и сущности ее образов всегда было важной задачей литературоведения. В статье рассматриваются научно-теоретические взгляды узбекских литературоведов на искусство прозы, в частности, на вопросы образа и образности, анализируются рассказы и повести писателя Хуршида Достмухаммада. Изучены характер образов в произведениях автора, сущность отдельных метафор, неповторимый писательский стиль углубления психики главного героя. Освещение смысла через символы в произведениях автора также анализируется на основе примеров.

Ключевые слова: Характер образов, традиционные и индивидуальные метафоры, символы, художественные обобщения, образ современного человека и исторического деятеля, национальные и общечеловеческие ценности, историческая среда, психологический образ.

XURSHID DO'STMUHAMMADNING BADIY OBRAZ YARATISH MAHORATI

Annotatsiya

Adabiyotshunoslikda nasriy asarlar badiyatini, undagi obrazlar mohiyatini anglab yetish, tushuntirish hamisha muhim masalalardan biri bo'lib kelgan. Maqolada o'zbek adabiyotshunos olimlarining nasriy asarlar badiyatiga, xususan, obraz va tasvir masalalariga doir ilmiy-nasriy qarashlari o'rganilib, adib Xurshid Do'stmuhammad hikoya va qissalari misolida tahlil qilindi. Adib asarlaridagi obrazlar tabiati, individual metaforalarning mohiyati, qahramon ruhiyatini chuqur yoritib berishdagi adibning o'ziga xos uslubi tadqiq etildi. Shuningdek, adib asarlaridagi ramzlar orqali ma'no-mohiyatning yoritilishi misollar asosida tahlilga tortilgan.

Kalit so'zlar: Obrazlar tabiati, an'anaviy va individual metaforalar, ramzlar, badiiy umumlashma, zamondosh inson hamda tarixiy shaxs obrazi, milliy va umumbashariy qadriyatlar, tarixiy muhit, psixologik tasvir.

Kirish. O'zbek adabiyotshunosligida badiyatga doir nazariy qaydlar uzoq tarixga borib tutashadi. Badiiy-estetik tafakkurning taraqqiyot tamoyillari hozirgi adabiy jarayonning tarkibiy va ajralmas bir bo'lagi sifatida o'rganilmoqda. Badiiy tafakkur hamisha o'zgarib, yangilanib turadi. Negaki, badiiy tafakkur – muayyan bir davrdagi milliy adabiyot holatini, muayyan manzarasini, yangiliklari, kamchiliklarini o'z ichiga oladi. Bu – uning tabiatidagi ustuvor xususiyat. Biror badiiy asarning tasvir nozikligini, badiiy o'ziga xosligini, obrazlar tizimini to'g'ri tushunmoq, tili go'zalligini his etmoq uchun shu asar yaratilgan davr badiiy tafakkuriga xos xususiyatlarni bilish kerak. Chunki chinakam badiiy hodisa davr ruhini ifodalash bilan bir qatorda o'zi yaratilgan vaqtdan uzoqroq yashaydi va zamonga nisbatan turg'unroq bo'ladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Dunyo adabiyotshunosligida nasriy asarlar badiiyati muammolariga o'ziga xos adabiy-estetik hodisa sifatida yondashish, ijodkor badiiy mahoratini ochib berish, yozuvchi qissa va hikoyalardagi obraz hamda uning ma'naviy-ruhiy olami mohiyatini teran anglab yetish, qahramon ruhiyatini kengroq tasvirlash usulini, yozuvchi g'oyasini anglab yetish muhim masalalardan biri hisoblanadi.

Adabiyotshunoslikda badiiy obraz yaratish masalasi muayyan darajada o'rganilgan. Jumladan, Arastu, V.F.Gegel',

V.G.Belinskiy, A.A.Potebnya, M.Baxtin, Yu.Borev, V.Xalizev, A.B.Esin, L.I.Timofeyev, N.D.Tamarchenko[1] kabi olimlarning ilmiy maqola va tadqiqotlarida masalaning nazariy jihati yoritilgan. O'zbek adabiyotshunosligida ham I.Sulton, M.Qo'shjonov, B.Sarimsoqov, T.Boboyev, E.Xudoyberdiyev, U.Normatov, A.Rasulov, Q.Yo'ldoshev, S.Meliyev, A.Ulug'ov, D.Quronov, B.Karimov, U.Jo'raqulov[2] va boshqa adabiyotshunoslarning monografiya, ilmiy adabiyotlarida hikoya va qissalar badiiyati, xususan, badiiy obraz, tasvir vositalariga doir ilmiy-nasriy qarashlar o'z ifodasini topgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Adabiyotshunoslikda nasriy asarlar poetikasi, badiiy obrazga doir nazariy qarashlar o'rganilib, Xurshid Do'stmuhammad hikoya va qissalari asosida tarixiy va badiiy obrazlar tabiati, badiiy matndagi tasvir usullarining o'ziga xosligi ochib berilgan. Istiqlol davri adabiyotida janrlar takomilidagi o'zgarishlar, poetik tasvirming o'ziga xosligi Xurshid Do'stmuhammad asarlari, undagi obrazlar tabiati, milliy va umumbashariy qadriyatlarining uyg'unlikda ifodalanishi, tarixiy shaxs obrazi va zamondosh inson qiyofasining badiiy asarda ifodasi, ramzlar zamiriga singdirilgan ma'no qatlamlari, psixologik tasvir vositalarining badiiy matnda aks etishi hamda yozuvchi uslubining o'zbek adabiyoti rivojida munosib o'rni va ahamiyatini ushbu

maqolada yoritib berishga harakat qildik. Adib hikoyalarini tahlil qilishda undagi g'oyani yoritishda germevntik, psixologik, tasniflash kabi usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Ma'lumki, san'at va adabiyotda hayot obrazlar vositasida aks ettirilgan ekan, badiiy adabiyot obrazli fikrlash natijasida dunyoga keladi. Adabiyotshunos B.Sarimsoqov obrazga shunday ta'rif beradi: "San'atda voqelik ijodkorning estetik qarashlari, prinsiplari va ideali orqali ijodiy idrokidan o'tganligi, binobarin, o'zgartirilganligi sababli unga nisbatan "badiiy" aniqlovchisini qo'shib ishlatamiz. Bevosita mana shu xususiyati tufayli san'at asari, ulardagi badiiy obrazlar inson his-tuyg'ularini tarbiyalaydi, uning aql-idrokini takomillashtiradi. Demak, san'atdagi obraz va obrazlilikning asosini ijodkorning voqelikni hissiy-aqliy idrok etishi, qayta ijodiy gavdalandirishi tashkil etadi"[3]]. Insondagi muayyan his-tuyg'uni, holat va harakatni, o'y va kechinmani o'zgalar qalbiga, shuuriga ta'sir etadigan darajada ifodalashda so'zning o'rni beqiyosdir. So'zlardan qay darajada foydalanib badiiy obraz yaratish yozuvchining mahoratiga bog'liq.

"Badiiy obraz borliqning (undagi narsa, hodisa va h.k) badiiy asardagi aksi... Badiiy obrazning xususiyatlari haqida so'z ketganda, birinchi galda, uning individuallashtirilgan umumlashma sifatida namoyon bo'lishi xususida to'xtalish zarur. Ma'lumki, voqelikdagi har bir narsa-hodisada turga xos umumiy xususiyatlar bilan birga uning o'zigagina xos xususiyatlar mujassamdir"[4], – deb yozadi taniqli adabiyotshunos D.Quronov. Badiiy asarda ifodalangan badiiy obraz umumlashma natijasiga bo'lmay, ayni chog'da, konkretlashtirish, individuallashtirish mahsuli hamdir. "Shu ma'noda konkretlik – badiiy obrazning spetsifik xususiyatlaridan biri sanaladi"[5]. Chunki yozuvchi badiiy obrazda individual xususiyatlarni namoyon qilishi orqali uni konkretlashtiradi, obrazga jonlilik, haqqoniylik, tabiiylik baxsh etadi. O'quvchi hissiyotiga ta'sir qiladi, uni ishonitiradi. Adibning "Shabada" hikoyasidagi Komron obrazi o'zida katta badiiy umumlashmani tashiydi, ya'ni globallashtayotgan zamonda ma'naviy inqirozga uchrayotgan zamondosh inson qiyofasini gavdalandiradi va shu bilan birga o'quvchi ko'z o'ngida alohida bir shaxs sifatida namoyon bo'ladi. Yozuvchi umumlashmaga individual xususiyatlarni bo'rttirish orqali erishadi. Masalan, muallif Komron nutqida: "ar-r... arsh dedimi – Komron ichida kulib qo'ydi – koinotning chang to'zoni chiqib ketarmishmi-yey! Buyog'idan uyog'i yaqinlashib to'shakka qadaliy yotgan... boboy-momoylar o'ylab topgan safsatalar..."[6], "Dunyo juda keng, odamlar ham, orzu-havaslar ham xilma-xil. Siz jon kuydirib aytayotgan nasihatlarini hozir dunyoning hech yerida ota-onalar farzandlariga aytishmaydi"[7], "onam bilan qoni bir odamda, ikki dunyoda ham tushunmaydi"[8] kabi gaplari, fikrlari orqali individual belgilarni ifodalaydi. Ayni shu o'ziga xos belgilarning ifodalanishi hisobiga obraz badiiy umumlashmalikka erishgan. Hikoyada adib butun dunyo jamiyatidagi illatlarni, globallashtayotgan inson ongu tafakkuriga ta'siri, oiladek muqaddas ne'matlarga befarqlik, e'tiqodsizlik, ma'naviy qashshoqlik natijasida kelib chiqadigan oqibatlar haqida qayg'uradi.

Adib nasrining o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri bu tasvirda voqealarning, obrazlarning ma'lum bir tomonini sir saqlashdir. Obrazlarning turfa olami, qahramon psixologiyasida ro'y berayotgan ma'lum o'zgarishlar voqealar rivoji davomida retrospektiv syujet asosida kitobxonga yetkazib beriladi. "Beozor qushning faryodi", "Shabada", "Jodi" hikoyalari va "Katta ko'cha", "Kuza..." qissalari ana shunday syujet asosiga qurilgan asarlar sanaladi.

Obraz mohiyatiga ko'ra harakatdagi voqelikdan iborat. Real borliqdagi, inson xarakteri, ruhiyatidagi turli-tuman o'zgarishlar va kechinmalarni ijodkor o'z ongi, dunyoqarashi, estetik ideali, g'oyaviy maqsadi orqali sintez qilish oqibatida badiiy obraz shakllanadi. Shu sababli ijodkor yaratgan har bir

yangi obraz yangi bir kashfiyotdir. Bunday obrazlar inson ma'naviy dunyosini boyitadi, tafakkur doirasini kengaytiradi, ruhiyatini kirlardan tozalaydi. Bunday obrazni yaratish uchun, birinchidan, voqelik materialida ob'ektiv asos, soddaroq qilib aytganda, xamirturish kerak. Ikkinchidan, tanlangan hayotiy materialni qanday tasvirlash yoki ifodalash ijodkorning xohish va maqsadi, iqtidori va mahoratiga bog'liq holda kechadi.

Badiiy obraz tabiatining muhim jihatlaridan biri uning metaforikligidir. Adabiyotshunos B.Sarimsoqov bu haqida shunday yozadi: "Badiiy ko'chimlar ichida metafora (istiora) juda katta o'rin egallaydi... So'zning istioraviy ko'chimiga asoslangan badiiy tasvir va ifodasi o'ta darajada favquloddalik kasb etadi. Natijada, vujudga kelgan obrazning ta'sirchanligi yuksak bo'ladi"[9]. Yana bir taniqli adabiyotshunos D.Quronov esa: "metaforiklik" deganda badiiy obrazning bir narsa mohiyatini boshqa bir narsa orqali ochishga intilishi, san'atga xos fikrlash yo'sini tushuniladi"[10], – deb ta'rif beradi. Yozuvchi voqelikdagi narsa-hodisaning hammaga ko'rinish turgan tashqi o'xshashligiga emas, balki odamlar nazaridan yashirin ichki o'xshashligiga tayangan holda fikrlaydi. Masalan, Cho'lpon go'zal obrazi va inson erki-ozodligi, Abdulla Qahhor xalqni aldayotgan Amin, pristav obrazlari bilan o'g'rilar, Abdulla Oripov tilla baliqcha bilan o'z qobig'iga o'ralib yashayotgan odamlar, Said Ahmad ongsiz yirtqich hayvon bo'ri bilan o'z yurtidan, elidan, iymon-e'tiqodidan mosuvo bo'lgan Bo'rivoy obrazi o'rtasida o'xshashliklar topadi. O'z navbatida Xurshid Do'stmuhammad ham "Jajman" hikoyasida bozorga kirib, moslashib hamma ozuqani yeb bitirayotgan to'rtoyoqli g'alati maxluq bilan insonning bitmas-tuganmas orzu-havaslarini, nafsini, "So'roq" qissasidagi "uchar likopcha"da kelgan o'zga sayyoraliklar bilan insonni so'roq qiluvchi vijdon o'rtasidagi o'xshashlikni topishi – metaforik fikrlash natijasidir. Bundan kelib chiqadiki, obrazni metaforik, ya'ni mazmunni yashirin asosida tasvirlash kitobxonni asarning mazmun-mohiyatini anglab yetish uchun bir oz aqlini charxlashiga, asar haqida mantiqiy fikrlashga undaydi. Adabiyotshunos B.Sarimsoqov metaforalarni yaratilish tarziga ko'ra ikkiga ajratadi. "1.An'anaviy metaforalar. 2.Individual metaforalar.

An'anaviy metaforalar allaqachonlar yaratilib, til mulkiga aylangan va ijodkorlar ularga tez-tez murojaat qilib turadilar... Individual metaforalar esa u yoki bu ijodkor tomonidan ilk bor yaratilib, uning ko'chma ma'nosi ham ko'pchilikka u qadar ma'lum bo'lmaydi"[11]. Demak, individual metaforalarda ijodkorning tafakkuri, voqelikka bo'lgan munosabati, hislari, estetik ideali mujassamlashgan bo'ladi. Shuningdek, muayyan badiiy asar g'oyasini, mazmunini baholash ana shu individual metaforik obrazlar mohiyatini, ularda jamlangan hissiy quvvatni to'g'ri anglash orqali amalga oshadi. Adib Xurshid Do'stmuhammad ijodida individual metaforik obrazlarni uchratish mumkin. Muallifning "Jajman" hikoyasida jajman, "Qoyalardan balanda" asarida burgut, "Saf" hikoyasida uzun saf, qator, "Qich-qiriq"da suv, "Shabada" hikoyasidagi olov, "Panoh" qissasida ona o'rik daraxti, "Katta ko'cha"da oromkursi obrazlari fikrimizning dalilidir. Individual metaforalar ijodkor tasavvuri, xayoli, estetik bahosi, tafakkur doirasi, dunyoqarashi bilan aloqadorlikda o'zga ma'noga ko'chirilgan so'z emas, balki ma'lum jihatlardan ko'chma ma'no kasb etgan metaforik obrazlardir. Asarning badiiyligini ta'minlashda an'anaviy metaforalari bilan bir qatorda individual tarzda yaratilgan metaforalar ham faol ishtirok etadi. Individual metaforalar ko'chim darajasi, hissiy chuqurligi, favqulodda obrazlilik, betakrorligi bilan alohida ajralib turadi. Istioraning bu turi ijodkor uchun yuksak falsafiy-estetik xulosalar qilishga ko'plab imkon beradi.

Xurshid Do'stmuhammad ijodining dastlabki bosqichidagi asarlarida, xususan, "Saf", "Etakdagi uy", "Vasiy", "Mahzuna", "Jajman", "Qazo bo'lgan namoz", "Beozor qushning faryodi" hikoyalarida milliylik, milliy qadriyatlar, urf-

odatlarining ulug'lanishi, sof o'zbekona ruhning yetakchilik qilganligi kuzatilsa, keyingi boqichdagi asarlarida, jumladan, "Shabada", "Jim o'tirgan odam", "Muhtaram, jallod janoblari" hikoyalari, "Kuza...", "Katta ko'cha", "Hijronim – mingdir mening", "Men – sensiz, sen – mensiz", "Yolg'iz" qissalarida inson, uning tuyg'ulari, orzulari, xayollari, fikrlari, tafakkuri, boringki, insonning o'zi bosh qadriyat darajasiga ko'tarildi. Bu tipdagi asarlarida adib inson tuyg'ularining kuzatuvchisi, ko'ngil tebranishlarini, kayfiyat va uning natijasida kelib chiquvchi fikrlarni tekshiruvchi, ruhiyat qatlamlarini tadqiq etuvchi, bir so'z bilan aytganda, insonni murakkab rakurslarda tasvirlovchi ijodkorga aylandi.

Adib Xurshid Do'stmuhammad o'z asarlarida obraz yaratarkan, ularning ma'naviy saviyasiga, milliy va umum-bashariy ruhning ifodalanishiga alohida e'tibor qaratadi. Uning ko'pgina asarlarida o'zbek xalqiga xos fazilatlar kamchiliklar bor-bo'yicha aks etgan. O'zbek adabiyotimiz va jahon adabiyoti sirlaridan voqif bo'lgan Xurshid Do'stmuhammad zamondosh obrazini yaratishda ham, tarixiy shaxs obrazini yaratishda ham umumbashariy va milliy qadriyatlar talabidan kelib chiqadi. "O'zgarayotgan voqelikdan badiiy umumlashma yasashda hikoyaning imkoniyati katta. Lekin badiiylik sharti shundaki, hikoya nechog'li bugunbop janr ekanligidan qat'i nazar unda bugunning qadriyatlari, bugunning muhim gapi abadiy va o'zgarmas qadriyatlar qiyofasida ifoda topmog'i kerak. Hikoya dolzarb (o'tkinchi desak ham yanglishmaymiz) va mangu qadriyatlar orasida dunyoga keladi. Hikoyaning bugungi kun ko'rinishi nisbatan oson, biroq uning mag'ziga singdirilgan mangu qadriyatlarining ifodasi asarning umumbashariy va umrboqiyiligini

ta'minlaydi. Dolzarb qadriyatlar soyasida qoldirilib abadiy qadriyatlar kamsitilgan joyda badiiy tafakkur soxtalashadi, rivojdan qoladi"[12], – deb yozadi Xurshid Do'stmuhammad. Adib yozgan fikrlar tatbiqini uning hikoyalaridagi obrazlar misolida ko'rishimiz mumkin. "Qazo bo'lgan namoz" hikoyasida Mirkomilboy xarakterida ham milliy, ham umumbashariy qadriyatlarni o'zida mujassam etgan vatanparvar shaxs obrazini, "To'xtaboyning boyliklari" hikoyasida imon-e'tiqodga sobit inson qiyofasini, "Mahzuna"da sharqona ibo-hayo fazilatlariga ega ayol timsolini, "Vasiy"dagi yigit xarakterida sof milliy ruh bilan yo'g'rilgan g'amxo'r uka obrazini uchratamiz. Yigitdagi mardlik, opasiga mas'ullik, tug'ishgan birodarini har qanday injiqliklariga sabr qilish hissi faqat o'zbek farzandlariga xos ekanligini ko'rsatib bergan. Umuminsoniylik va milliylik ma'lum muhitda tanlangan obrazlar qiyofasida, ularning ichki olami tasvirida ko'zga tashlanadi.

Xulosa. So'nggi yillarida badiiy tafakkur jarayonidagi tasvir usullari orasida yangi-yangilari paydo bo'ldi, ular yordamida insonni turlicha tadqiq etish imkoniyatlari orta bordi. O'rni kelganda, muallif dunyoviy tashvishlardan inson botiniy tuyg'ulari, qalbini tasvirlashni ustun qo'ya boshladi. Bunday yangicha uslublardan foydalanish, insonning inja tuyg'ularini tasvirlash Xurshid Do'stmuhammad yaratgan hikoya va qissalarida ham bo'y ko'rsatgan. Adib o'z asarida qahramonlar ruhiyatini, badiiy asar g'oyasini muayyan bir ramziy obrazlar vositasida yoritib bergan.

Yuqoridagi mazkur qisqacha qaydlar hozirgi zamon adabiyotshunosligida nasrdagi badiiyat masalalarini yoritishda xizmat qiladi, deb o'ylaymiz.

ADABIYOTLAR

1. Арасту. Поэтика. Ахлоқи кабир. Риторика. – Т.: Янги аср авлоди, 2011; Гегель В.Ф. Эстетика. Санъат ва бадий ижод фалсафаси. – Тошкент, 2012; Белинский В.Г. Собр. соч. В девяти томах.Т.2. – М.: Худ. лит-ра, 1977; Белинский. В.Г. Адабий орзулар. Т.: Фафур Ғулом, 1977; Потебня А.А. Теоретическая поэтика. – М.:Высшая школа, 1990; Бахтин М.М. Проблемы поэтики Достоевского. – М. Худ. Лит-ра, 1972; Тимофеев Л.И Основы теории литературы. – М.: Просвещение, 1971; Тмарченко Н.Д. Теория литературы. – М.: Академа, 2004; Есин А.Б. Психологизм русской классической литературы. – М.: Просвещение, 1988.
2. Қўшжонов М. Танланган асарлар. – Т.: Шарқ, 2018; Саримсоқов Б.И. Бадийлик асослари ва мезонлари – Т.: Фан, 2004; Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. – Т.: Ўзбекистон, 2002; Худойбердиев Э. Адабиётшунослика кириш. – Т.: Шарқ, 2008; Расулов А. Бадийлик – безавол янгилик. – Т.: Шарқ, 2007; Йўлдошев Қ. Ёник сўз. – Т.: Янги аср авлоди, 2006.; Мелиев С. Сўзу сўз. – Т.: Шарқ, 2020; Қуронов Д. Адабиёт назарияси асослари. –Т.: Академнашр, 2018; Каримов Б. Рухият алифбоси. – Т.: Фафур Ғулом, 2018; Жўрақулов У. Қодирий ва роман тафаккури. – Т.: Нурафшон бусинесс, 2020; Расулова У. XX аср ўзбек қиссачилиги. – Т.: Қамар медиа, 2020.
3. Sarimsoqov B. Badiiylik asoslari va mezonlari. – Т.: Fan, 2004. – В. 5.
4. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – Т.: Abdulla Qodiriy, 2004, – В 63-64.
5. O'sha manba. – В. 64.
6. Do'stmuhammad X. Qichqiriq. – Т.: Sharq, 2014. – В. 27.
7. O'sha manba. – В. 28.
8. O'sha manba. – В. 18.
9. Sarimsoqov B. Badiiylik asoslari va mezonlari. – Т.: Fan, 2004. – В. 43.
10. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – Т.: Abdulla Qodiriy, 2004 – В. 66.
11. Sarimsoqov B. Badiiylik asoslari va mezonlari. – Т.: Fan, 2004. – В. 49.
12. Do'stmuhammad X. Hozirgi o'zbek hikoyalarida badiiy tafakkurning yangilanishi. Fil.fan.nomz. ...diss. Т.: 1995.– В.15.



UDK: 81(045)(575.1)

Nigorakhon RUZIBAEVA,
PhD student, Uzbek State World Languages University
n.ruziboeva@tsul.uz

Reviewed by Z.K.Teshabaeva, Doctor of Science at Tashkent State University of Uzbek Language and Literature

THE STUDY OF PRAGMATICS AS A LINGUISTIC SCIENCE: PROBLEMS OF DEFINITION AND CLASSIFICATION

Annotation

The communicative-pragmatic turn in linguistics signaled a shift in researchers' interests from studying the internal properties of the language system to analyzing the functions of language in the complex structure of human communication, and it also drew attention to the term "pragmatics", which was virtually unknown in the context of linguistics until the middle of the twentieth century. The point of this study is for the author to identify and analyze current interpretations of the term "pragmatics" to describe possible options for pragmatic relationship with other scientific disciplines. For this purpose, the author employs and compares the opinions of various scholars via using descriptive, conceptual and contrastive methods.

Key words: Pragmatics, linguistics, pragmalinguistics, disciplines, science, communication, theory, speech, utterance

ИЗУЧЕНИЕ ПРАГМАТИКИ КАК ЛИНГВИСТИЧЕСКОЙ НАУКИ: ПРОБЛЕМЫ ОПРЕДЕЛЕНИЯ И КЛАССИФИКАЦИИ

Аннотация

Коммуникативно-прагматический поворот в языкознании обозначил смещение интересов исследователей от изучения внутренних свойств языковой системы к анализу функций языка в сложной структуре человеческого общения, а также привлек внимание к термину «прагматика», который был практически неизвестен в контексте языкознания до середины XX века. Суть данного исследования заключается в выявлении и анализе современных трактовок термина «прагматика» для описания возможных вариантов прагматических взаимоотношений с другими научными дисциплинами. Для этого автор использует и сопоставляет мнения различных ученых, используя описательный, концептуальный и сопоставительный методы.

Ключевые слова: Прагматика, языкознание, прагматлингвистика, дисциплины, наука, общение, теория, речь, высказывание.

PRAGMATIKANING LINGVISTIK SOHA SIFATIDA O'RGANILISHI: TA'RIF VA TASNIF MUAMMOLARI

Annotatsiya

Tilshunoslikdagi kommunikativ-pragmatik burilish tadqiqotchilar manfaatlarining til tizimining ichki xususiyatlarini o'rganishdan tilning insoniy muloqotning murakkab tuzilishidagi funksiyalarini tahlil qilishga o'tishini belgilab berdi. Shuningdek, 20-asr o'rtalarigacha tilshunoslik kontekstida deyarli noma'lum bo'lgan "pragmatika" atamasiga e'tiborni qaratildi. Ushbu tadqiqotning mohiyati boshqa ilmiy fanlar bilan pragmatik munosabatlarning mumkin bo'lgan variantlarini tavsiflash uchun "pragmatika" atamasining zamonaviy talqinlarini aniqlash va tahlil qilishdir. Buning uchun muallif tasviriy, konseptual va qiyosiy usullardan foydalangan holda turli olimlarning fikr-mulohazalaridan foydalanadi va taqqoslaydi.

Kalit so'zlar: Pragmatika, tilshunoslik, pragmalingvistika, ta'limotlar, fan, kommunikatsiya, nazariya, nutq, jumla

Introduction. The term "pragmatics" was employed in numerous domains of research (such as semiotics, philosophy, sociology, and psychology) until the middle of the twentieth century, resulting in its content becoming exceedingly broad and ambiguous. As a result, determining the location of pragmatics in relation to linguistics and limiting the scope of its activities became required during the emergence and development of linguistically oriented pragmatics. There are three ways to perceive the link between pragmatics and linguistics:

pragmatics is a distinct field closely related to linguistics;

pragmatics is a subset of linguistics;

pragmatics is a subset of linguistics.

Based on extant language literature, the article discusses these three alternatives. In general, pragmatics is proposed as a separate discipline when it emerges as a theoretical path at the junction of two or more sciences [1].

Literature review. For the emergence and development of linguistic pragmatics in the second half of the 20th century, the results of the development of two scientific directions were of particular importance. Firstly, these were the ideas of the philosophers and founders of semiotics Morris

and Pierce that the concept of pragmatics can be defined as a relationship between a sign and its interpreter, that is, the one who creates (produces) and understands this sign [2]. Secondly, it was the theory of speech acts by J. Austin and J. Searle, who first defined the utterance as an action and, accordingly, the process of communication as an active process of interaction [3]. Until that time, the term "pragmatics" was used both in various fields of science (primarily in philosophy, sociology and psychology) and in everyday life, which led to the fact that its content became largely vague and ambiguous.

It is known from the evolutionary history of pragmatics as a scientific direction that it can be considered an integral aspect of numerous fields of science. Depending on the time period and the authors of a particular theory, pragmatics can be understood as:

1) one of the three components of semiosis, which studies the relationship of signs to the subjects who produce and interpret them [4];

2) the study of patterns, pathologies and paradoxes in the interaction of individuals [5];

3) the study of language as an instrument of action to achieve various goals [6];

- 4) the universal theory of social interaction [7];
 5) specific (institutional) theory of speech behavior [8].

Along with the above, there are other interpretations of the term. Due to such a variety of interpretations of the original term, in the process of the emergence and development of linguistically oriented pragmatics, it became necessary to solve the following tasks:

determine the place of pragmatics in relation to linguistics;

to give a new term a definition within the framework of the theory of language.

In a number of publications, linguists have expressed their opinion on the possibilities of solving these problems, but so far there is no unanimity among them as to what constitutes the specifics of linguistically oriented pragmatics and how it relates to other pragmatic areas. In order to emphasize the features of this new discipline, in parallel with the terms "sociolinguistics", "psycholinguistics", "ethnolinguistics", etc., the term "pragmalinguistics" was created, along with it the designations "linguopr pragmatics" and "linguistic pragmatics" [9].

Research methodology. Different sources understand the relationship between pragmatics and linguistics differently. The following are possible variations of their relationship and interdependence:

Pragmatics is a field of study that is related to linguistics. The functioning of language in communication is a point of intersection for both disciplines. At the same time, linguistics investigates the link of communication with the language system, whereas pragmatics explores the reliance of communication on the composition and structure of society. As a result, pragmatics can be defined as a relationship between linguistics and sociology. This viewpoint is expressed, for example, in the writings of J. Mey, a Danish scientist who defines pragmatics as "the study of the use of language in communication between individuals depending on the conditions of a specific community". I.P. Susov also believes that pragmatics is a separate discipline: "At this time, I do not rule out the possibility of pragmatics being recognized an autonomous interdisciplinary branch of knowledge, closely related to linguistics" [10].

Pragmatics is a branch of linguistics that includes lexicology, morphology, text linguistics, contrastive linguistics, and other topics. It's called pragmalinguistics or linguistic pragmatics in this circumstance. This viewpoint is currently the most prevalent; it is found in the majority of linguistic dictionaries, textbooks, and guides.

Pragmatics is regarded to be a sub-discipline of linguistics. Text linguistics and semantics are the most common examples of such sections. A broad understanding of semantics is characteristic of J. Lyons, who, according to his own statement, includes in the field of semantics "much that they would study not within the framework of semantics, but within the framework of the discipline that has come to be called pragmatics". At the same time, the scientist emphasizes that it is important for him not to limit the scope of meaning only to what can be analyzed from a conditionally truthful point of view, it is also necessary take into account contextual and subjective aspects of meaning. The domain of meaning thus extended can be understood as the joint domain of linguistic semantics and pragmatics.

Analysis and results. As an independent discipline, pragmatics is postulated, as a rule, if it, as a theoretical direction, arises at the junction of two or more sciences. Such a direction is, for example, the universal pragmatics of J. Habermas, which combines the ideas and provisions of philosophy, sociology, formal logic and linguistics. Although there is a point of view that Habermas, being a philosopher and sociologist, only used the theory of speech acts to build a

model of communication in an ideal society, in our opinion, it is impossible not to admit that Habermas, in his own way, considered and presented the basic concepts of communication (speech actions, communicative rationality, consensus, etc.) and thus made a huge contribution to the study of communication, the development of the theory of speech acts and linguistic pragmatics in general. The task of universal pragmatics (or the theory of communicative competence) is, according to the creator of this direction, "to identify and reconstruct the universal conditions for possible mutual understanding".

Its subject is elementary utterances as pragmatic units of speech and general structures of speech situations. Habermas seeks to reconstruct the system of rules by which a speaker with communicative competence constructs an utterance from sentences, and to trace how successfully the speaker or listener has transformed sentences into utterances using pragmatic universals. The term "universal pragmatics" should emphasize the difference between his theory and other areas of linguistic pragmatics. While empirical pragmatics aims to study the individual situational conditions for the realization of statements, the goal of universal pragmatics is to reconstruct a universal system of rules by which sentences can be transformed into statements. As a result, Habermas considers it necessary to distinguish between the theory of communicative competence he created from linguistics. In his opinion, there is a fundamental difference between the generation of sentences in accordance with the rules of language (the domain of linguistics) and the use of sentences in accordance with the pragmatic rules that form the infrastructure of speech situations in general (the domain of universal pragmatics).

Таҳлил ва натижалар. Бадий адабиётнинг доимий ва энг муҳим образларидан бири сифатида бола образи ва болалик тасвири алоҳида аҳамиятга эга. Бола образи ҳақида гапирилганда, унинг бадий асардаги яхлитлиги ва марказий ўринни эгаллаши назарда тутилади. У умумлашма образ сифатида ўз ичига бола образларининг типологияси, бола дунёси, болани ўраб турган муҳит ва бола образининг руҳиятини камраб олади. Образларда болалар характерининг турли кўринишлари намоён бўлади. Боланинг дунёси унинг шахсий майдони билан белгиланади. Боланинг муҳити унинг теғрасидаги воқелик (оила, мулоқот ва бошқалар) сифатида талқин этилиб, ана шу муҳит таъсирида унинг табиий, ижтимоий ва индивидуал ривожланишидаги жиҳатлар намоён бўлади.

Болалик энг қадимги даврлардан бошлаб ҳозирги кунга қадар бадий адабиётда турли шаклларда архетип сифатида яшаб келади. Бунда бадий образга илк асос, модель бўлишлик хусусияти муҳим саналади. Шунга кўра бола образи бадий адабиётда мотив образ сифатида намоён бўлади. Жумладан, воқеабанд асарларда такрорланувчи образ кўринишида тасвирланади, яъни ёш кўрсаткичи, бадий мақсади ва вазифасидан келиб чиққан ҳолда муайян турғунликка эга бўлади. Шу билан бирга бола образи мотив ва унинг турли комбинацияларида ўзига хос сюжет сифатида келиши, даврдан-даврга кўчишда ўзига хосликка эга бўлиши, муайян даврда ижодкор онгида пайдо бўлганда ўзгариб бориши ҳам кузатилади. Шунингдек, бола образига инсон образининг маълум бир даври сифатида, яъни шаклий-мазмуний категория (хронотоп шакли) сифатида ёндашилади ҳамда у бадий идрок этилган замон ва макон уйғунлигини ифодалайди.

Ёш психологияси фан сифатида XIX аср бошларида шаклланган бўлишига қарамай, унинг қарор топиш ва ривожланиш йўли узок ўтмишга бориб тақалади. Шарқ мутафаккирларидан Абу Наср Форобий, Абу Райҳон Беруний, Ибн Синоларнинг таълим-тарбия, педагогика, табобатга оид рисоаларида бола шахсияти ва унинг руҳиятига оид қимматли фикрлар билдирилган. Инсон умрини тўрт фаслга қисслаб, унинг ёш давларини аниқ чегаралаш Алишер Навоийнинг “Ҳазойин-ул-маоний” куллиётида амалга оширилган. Биринчи девон “Ғаройиб-ус-сиғар”да болалик ёши 7-8-20 ёш, иккинчи девон “Наводир-уш-шабоб”да йигитлик ёши 20-35 ёш қилиб белгиланади. Шарқда бола ривожланишига асосан ахлоқий-тарбиявий жиҳатдан ёндашилгани эътиборга молик.

Рус педагогик психологиясининг шаклланиши эса, XIX асрнинг 2-ярмига бориб тақалади. Бу даврда маданият, гуманизм шахс ва боланинг ички дунёсига қизиқиш ғоясига асосланган эди. Бунинг исботини Лев Толстойнинг “Болалик”, “Ўсмирлик”, “Ўспиринлик”[5] асарларида кўришимиз мумкин. XX асрга келиб бу соҳада жиддий тадқиқотлар амалга оширилди. Бу даврда бола шахсига эътибор кучайди. Рус руҳшуноси Л.С.Виготский (1896-1934) ёш давлари психологиясининг асосий тушунча ва ғояларини яратди. Европада З.Фрейд психоанализ назариясини ишлаб чиқди. Унинг издошлари А.Фрейд ва М.Кляйн [6] эса, болалик психоанализи асосларини яратдилар.

Психологияда ёш тушунчаси индивиднинг маълум аниқ вақтда белгиланган психик тараққиётининг босқичи ҳисобланиб, ушбу босқичда унинг шахс сифатидаги физиологик ва психологик ўзгаришлари кузатилади. Болаликни даврларга ажратишда асос қилиб, шартли мезон сифатида ривожланишнинг бирор-бир белгиси олинади. Ёш давларини табақалаш бўйича бир қатор мустақил назариялар мавжуд. Уларга биогенетик, социогенетик, психогенетик, когнитивистик, психоаналитик каби назарияларни киритиш мумкин. Психолог

олиmlар томонидан ёш давлрлари турлича табакалaш-тирилади. Бунда филогенез ва онтогенез ҳодисаларининг хусусиятлари асос қилиб олинади. Филогенез бутун инсониятнинг тарихий ривожланиши бўлса, онтогенез шахс психологиясининг индивидуал ривожланиши, тирик мавжудотнинг пайдо бўлган даврдан то охиригача бўлган давридаги ўзгаришлар мажмуидир. Психолог С.Холл филогенезни психологик ўсишнинг бош қонуни деб ҳисоблайди, унга кўра онтогенез филогенезнинг муҳим босқичларини такрорлайди. Олимнинг фикрича, гўдаклик ҳайвонларга хос ривожланиш босқичидан ўзга нарса эмас. Болалик эса асосий машғулотни овчилик ва балиқчилик бўлган қадимги кишиларнинг даврига мос келади. 8-12 ёшлардаги ўсиш даври ёввойиликнинг охири ва тараққиёт бошланишидаги камолотга тенгдир. Ўспиринлик эса, жинсий етилишдан (12-13 ёш) бошланиб етуқлик давригача (22-25 ёшгача) давом этади ва бу романтизмга баробардир. С.Холл талқинича, бу давлрлар ички ва ташқи низолардан иборат бўлиб, одамда “индивидуаллик туйғуси” вужудга келади. Ўз навбатида, инсондаги ривожланиш босқичлари филогенезни айнан такрорламайди, деган қарашлар бундай табақаланишни рад этади.

Л.Виготскийнинг талқинича, ёш давлрлари 6 қисмга ажралади: чақалоқлик даври инқирози, гўдаклик – 2 ойликдан 1 ёшгача, илк болалик – 1 ёшдан 3 ёшгача, мактабгача давр – 3 ёшдан 7 ёшгача, мактаб ёши даври – 8 ёшдан 12 ёшгача, пубертат (жинсий етилиш) даври – 14 ёшдан 18 ёшгача [7]. Бунда олим муайян ривожланишни вужудга келтирувчи руҳий янгиланишларга таянади, унинг фикрича, маълум ёшдаги инқироз янги даврга йўл очади.

Психология фанидан фарқли равишда бадий адабиёт боланинг умумий психологик қонуниятларини эмас, унинг маълум давр ва вазият (ҳолат)даги руҳиятини ва етакчи фаолиятини индивидуаллашган умумлашма тарзида тасвирлайди. Турли давлрларда яратилган бола образларини қиёслаш натижасида улардаги бадий психологизм руҳшунослик илмидаги фаол ёш давлрлари назарияларига асосланганлигини кузатишимиз мумкин. Жумладан, ХХ асрда яратилган бола образларида, асосан, социогенетик ва психогенетик назариялар устуворлик қилади. Социогенетик назария бўйича боланинг ижтимоийлашиш ҳолати унинг шахс сифатида камол топишига хизмат қилади. Бадий адабиётда характер муҳит билан узвий боғлиқ ҳолда тасвирланади, яъни муҳит қандай бўлса, характер шундай бўлади, деган қараш устуворлик қилади. Ҳар бир инсонга муҳит таъсирини инкор этиб бўлмайди, бироқ ҳар бир одамнинг ҳеч қандай муҳит таъсирисиз бошқариладиган ўз табиати

борлигини ҳам эътибордан соқит этмаймиз. Айнан бола образлари муҳит таъсирида эмас, кўпроқ ўз табиий характерлари билан яшайдилар. Бу ҳол кўпинча, муҳитга мос келмайди, натижада болалар унинг қурбонига айланганини кўришимиз мумкин.

Психогенетик назарияга асосланган образларда руҳий жараёнларнинг ривожланиши биринчи планга олиб чиқилади. Бунда бола образининг иррационал хусусиятлари психодинамик нуқтаи-назардан таҳлил қилинади.

Хулоса ва таклифлар. Хуллас, сўз санъати ўзгариб, муттасил янгиланиб турар экан, унинг асосий воситаси ҳисобланган бадий образ ҳақида ҳам аниқ таъриф ва қатъий хулосага келиш мумкин эмас. Ёндашув усулига боғлиқ ҳолда бадий образ хусусияти ва таснифларига оид зиддиятли жиҳатлар доим кўзга ташланаверади, яъни бадий образ индивидуаллашган умумлашма тарзида юзага келар экан, у ҳақда умумий ҳукм чиқариш санъатни қолиплаштиришга олиб келади. Шу маънода бадий адабиётдаги бола образлари ўз табиатидан келиб чиққан ҳолда тасвирланса ҳам, ўзининг бир қанча индивидуал хусусиятларига эга бўлади. Бадий тасвир объекти сифатида бола образи адабиётни анча кеч қизиқтира бошлаган. Фалсафада болаларга эътиборнинг кучайиши, катталардаги ақл-идрокка мутлоқ қадрият сифатида қарашга шубҳанинг пайдо бўлиши бола образи яратилишига рағбатлантирувчи омил бўлди. ХХ асрга келиб, болалик инсон ҳаётининг мустақил даври сифатида қабул қилина бошлади. Психологиянинг оламни идрок этишда муҳим ўрин эгаллаган болалик категориялари алоҳида персонажлар характерини яратишда асос бўлиб хизмат қилди. Унга кўра бола образининг чегараси янги шахс шаклланган давр бўлиб, бу давр давомида шахс сифатида шаклланиб, унинг дунёдаги ўз ўрни белгиланади. Инсон ҳаётидаги бу босқич ривожланишнинг ўзига хос алоҳида қонуниятларига бўйсунди.

Ёш давлрлари психологиясига асосланган ҳолда бадий адабиётда болаларнинг ёши асосан 4-5 ёшдан 21-22 ёшлар оралиғида қилиб белгиланганини кузатиш мумкин. Жумладан, биз юқорида санаб ўтган ва тадқиқот объекти сифатида белгиланган қиссалардаги қаҳрамонларнинг айнан шу ёш оралиғидаги ҳаётлари тасвирланади. Ёш психологиясидан фарқли равишда бола образлари болалик даврини тез фурсатда яшаб ўтадилар. Ёш давлрлари таснифларидан қатъий назар бадий адабиётдаги образлар умумий ҳолатда “бола” номи билан аталади. Бадий образ сифатида болалик руҳий поклик, эзгулик, самимийлик рамзи бўлиб ассоциацияланади ҳамда бадий асарнинг умумий концепцияси учун асос ҳисобланади.

АДАБИЁТЛАР

1. Арасту. Поэтика. Ахлоқи кабир. Риторика. – Т.: Янги аср авлоди, 2011. – Б. 20.
2. Саримсоқов Б. Бадийлик асослари ва мезонлари. – Тошкент, 2004. – Б. 8.
3. Куронов Д. Адабиёт назарияси асослари. – Т.: “Навоий университети” нашриёти, 2018. – Б. 89.
4. Голсуорси Ж. Адабиётда характер яратиш // Жаҳон адаблари адабиёт ҳақида. – Т.: Маънавият, 2010. – Б. 95.
5. Толстой Л.Н. Детство. Отрочество. Юность. Трилогия. – М., 2016. 640 С.
6. Развитие в психоанализе / М.Кляйн, С.Айзекс, Дж. Райверс, П.Хайманн. – М., 2001.
7. Виготский Л.С. Педагогическая психология. – М., 1991. С. 117.



УДК:858.936

Шахноза ХУДАЙҚУЛОВА,
Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети
Ўзбек ва рус тиллари кафедраси ўқитувчиси
E-mail: ShXudaykulova@uwed.uz.

АДУ доценти З.Қодиров тақризи асосида

ҲАЁТ ВА ЎЛИМ КОНЦЕПТИНИНГ МЕТАФОРИК-АКСИОЛОГИК ТАЛҚИНИ

Аннотация

Ушбу мақолада, метафора ўз моҳиятига қўра баҳолаш хусусиятига эга бўлганлиги туфайли аксиология билан чамбарчас боғлиқлиги, ўзбек шеърлятида ҳаёт ва ўлим концептларига оид бадий метафоралар намуналари тадқиқи илдишлари, айни пайтда, ўлим концепти билан боғлиқ ҳазон диафорик метафорасининг контекстуал таҳлили асосида анъанавий метафоралар муаллифнинг индивидуал образли тафаккури, идрок ҳама баҳоси билан боғлиқ янги шакл ва мазмун касб этиши аниқланади. Метафораларни ҳосил бўлишига оид Ж. Лакофф ва М. Тёрнер назарий қаршларига таянган ҳолда ўзбек шоирлари ижодида ҳаёт ва ўлим концептларининг метафорик-аксиологик ассоциацияси қай тарзда воқеланиши тадқиқ этилади.

Калит сўзлар: метафора, диафорик метафора, бадий матн, аксиология, шеърлий матн, ўзбек мумтоз шеърляти.

METAPHORICAL-AXIOLOGICAL INTERPRETATION OF THE CONCEPT OF LIFE AND DEATH

Annotation

In this paper, the metaphor is closely related to axiology due to its evaluative nature, the roots of the study of examples of artistic metaphors on the concepts of life and death in Uzbek poetry at the same time, on the basis of a contextual analysis of the Khazar diaphoric metaphor related to the concept of death, it is determined that traditional metaphors acquire a new form and content related to the author's individual figurative thinking, perception and value on the formation of metaphors. J.Lakoff and M.Based on Turner's theoretical objections, the study of how the metaphorical-axiological association of the concepts of life and death occurs in the works of Uzbek poets.

Keywords: metaphor, diaphoric metaphor, literary text, axiology, poetic text, Uzbek classical poetry.

МЕТАФОРИЧЕСКИ-АКСИОЛОГИЧЕСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ПОНЯТИЯ ЖИЗНИ И СМЕРТИ

Аннотация

В данной статье метафора тесно связана с аксиологией в силу своей оценочной природы в то же время на основе контекстуального анализа хазарской диафорической метафоры, связанной с концептом смерти, определяется, что традиционные метафоры приобретают новую форму и содержание, связанные с индивидуальным образным мышлением, восприятием и значением автора о формировании метафор. Ж.Лакофф и М.Васед на основе теоретических возражений Тернера проводится исследование того, как происходит метафорически-аксиологическое объединение понятий жизни и смерти в произведениях узбекских поэтов.

Ключевые слова: метафора, диафорическая метафора, художественный текст, аксиология, поэтический текст, узбекская классическая поэзия.

Кириш. Бадий матн аксиологиясининг ўзига хослиги, у ўзига муаллиф баҳоси ва нуктаи назарини сингдириб олиши билан бир қаторда, образлилиги ва индивидуаллиги билан характерланади. Шеърлий матнда экспрессив баҳони ёрқин ифодаловчи воситаларидан бири метафорадир. Метафора одатда ўз табиати билан ҳиссий бўёқдорликка мойли бўлади, шунга қўра муайян баҳо, муносабатни акс эттиради.

Шу билан бирга бадий метафоралар лисоний метафоралардан фарқ қилишини ҳам таъкидлаш жоиз. Г.Н.Скляревская фикрича, тилдаги метафора тизимли табиатга эга, у объектив, коммуникация вазифасини бажаради, аноним, қайта яратилиши мумкин. Бадий метафора ўзининг матндаги доирасидан ажралмасдир, айнан ўша ерда унинг семантик моҳиятини аниқлаш мумкин бўлади [1].

Тилдаги метафора нейтрал бўлиши мумкин бўлгани ҳолда (айтайлик, узукнинг қўзи, шамол урди, ариқ лаби ва ҳ.к.), бадий метафора доимо баҳолаш хусусиятига эга бўлади. Тилдаги метафора контекстдан ташқарида ҳам кўчим асосида қўзланган маънони ифодалайди, бадий метафора эса, кўп ҳолларда, контекстда англашилади.

Бадий метафоралар таҳлилига киришдан олдин метафорик кўчим ҳосил бўлиш жараёнини аниқлаштириб оламиз. Америкалик тилшунослар Ж.Лакофф ва М. Тёрнер уни қуйидагича тавсифлайдилар: 1) бош манба доменнинг слотлари мақсадли домен слотларига қўчади; 2) бош манба домен учун хос бўлган муносабатлар мақсад соҳасидаги муносабатларга қўчади 3) домен манбадаги сифатлар мақсад соҳасига проекция қилинади 4) манба домендаги энциклопедик (фон) билимлар, шунингдек, унга хос инферент моделлар мақсад соҳасидаги билимларга қўчади [2].

Асосий қисм. Ўзбек мумтоз шеърлятида ўлим ва ҳаёт концептларига оид бадий метафораларнинг кўплаб намуналарини топиш мумкин. Бундай метафоралар ичида анъанавий, халқ тилига хосларини ҳамда шоирнинг индивидуал образли тафаккури билан боғлиқ бетакрор кўринишларини учратамиз. Туркий шеърятнинг қадимги намуналаридаёқ ушбу воситага мурожаат қилинган-лигининг гувоҳи бўламиз:

Ўлук била қўшулди Туғмиш куни уш батар (Ўлим билан қўшилди Умр куёши ботар) [3].

Мазкур парчада бир вақтда икки кўчим юз беради, умр куёши – от билан от ҳамда умр куёши ботар – от билан феъл бирикувидан ҳаёт ва ўлим аксиологик

метафоралари ҳосил бўлади. Куёшнинг ёруғлик ва иссиқлик бериб турадиган, қизгин газ ҳолидаги юмалоқ ёриткич (ЎТИЛ, V, 364) ядровий маъносидаги фреймлар ёруғлик, иссиқлик тириклик ассоциациясини уйғотади ва у билан боғлиқ кун нихоясида ботиши билан боғлиқ қоронғулик, салқинлик фреймлари интиҳо, яқун ассоциацияларини етаклаб келади. Шу тариқа бош манба доменнинг слотлари мақсадли домен слотларига кўчади.

Бу ўринда ҳаёт ва ўлим аксиологик лексемаларининг қуёш (кун) билан боғланиши, бизнингча, маданий, диний омилларнинг ҳам таъсири бор. Олимларларимиз “Алп Эр Тўнга”нинг дунёга келиш даврини милoddан олдиғи VII асрлар деб тахмин қиладилар, “Достон қадим замонларда, айтиш мумкинки, Алп Эр Тўнга замонасида яратилган бўлиши мумкин... Асар қадимий давр маҳсули эканлигини яна шу далиллар исбот этадики, асар композицияси улуг ҳокон замонаси ёки у асос солган давлат идеалларига монанд қурилган. Асар ёзма адабиётдаги достонлардек улуг тангрига битилган олқиш билан бошланади. Бу тангри қадим туркийлар улуглаган, сиғинган қўқ тангри – осмондир”. Қадимги туркларнинг қўқ тангрига сиғиниши ва шу билан боғлиқ қадриятлар, жумладан, само жисмларига эҳтироми образли тафаккурда чуқур из қолдирган, қўчимнинг осмон жисмларига ўхшатилишининг илдизи туркий халқларнинг эътиқодлари билан боғлиқ бўлса керак. Доменнинг аксиологиклик хусусияти концептдаги баҳо бўёғини оширишга хизмат қилган.

Юқорида тасаввуф шеърини мисолида ўлимнинг тўрт оёқли чўбин от сифатидаги метафорик талқинини кузатган эдик. Мазкур ҳолда ўлим концепти метафора вазифа ўхшашлиги асосида ҳосил бўлган, лекин бу бевосита эмас, билвосита юзага келади: тобут (лексема ядроси тўрт дастали мослама) (ЎТИЛ, II, 127) тўрт оёқли хашаки от ўхшатилади, тобут эса майитни қабристонга элитувчи мослама сифатида, ўзи билан боғлиқ ўлим аксилқадрият ассоциациясини уйғотади.

Ўлимнинг яна бир метафорик концепти хазон лесемасидир. Хазон сўзининг ядроси: Кузда сарғайиб тўкила бошлайдиган барглар. Маънолари: 1) хазон бўлмоқ: сарғайиб қуриб қолмоқ; 2) азоб-уқубатда мажруҳ, ярқсиз бўлиб қолмоқ, адо бўлмоқ, маҳв бўлмоқ; 3) маҳв қилмоқ, йўқ қилмоқ, қирмоқ (ЎТИЛ, IV, 376).

Шеърятда хазон сўзининг коннотатив маъносидан бадий метафорада кўп фойдаланилади.

Хазон япроғи янглиғ гул юзинг ҳажрида сарғайдим (Заҳириддин Муҳаммад Бобур) - белги ўхшашлиги асосида маъно кўчиши, яъни домен манбадаги сифатлар мақсад соҳасига проекция қилинади.

Меваға етмай хазон бўлди баҳорим - орзулари ушалмасдан йўқотилган ёшлик (Алишер Навоий) – табиат ҳодисасига ўхшашлик асосида, яъни бош манба домендаги энциклопедик (фон) билимлар, шунингдек, унга хос инферент моделлар мақсад соҳасидаги билимларга кўчган.

Хазон елини кўрунг, чархи бевафоға боқинг (Алишер Навоий) - шоир яратаган когнитив модел муаллифнинг умрнинг қисқалиги, ҳаётнинг ўткинчилиги ҳақидаги аксиологик баҳони тилга кўчиришга хизмат қилган. Бу ерда боғлиқлик орқали маъно кўчиши, яъни денотат хазон билан куз фаслини аташ (метонимия) ва ел сўзи билан контекстда англашинувчи метафорик маъно ҳосил қилинмоқда.

Кўринади, хазон сўзи коннотатив маънолари бирмунча фарқ қилишга қармасдан, асосан салбий баҳо ташийди, аини патда тугаш, йўқ бўлиш, интиҳо ва шу билан боғлиқ ўлим ассоциатив занжирини эргаштириб келади ҳамда умр, ҳаёт, абадиятга зидланади.

“Хазон сипоҳига, эй боғбон, эмас монё” Алишер Навоий) мисраларида, агар сипоҳ сўзи қўлланмаса,

лексема ўзининг бош домендаги маънони англатади, яъни хазон – кузда баргларнинг тўкилишга боғбон қаршилиқ қила олмайди – бу табиий ҳолат, табиат ҳодисаси. Хазон семаси сипоҳ билан бирга қўлланганда коннотатив маъно касб этади, фреймнинг перифериядаги маъноси йўқ қилмоқ, қирмоқ – тирик организм ҳаётининг битиши, айнан казо/ўлим концепти маъносини англатади. Мазкур вазиятда бош манба доменнинг слотлари мақсадли домен слотларига кўчиши содир бўлади, аини пайтда, тилдаги метафорадан фарқли ўлароқ хазоннинг сипоҳ сўзи билан қўлланиши бадий метафорани вужудга келтиради. “Хазон сипоҳига, эй боғбон, эмас монё” - энди ўлим сипоҳи келганида Боғбон – боғнинг яратувчиси (Худо) унга қаршилиқ кўрсатолмайди, яъни ўлим ҳақ деган маъно англашилади. Хазон, сипоҳ, эмас монё лексик майдон ўлимнинг аксилқадрият сифатида баҳолашга хизмат қилади.

Ўлим шундай бир мулкки, султони жимлик,

Унда товуш чиқармай ётар фуқарон.

Қаро зулмат у жойда қилар ҳокимлик,

Шу туфайли ўлимнинг туғи ҳам қаро. (Максуд Шайхзода. Ғафурга хат)

Ушбу сатларда манба домендаги энциклопедик (фон) билимлар, шунингдек, унга хос инферент моделлар мақсад соҳасидаги билимларга кўчиши кузатилади, ўлим концептига хос ядровий тушунчалар билан боғлиқ ўрта перифериядаги фреймлар сукунат, зулмат, қора ранг ҳамда қўчимга хизмат қилган мулк концепти билан боғлиқ билимлар: султон, фуқаро, ҳокимлик, туғ ассоциатив занжири биргаликда аксиологик метафораларни вужудга келтиради.

Метафора олами образли кўриш воситаларидан бири сифатида, албатта, маданий омиллар билан бирга фалсафий, диний, давр мафқураси билан боғлиқ жиҳатларни акс эттиради. Ўтган аср шеърятдаги ўлим ва ҳаёт концептларига коммунистик мафқура таъсиридаги муносабат унинг аксиологик метафорасида ҳам намоён бўлади

Майли, сув ич, қаттиқ нон кемир,

Лекин, ёнсин қалбингда олов.

Фалсафанинг аччиғин смир,

Фароғат, тин сенга бўлсин ёв.

Тошга ҳам, рангга ҳам, сўзга ҳам

Ҳаёт нури билан бер жило.

Нашға эмас, ҳатто сенда ғам

Қалбга солсин ҳаётдан зиё. (Ойбек.)

Ҳаёт нур, зиё семалари билан эпифора туридаги метафора ҳосил қилади, яъни манба домендаги энциклопедик билимлар мақсад доменга кўчиши рўй беради: ёруғликнинг предметга (тош, ранг, жило) таъсири, мақсадли доменга кўчиб, ҳаётнинг яратувчилик, бунёдкорлик хусусиятини таъкидлайди. Аксиологик баҳо ҳаёт нури метафорасида ва у билан боғлиқ контекстда синтактик жиҳатдан тўсиксизлик мазмунидаги қурилмалар ҳамда фароғат, тин билан ёв семаларини ҳамда нашға билан ғам лексемаларини қаршилантириш орқали амалга ошади.

Ҳаёт аксиологемасининг материалистик талқинидаги юқорида кўриб ўтилганидек кўп учрайдиган абадий, мангу концептлари материалистик мазмундаги бадий метафораларда ҳам кузатилади.

Мангу ҳаёт мусиқасин Тинглаб-тинглаб қонолмайман...(Ойбек)

Ушбу парчада метафоранинг вужудга келишида эпифора ҳамда диафора усулларини кузатамиз: мангу мусиқа диафораси ҳаёт концепти билан конкретлашади ҳамда манба домендаги энциклопедик (фон) билимлар, шунингдек, унга хос инферент моделлар мақсад соҳасидаги билимларга ҳаёт мусиқасини тингламоқ

кўчади, ҳаётнинг абадийлиги ҳақидаги аксиологик мазмун мангу мусика, шунингдек, яна бир кўчим: манба домендаги ҳаракатнинг мақсадли доменга кўчиши тинглаб қонмаслик диафорасида воқеланади. Қонмаслик имплицит тарзда ифодаланган чанқоқлик семасининг ассоциатив майдонида мансуб бўлиб, мазкур контекста яширин ҳаётга чанқоқлик мазмунига ишора қилади. Шу тариқа мисралар ўзида ҳаётнинг абадийлигига ишонч ва унинг бунёдкор куч эканлиги ҳақидаги аксиологик баҳони ташийди.

Ҳаёт концепти билан боғлиқ аксиологик майдонда яқин периферияда ётувчи вақт, кун, ой, йил каби лексемалари, шунингдек, узоқ перифериядаги хотира, ўкинч, армон, видолашув сингари лексемалар кейинги авлод шеърлятида янгидан метафорик талқинларини топди. Вақтнинг меафорик кўчимига назар ташлайлик:

Мангу яшилликнинг маскани қайда,

Қайдадир хазонни билмаган баҳор?

Нечун у шарқираб оқувчи сойда

Чавандоз умрнинг қайтмас сеҳри бор?!

Нечун уйғонади қайтадан баҳор,

Нечун инсон умри бўлмаган такрор?.. (Абдулла

Орипов)

Ушбу шеърлий матнда ҳаёт ва ўлим билан боғлиқ ёйик метафора қўлланган. Мангу яшиллик, хазонни билмайдиган баҳор, чавандоз умр, қайтадан уйғонган баҳор ассоциатив занжир ҳосил қилади. Мазкур ўринда метафоранинг ҳар икки тури - эпифора ҳамда диафора кузатилади [4]. Мангу яшиллик диафораси ва хазонни билмайдиган баҳор эпифорасида манба домендаги белги мақсад доменига коннотация орқали кўчади, яшиллик - ёшлик, триклик ассоциациясини уйғотади - мангу сифати билан семантик бирлик ҳосил қилиб - тасаввурда абадий ҳаёт аксологиясини яратади, хазонни билмаган баҳор - манба домендаги асос билимлар мақсад соҳасидаги билимларга кўчади ва ҳар қандай баҳор хазон билан тугагани каби, инсон умри ҳам ўлим билан тугаши ҳақидаги фикр ифодасига хизмат қилади.

“Метафорага учраган нарса ёки ҳодиса мақсаднинг концептуал соҳаси (домен) ҳисобланиди, уни англаш учун фойдаланиладиган концептлар манба соҳасига тегишлидир. Мақсад ва манба ёки турли таксономик доменларга мансуб бўлади ва прагматик функцияси жиҳатидан ўзаро боғланмайди, ёки турли вазифавий доменларга тегишли бўлади” [5].

Чавандоз умр эпифорик метафорада мақсад ва манба турли функционал доменларга мансуб. Бу манба

домен чавандоз лексемасининг ядроси – от чоптириш, улоқ чопиш, отда ўйнаш санъатини эгаллаган одам (ЎТИЛ, IV, 444)

мақсад домени ҳаётнинг қисқалиги, тез ўтиши ҳақидаги фикр ифодасига хизмат қилади. Манба домендаги чопиш, чоптириш ва умрнинг тез ўтиши ҳаракат ўхшашлиги асосида метафорик мазмун касб этади.

Бадий метафоралар вужуга келишида, юқорида кўриб ўтганимиздек, фалсафий, мафкуравий, диний, маданий омиллар билан бир қаторда муаллифнинг шахси, дунёқараши, субъектив нигоҳи, ҳатто уни қуршаб турган маҳаллий колорит ўз муҳрини босади. Абдулла Ориповнинг умрни чавандозга қийслашида воҳа кишиларига хос таассурот ва ассоциациянинг таъсири бор деб ўйлаймиз.

Ўзбек модерн шеърлятида ҳаётнинг модернистча талқинларига асосланган ўзига хос метафораларини учратамиз.

Қирқ кун чилла қуриб ўтирдим мафтун.

Сенга -

Кундай балкиб келгувчи баёт.

Бор-йўғимдан ажраб қолсам —

Бир ютум,

Севги бер илоҳий, жаноби ҳаёт. (Абдували

Қутбиддин)

Ҳаёт концептига нисбатан азиз, лазиз, ширин каби эпитетлар кўп қўлланади, лекин бу ўринда муаллиф ҳаётга инсонга хос хусусият бахш этади, мазкур мисраларда домен - жаноб лексемасининг ядроси ўтмишда ва ҳозир кишиларни, амалдор ёки давлат арбобларини улуғлаш (ЎТИЛ, II, 72). маъноси мақсадли домен - ҳаёт концептига кўчади ва аксиологик баҳо юқори даражада бўёқдорлик касб этади. Метафорик мазмун мақсадли домен инферент моделларига ҳам кўчади, бор-йўғидан ажралиш, бир ютум сеvgи сўраш жаноби ҳаёт метафораси ҳосил қилган ассоциатив лексема ва кўчимларни эргаштириб келади.

Метафора дунёни муайян бадий когнитив моделларда англаш ва тасвирлаш усулидир, тил орқали ифодаланган бадий матнда улар муаллифнинг ўзига хос когнитив услубини шакллантиради. Шу билан бирга, метафораларнинг аксиологик характери баҳо ва муносабатни аниқ, таъсирчан ва бетакрор воқелантириш имконини беради.

АДАБИЁТЛАР

1. Скляревская Г. Н. Метафора в системе языка. СПб., 1993. – С. 35—37.
2. Lakoff, G., & Turner, M. (1989). More Than Cool Reason: A Field Guide to Poetic Metaphor. Chicago: University of Chicago Press. p. 63-64.
3. Алп Эр Тунга ёки Афросиёб жангномаси. – Тошкент: Чўлпон нашриёти. 1995. –Б. 12.
4. Ф. Уилрайт. Метафора и реальность. / Теория метафоры. - М., 1990. – С. 82-119.
5. Тимофеева, Ольга Вячеславовна. Метафора в художественной репрезентации мира: на материале произведений английских и американских писателей Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата филологических наук Москва 2011. – С.6.
6. Захириддин Мухаммад Бобур. Бобурнома. –Тошкент: “O‘qituvchi” нашриёт-матбаа- ижодий уйи, 2008. Б. 5.
7. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 1-жилд –Тошкент: Ўзбекистон ССР "Фан" нашриёти, 1987. –Б. 333.
8. Oybek. Mukammal asarlar to‘plami. (19 jildlik) –T.: Fan, 1975-1982
9. А. Орипов. Йиллар армони. Шеърлар ва дostonлар. – Тошкент: Фафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1987. – Б. 42.
10. А.Кутбиддин. Хаёл кечаси (Қайғу пичоғи). –Тошкент: Ёзувчи, 1994. – Б. 15.



Нодир ҲАМРАЕВ,
ТошДЎТАУ мустақил изланувчиси
E-mail:nodir_hamrayev@nbk.ru

Профессор, ф.ф.д. З.Т.Холманова тақризи асосида

TELEVISION – AS A FACTOR OF EDUCATION

Annotation

This article discusses the use of television as an educational tool, the broad distribution of the process approach of television, and the function of providing visualization. The fact that television is an important tool in education is highlighted in two ways. The first is approached as a direct educational factor. This includes TV programs and educational programs on the basics of science. It was noted that television education is a tool used in foreign experience, tested in national pedagogy. It was noted that television education has a special role in mastering the basics of science, the formation of forms of competence, the development of independent, creative work and thinking.

Keywords: Television, television, television education, educational efficiency, quality of education, process approach, foreign pedagogy, national pedagogy, competency approach, innovative technology.

ТЕЛЕВИДЕНИЕ – КАК ФАКТОР ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация

В данной статье рассматривается использование телевидения как образовательного инструмента, широкое распространение процессного подхода к телевидению и функция обеспечения визуализации. Тот факт, что телевидение является важным инструментом в образовании, подчеркивается двумя способами. Первый рассматривается как непосредственный образовательный фактор. Это и телепрограммы, и образовательные программы по основам науки. Отмечено, что телевизионное образование является инструментом, используемым в зарубежном опыте, апробированном в отечественной педагогике. Отмечено, что телевизионному образованию отводится особая роль в овладении основами наук, формировании форм компетентности, развитии самостоятельной, творческой работы и мышления.

Ключевые слова: Телевидение, телевидение, телевизионное образование, эффективность образования, качество образования, процессный подход, зарубежная педагогика, отечественная педагогика, компетентностный подход, инновационные технологии.

ТЕЛЕВИДЕНИЕ – ТАЪЛИМ-ТАРБИЯ ОМИЛИ СИФАТИДА

Аннотация

Ушбу мақолада телевидениедан таълим воситаси сифатида фойдаланиш, телекўрсатувларнинг жараёни ёндашувни кенг ёйиш ва кўргазмалиликни таъминлаш функцияси ёритилган. Телевидениенинг таълим-тарбияда муҳим восита, омил эканлиги икки жиҳатдан ёритилган. Биринчиси – бевосита таълим-тарбия омили сифатида ёндашилган. Бунда фан асосларини ўзлаштиришга доир телекўрсатувлар, таълим дастурлари назарда тутилган. Телевизион таълим хориж тажрибасида фойдаланилган, миллий педагогикада синалган восита эканлиги таъкидланган. Телевизион таълимнинг фан асосларини ўзлаштиришда, компетенция кўринишларини шакллантиришда, мустақил, ижодий ишлаш ва тафаккурни ривожлантиришда алоҳида аҳамиятга эга эканлиги қайд этилган.

Калит сўзлар: Телевидение, телекўрсатув, телевизион таълим, таълим самарадорлиги, таълим сифати, жараёни ёндашув, хориж педогогикаси, миллий педагогика, компетенциявий ёндашув, инновацион технология.

Кириш. Таълим сифатини таъминлаш шу тизимнинг фаолият юритиш даражасини, унга бўлган талаб ва эҳтиёж ҳамда эътирофни белгиловчи асосий мезондир. Таълим соҳасида амалга оширилаётган ислохотлар педагоглар жамоаси олдида муҳим талабларни қўймоқда. Таълим мазмунини такомиллаштириш, рақобатбардош қадрлар тайёрлаш, таълим-тарбия жараёнини ташкил этишда компетенциявий ёндашув, таълимнинг инновацион технологиялари ва ахборот-коммуникацион технологиялардан унумли фойдаланиш, ҳамкорлик педагогикаси асосида фаолият юритиш, таълим сифати, самарадорлигини оширишда инновацион методларни ишлаб чиқиш давр талабига айланди.

Ҳозирги кунда телевидение дунё миқёсида таълим воситаси сифатида эътироф этилмоқда. "...Ижтимоий-сиёсий ахборот алмашувида, эстетик ва ахлоқий таълим-тарбияда телевидениенинг ўрни катта. Телевидение ўзидан илгари вужудга келган оммавий ахборот воситаларидан фарқли ўлароқ ахборотни тезроқ, ишончлироқ ва ҳиссиётга бойроқ тарзда таркатади" [8]. Телевидение дунё маданиятида таълим тизимини

оммалаштирувчи восита, маънавий омил сифатида қаралади. Телевидениега таълим воситаси сифатида муносабатда бўлиш инновацион ёндашув сифатида баҳоланади. Телевидениенинг таълим-тарбия омили сифатидаги вазифаси иккига ажратилади: 1. Бевосита таълим -тарбия омили. 2. Бавосита таълим-тарбия омили.

Методлар. Мақолани тайёрлашда таълим тизимини ривожлантиришга доир қарашлардан, услубиятга доир тадқиқот манбаларидан, киёсий таҳлил, компонент таҳлил усулларида фойдаланилди.

Телевидение - бевосита таълим - тарбия омили. Телевидениенинг бевосита таълим-тарбия воситаси эканлиги телеканаллар орқали узатилаётган таълимий дастурларда, турли фан асосларини ўзлаштиришга қаратилган илмий кўрсатувларда ўз ифодасини топади. Бугунги кунда интернет орқали ўқитиш, электрон таълим оммалашиб бормоқда. Телевидение орқали таълим бериш янада қулай ва самаралидир. Хориж таълим тизимида телевидениедан ўқитиш воситаси сифатида кенг фойдаланилаётганлигини таълим самарадорлигини оширувчи восита сифатида баҳолаш мумкин [2].

Чет тили ўқитувчилари учун визуал медиа воситалари аллақачон машғулот жараёнининг кўшимча компонентига айланиб улгурди. Мавжуд тадқиқотларда келтирилган мисоллар телевидениедан таълим соҳасида фойдаланишнинг афзалликларини намён этади [7]. Телевизион таълим хориж тажрибасида фойдаланилган, миллий педагогикада синалган восита ҳисобланади.

Кўриш - бу ишониш, шу билан бирга эслаб қолиш ҳам демакдир. Инсон хотираси кўрганда кўпроқ маълумотни эслаб қолади. Ҳам кўриб, ҳам эшитишда икки баробар кўп ҳажмдаги маълумот хотирага муҳрланади. Инсоннинг эслаб қолиш қобилияти тадқиқотчилар фикрига кўра қуйидагича ҳулосаланган [5]: ўқиганда - 10%; • эшитганда - 20 %; кўрганда - 30%; кўрганда ва эшитганда – 50% маълумот эслаб қолинади.

Телевизион таълим жараёнида оғзаки ва ёзма нутқ компетенциясини шакллантиришга аҳамият бериш керак.

Ёзма нутқ тафаккурни ўстиришга хизмат қилади. Имло қоидаларини ўзлаштириш юзасидан кўрсатувлар ташкил қилиш, ҳусниҳат дарсларини жорий этиш, нутқ ўстириш, мутолаа соатларини оммалаштириш ёш авлод саводхонлигини оширишда, тафаккур салоҳиятини юксалтиришда муҳим аҳамият касб этади. Телевизион таълимни жорий этиш телевидениенинг нуфузини оширишга ҳам хизмат қилади.

Саводхонликка бағишланган кўрсатувлар, она тили таълимига бағишланган сабоқлар, тарих зарвараклари ҳақидаги тасвирлар фан асосларини ўзлаштиришга амалий ёрдам беради.

Телевидениенинг бавосита таълим-тарбия омили эканлиги телекўрсатувлар, бадиий фильм, ҳужжатли лавҳа ва бошқа турдаги маданий-маърифий кўрсатувларнинг ёшлар онгига таъсири, ахлоқий-маънавий, эстетик маҳсули билан белгиланади. Кўп миллатли Ўзбекистонда оммавий ахборот воситалари маълумот етказишда, маънавий-маърифий тадбирлар тарғиботида муҳим ўрин тутади [1].

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2015 йил 8 ноябрдаги "Мустақил телерадиоканалларни ислоҳ қилиш ва ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги Фармони [9] билан мустақил телерадиоканалларни янада ривожлантириш ва ислоҳ қилиш, ижтимоий-сиёсий ва социал-иқтисодий ислохотларни янада чуқурлаштириш, аҳоли ҳамда жамиятнинг ҳар томонлама ҳолис ахборотга бўлган талаб - эҳтиёжларини қондиришда мамлакатимизнинг электрон оммавий ахборот воситалари ролини оширишда ҳам нодавлат телеканалларнинг хизматлари алоҳида бўлмоқда. Бундай шароитда барча фаолиятда биринчи мезон сифатида ходимларнинг давлат тилини билиш даражаси, ўзбек тилининг нуфузини оширишга бўлган иштиёқи, тилга муносабати белгиланиши керак. Ҳар бир мутахассис, айниқса, раҳбарлик лавозимидаги шахслар она тилида ўз фикрини раво, лўнда ва аниқ ифода қилиши лозим.

Таҳлил ва натижалар. Телекўрсатувларнинг маънавиятга таъсир кўрсатадиган биринчи жиҳати - уларнинг номланишидир. Яхши ва пухта ўйлаб топилган ном кўрсатув маънасини, вазифасини рўй-рост акс эттириб туради. Ўзбекистон телевидениесига фаолият юритувчи телеканаллардаги information кўрсатувлар, янгилар, дастурлар номлари бир-бирига ўхшаб кетади, лекан айнан эмас. Улар орасида "Давр" ёки "Янги давр" (Ёшлар), "Жаҳон" (Ўзбекистон), "Замон" (Севимли), "Бу кун" (ЗўрТВ), "Ахборот-24" (Ўзбекистон-24), "UzReport news" (УзРепорт) кабилар дунёда бўлаётган янгиларни тезкор улаштириш мақсад қилган. Буни вилоятлар телеканалларида ҳам кузатиш мумкин: "Худуд" (Жиззах), "Андижон ахбороти", "Марказий студия" (Менинг юртим) номида эса етказилаётган ахборотларнинг аниқлигига кўпроқ ургу берилиши, уларнинг ҳаммаси эътибор

марказида бўлиши, чуқур таҳлил этилишига ишора қилинган.

Ўзбекистон телеканалларида эфирга узатиладиган, дастлабки тонгги дастурлардан ҳисобланмиш "Ассалом, Ўзбекистон" ҳамда Зўр ТВ да намойиш этилувчи замонавий-хусусий кўрсатувлардан "Эрталабдан салом" кўрсатувлари номлари эрталабки кўришиш ва янги тонгнинг бошланиши муносабати билан бўлса, "Янги кун" (Ёшлар телеканали), "Севимли кун" (Севимли) кўрсатувлари янги куннинг бошланганлиги, уни хайрли бошлашга тилак билдириб қўйилган. "Омон-омон" (Менинг юртим), "Ширчай", "Ҳорманг" (Миллий кўрсатувлари номлари эса халқимизнинг кичик анъаналарини ўзида акс эттирган. Кўрсатув номларида тонгданок кимнидир учратган пайтида кишиларнинг "Омонмисиз?" дейиши, кимнидир ишлаётганини, меҳнат қилаётганини кўриб "Ҳорманг" деган тасалли сўз айтишлари, шунингдек, эрта тонгдан (асосан, эрталаб) ширчай (сутли чой) ичиш анъанаси акс этган.

Бугун марказий телеканаллар орасида "Zo'rTV", "My5", "Milliy" ва "Sevimli" каби хусусий телеканаллар бор. Улар орасида "Sevimli" телеканали кейинроқ ташкил этилган бўлса-да, бугун ўзбек телеканаллари рейтингда юқори поғоналарни эгаллаб турибди. Бунинг сабаби шундан иборатки, телеканал ранг-баранг дастурларни омма эътиборига ҳавола қилиб келмоқда.

Томошабинларнинг диққатини торттиш учун яратилаётган янги лойиҳалар, ташкил этилаётган кўрсатувларнинг, аввало, номланиши эътиборни тортадиган даражада жозибадор, шу билан бир қаторда давлат тили меъёрларига мос бўлиши керак. Бошқа хусусий телеканалларга солиштирганда "Севимли" каналида ўзбекча номланган дастурлар кўп учрайди. Телекўрсатувларнинг номланиш омиллари, услубий жиҳатлари, мантиқий мувофиқлигини "Севимли" телеканалларидаги кўрсатув номлари мисолида таҳлил қиламиз.

Ушбу каналдаги кўрсатувларни номланиши ва мазмунига кўра қуйидаги семантик гуруҳларга ажратиш мумкин:

1. Кулинария мавзусига бағишланган лойиҳалар: "Менинг қайнонам генерал", "Ошхонада гаплашамиз", "Саховат шоу" каби.
2. Гўзаллик тарғиботида бағишланган лойиҳалар: "Бугун бошқачасиз", "Стилистлар жанги".
3. Хотин-қизларни оилага тайёрлашга оид лойиҳалар: "Идеал она", "Келгинди келин" каби;
4. Аёлларга психологик кўмак берувчи лойиҳалар: "Қафасда", "Занжир", "Ўйдаги гап" каби.

Кўрсатувларнинг 90% маданий-маърифий, илмий-маънавий кўрсатувлардир. Ушбу "Ўзбекистон тарихи" канал кўрсатувлари рейтингга қараб эмас, айнан савияга қараб ажратилади. Каналда бешта таҳририят ўз фаолиятини олиб боради, аммо кўрсатув номлари чет тилидан қилиб келган, тилимизда қотиб қолган сўзлардан тузилганлиги кўнгилни бироз хира қилади: "Этно", "Эврика", "Маҳзан". Бундай номларнинг қўйилиши, эҳтимол, жамият учун унчалик хавф туғдирмас, аммо "Thye over up", "Thye over up kids", "Realxit", "MTV shows", "MTV shows kids", "Offside", "Timeout", "Akt'yorkids" кўрсатувлари, шунингдек ҳар хил "party"лар ўзбек тили нуфузига, ўсиб келаётган ёш авлоднинг маънавиятига салбий таъсир кўрсатади. Мана шундай номларнинг қўйилишини назорат қилиш лозим.

Хулоса. Кўрсатув номи ва мазмуни учун муаллифлар масъул ҳисобланади. Information дастурлар ҳам, гарчи бошқа мамлакатларда ҳам information кўрсатувларга формати ўхшаш бўлгани билан муаллифлик кўрсатувлари қаторига қиради. Боиси ҳеч

қайси давлат бошқа бир давлат телевидениесидаги информатсион кўрсатувни тўлалигича ўзлаштиролмайдиганлиги, янгиликларни улашиш аспекти ҳар бир давлат телевидениеси учун асосий аспектдир. Кўрсатувнинг сифати, таъсирчанлиги, қўлланмаган ғояларни ўртага ташлаши муаллиф маҳорати билан боғлиқ. Кўрсатувнинг оммалашуви, асосан, унинг таъсирчанлиги билан белгиланади. Кўрсатувнинг таъсирчанлигини оширишнинг бир қатор омиллари мавжуд бўлиб, улардан айримлари қуйидагича:

“1.Кўрсатув йўналган томошабин аудиториясини билиш.

2.Башловчининг шарҳи.

3.Ифодали ҳолатнинг борлиги.

4.Телевидениенинг ўзига хос хусусиятлари ва ифодали воситалардан унумли фойдаланиш” [6].

Кўрсатувнинг номи аудиторияни жалб қилувчи омил ҳисобланади. Шунинг учун оғзаки ҳолда номни доимо тўғри танлай билиш керак.

Маданият, маърифат тарқатиш билан шуғулланувчи оммавий ахборот воситалари миллий қадриятларни улуғлаши, жамиятни ҳам бунга даъват этиши, ўз томошабинларига бу борада намуна бўлиши керак. Қадриятларнинг энг каттаси улуги тилдир. Агар мамлакатнинг юзи бўлиб турган телевидение давлат тили қондаларига риоя қилмаса, бу катта ижтимоий муаммоларни келтириб чиқаради. Шунинг учун нодавлат телеканалларнинг номланиши, улардаги рекламаларнинг мазмунини тартибга солувчи аниқ қонун ишлаб чиқиши керак. Ҳеч бўлмаса, мазкур жараёни тартибга солувчи қонун ости ҳужжатлар қабул қилиниши керак. Телевидение таълим омили сифатида миллий тилининг нуфузини оширишда, таълим самарадорлигини таъминлашда муҳим аҳамиятга эга.

Таклиф ва тавсиялар. Фан ва таълим учун алоҳида телеканал ташкил қилиниши ва юқорида айтиб ўтилган телеканалларда олиб борилаётган машғулотларни жамлаш, қатъий жадвал асосида тартибга солиш керак.

Телевидение орқали таълим дастурларини ташкил этишда кадрлар билан таъминлаш муаммосини ҳал этиш зарур. Бунинг учун телевидениега мактаб, академик лицейлар ва олий таълим муассасаларидан тажрибали, билимли ва компетентли ўқитувчиларни жалб этиш, уларга етарли шарт-шароитларни яратиб бериш лозим. Ҳар бир фан учун алоҳида ўқув кабинетларини ташкил этиш, бу кабинетларни компьютер технологиялари, интернет ва бошқа мультимедиа воситалари билан таъминлаш ижобий натижалар учун хизмат қилади.

Телевизион таълимни ташкил қилиш бўйича берилган барча таклифлар ўрганилиши, аynикса, уни молиялаштиришга катта эътибор талаб қилинади. Молиялаштириш маҳаллий бюджетлар, маҳаллий ва халқаро фондлар, рекламадан тушадиган маблағлар ҳисобидан амалга оширилади.

Телевидение орқали таълим беришда ҳар бир соҳа бўйича “Академик соат”лар сериясини ташкил этиш муҳим аҳамиятга эга.

“Таълим ва тарбия” телеканалини ташкил этиш, ундаги кўрсатувларни умумтаълим босқичи, академик лицейлар, олий таълим тизимидаги фанлар таълимига мувофиқлаштириш лозим. Илмий йўналишдаги қизиқарли фан соатларини ташкил этиш, “деворсиз мактаб” типидagi дарс машғулотларини олиб бориш муҳим аҳамиятга эга. Мактаб, лицей, университет доирасидаги кўп йиллик тажрибага эга педагогларнинг маҳорат дарсларини ташкил этиш, уларнинг тажрибасини оммалаштириш ижобий натижалар беради.

АДАБИЁТЛАР

1. Абдуазизова Н. (2003). Кўп миллатли Ўзбекистонда оммавий ахборот воситалари масаласига доир (Ўзбекистонда миллатлараро муносабатлар: тарих ва ҳозирги замон. (илмий-амалий анжуман)– Тошкент: ЎзМУ.
2. Durbin, C. (2000). Moving images in geography, moving images in the classroom: A secondary teachers' guide to using film and television. London: British Film Institute.
3. Dhingra, K. (2003). Thinking about television science: How students understand the nature of science from different program genres. Journal of Research in Science Teaching, Vol. 40, No. 2, pp 234-256.
4. Дўстмуҳаммад Х. (2007). Журналистнинг касб одоби муаммолари. –Тошкент.
5. Marshall, J.M. (2002). Learning with technology: Evidence that technology can, and does, support learning. White paper prepared for Cable in the Classroom.
6. Muhammetov M. Atamuradova Sh. (2017). Televideniye va radio rejissurasi. –Toshkent.
7. Fisch, S.M. (2004). Children's learning from educational television: Sesame Street and beyond. Mahwah, NJ: Lawrence Erlbaum Associates
8. Xudoyqulov, M. (2013). Telejurnalistika asoslari. –Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti.
9. Мустақил телерадиоканалларни ислоҳ қилиш ва ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида. (2015). Ўзбекистон Республикаси Президенти Фармони.
10. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. II. (2007). –Тошкент, 2007.
11. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. IV. (2008). –Тошкент, 2008.



UDK: 347.78.034

Mohidil EGAMBERDIYEVA,
O'zDJTU tayanch doktoranti
E-mail: mokhidil_dadamirzayeva91@gmail.com
O'zDJTU professori, filologiya fanlari doktori D.Teshaboyeva taqrizi asosida

MADANIYATLARO MULOQOTDA NUTQIY ETIKETNING ASOSIY KOMPONENTLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada nutqiy etiket madaniy minimumning tarkibiy qismi sifatida muhokama qilinadi. Madaniyatlararo muloqot va tilni o'rganishda nutq odobi shakllarini tanlash alohida rol o'ynaydi. Nutq odobining kelib chiqishi til tarixining qadimiy davriga borib taqaladi. Insonning nutq faoliyati, arxaiik jamiyat a'zolari nuqtai nazaridan, odamlarga, hayvonlarga va dunyoga bevosita ta'sir qilishi mumkin; bu faoliyatni tartibga solish, birinchi navbatda, muayyan hodisalarni keltirib chiqarish yoki aksincha, ulardan qochish istagi bilan bog'liq.

Kait so'zlar: nutq odobi, nutq odobi formulalari, muloqot harakati, nutq odobi talablari, arxaiik jamiyat.

ОСНОВНЫЕ КОМПОНЕНТЫ РЕЧЕВОГО ЭТИКЕТА В МЕЖКУЛЬТУРНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ

Аннотация

В данной статье рассматривается речевой этикет как составляющая культурного минимума. Выбор формул речевого этикета играет особую роль в изучении межкультурного общения и языка. Истоки речевого этикета лежат в античном периоде истории языка. Речевая деятельность человека, с точки зрения членов архаического общества, может оказывать непосредственное воздействие на людей, животных и мир; регуляция этой деятельности связана, прежде всего, со стремлением вызвать те или иные события или, наоборот, избежать их.

Ключевые слова: речевой этикет, формулы речевого этикета, акт общения, требования речевого этикета, архаическое общество.

MAIN COMPONENTS OF SPEECH ETIQUETTE IN INTERCULTURAL COMMUNICATION

Abstract

This article discusses speech etiquette as a component of the cultural minimum. The choice of formulas of speech etiquette plays a special role in the study of an intercultural communication and language. The origins of speech etiquette lie in the ancient period of the history of language. Human speech activity, from the point of view of the members of the archaic society, can have a direct impact on people, animals and the world; regulation of this activity is connected, first of all, with the desire to cause certain events or, on the contrary, to avoid them.

Key words: speech etiquette, formulas of speech etiquette, act of communication, requirements of speech etiquette, archaic society.

Introduction. Speech etiquette is included in the linguistic cultural picture of the world. Possession, understanding and choice of formulas of speech etiquette depends on the behavior of the people. The choice of formulas of speech etiquette plays a special role in the study of a foreign language. Without speech etiquette it is impossible neither to enter into communication, nor to maintain communication, nor to complete it. Speech etiquette is a set of requirements to the form, content, order, character and situational relevance of statements adopted in this culture. Speech etiquette, in particular, includes words and expressions used by people to say goodbye, requests, apologies, accepted in various situations, forms of treatment, intonation features that characterize polite speech, etc.

Literature review. The present international situation causes the involvement of a large number of experts from various fields of science and technology in the direct implementation of International Relations, accompanied by a significant expansion and growth of the cultural and business contacts. It is impossible to name a linguistic culture in which the etiquette requirements for speech activity would not be presented. According to Cambridge dictionary etiquette is the set of rules or customs that control accepted behavior in particular social groups or social situations [1]. Etiquette of speech communication plays an important role for successful actions of people in society, their personal and professional growth, building strong family and friendly relations. English speech etiquette is important not only for the English but for all learners of English as a foreign language. English speech

etiquette is original and has its own rules and regulations, which sometimes differ substantially from rules and norms of speech etiquette of another language. This leads to the fact that the very cultured Russian people may seem impolite among English if communicating with them in English, not fluent in English speech etiquette. Likewise, the English gentleman may seem impolite in communicating in the Russian language and Russian cultural, if he is not trained in the Russian speech etiquette [2]. The problem of communicative and cultural competence achieved on the basis of acquiring the strategies of intercultural communication and knowledge in the spheres of native and foreign cultures are of a great importance nowadays. Mutual acquiring of etiquette speech patterns by Russian and English speaking people in the process of cultural integration may help to reduce the risk of communication failure.

There is a set of spectrums of the functions of language communication. These spectrums help to establish the contact between the speakers; attract the attention of the listener; help to show respect; help to define the status of the communication (formal, informal etc.); form an auspicious environment for the communication, etc. Philips called the culture of everyday etiquette and culture and its expressions of right and duties through norms and communications as "invisible culture". Those, who study foreign languages, should be aware of the sociocultural rules and demands of the target language. They should know, how to use the meta communication tools, and how those tools can affect the communication. Without this awareness, the students will not

be able to communicate in the foreign language as expected. Culture and communication are inseparable. In communication, culture speaks, decides who talks to whom, about what, and how. "It also helps to determine how people encode messages, the meanings they have for messages, and the conditions and circumstances under which various messages may or may not be sent, noticed, or interpreted... Culture...is the foundation of communication." [6]

Methodology. That verbal communication is different for different cultures is clear. But there are many different non-verbal communication signs which in different cultures have opposite meanings. Many of us know that in most parts of Europe if one bows his or her head then the person wants to communicate counteractive meanings: "Yes". But the same nod means "No" in Bulgaria. Something similar can be seen with some examples of gestures in Ghana and Russia or Hungary. The waving gesticulation in Europe means "bye-bye", while in Ghana it means the opposite "come". These really demonstrate that foreign language teaching should have components of cultural teaching, because no communication can be done without culture.

Everybody knows the famous quote of Judith Martin: "Etiquette is all human social behavior. If you're a hermit on a mountain, you don't have to worry about etiquette; if somebody comes up the mountain, then you've got a problem. It matters because we want to live in reasonably harmonious communities." It is undeniable that the public at any time of its existence, fragmented, diverse and every word is characterized by its own set of etiquette means. When using expressions of speech etiquette, we perform such speech actions as greeting, gratitude, etc. Since a person began to perceive himself as an integral part of society, the system of behavioral norms and external forms of expression of relationships between its members has been continuously improved in society. One of these forms is a greeting. Its main communicative function is the expression of benevolence and readiness, if necessary, to open the act of communication [8].

In the English-speaking society between cultural people communication is conducted in three levels of politeness: official, neutral and familiarity. Each level corresponds to the courtesy of his own style of speech, and therefore all the polite words and expressions can be classified according to stylistic features and referred to formal, neutral and familiar style of speech [2]. Official level of civility implies a polite communication when the predominant importance of any age, gender or personal dignity and social status of the companions and their positions. The official level of politeness is the standard in institutions, organizations, business, education, health care etc. Social conditioning actions, deeds and intentions expressed by interviewers in the style of their verbal behavior which is made differently than verbal behavior at home, friendly circle, or accidental contact with a stranger. The deviation from the official level of civility in a formal setting is perceived as a clear disrespect to the other part and may lead to a conflict of interlocutors and even break their formal relations.

Therefore, it is necessary strictly to follow the official level of politeness, where it is needed and provided by etiquette. At the neutral level of polite communication is carried out between strangers and acquaintances among those who are not in official relations or familiarity. Familiar level of politeness characteristic of communication in the family related terms as well as between friends and buddies. Let's explain the presence of levels of courtesy and styles of speech with examples. We assume that the Englishman's clock has stopped and he is forced to know the time. Turning to his friend, the Englishman asked: - What time is it, Tom? The question "What time is it?" corresponds to the familiar style of speech and appropriate to the level of courtesy familiar - in the family, related terms, between friends and buddies. To a

familiar level of courtesy, this question - "What time is it?" is not polite and sometimes it is even rude on the neutral level of politeness when the Englishman asks the question not his friend but an unknown passer-by [3].

For an unknown passer-by should consult with a polite request: - Excuse me, could you tell me the time, please? - Sorry, could not you say what time if you please? A polite request: "Excuse me, could you tell me the time, please?" - corresponds to a neutral level of civility and a plain style of speech, but at the level of familiarity courtesy, in family or friendly circle: "Excuse me, could you tell me the time, please?" seems unnatural in tone or artificially-rant. In a formal setting, at the official level of courtesy, the question of time may be totally out of place if, for example, the subordinate will go into the office of the chief only in order to clarify his time. However, at the official level of politeness issue of time is possible if a subordinate chief offers to synchronize watches in order to operate smoothly on a plan that painted by the minute. Another example: winter, ice-covered ground. The woman has slipped and fell. Depending on who helped her up - the police, a man or a bystander - respectively and will be addressed to her speech: - Are you all right, madam? - Politely inquired the policeman. - Are you all right, darling? - Beware caring husband. - Are you all right? - With a stranger asks a passerby. In the above situation, all three persons - the police, a man and a passerby would ask the woman about the same, but would refer to it in different ways.

Language etiquette is a part of linguistic routines which Agyekum (2005:1) defined as "the sequential organizations beyond a sentence either as activities of one person or as the interaction of two or more people". Many of these routines are used in our everyday life during interactions. As a student starts learning a foreign language, he or she is introduced to the etiquette of that language during the first lessons because most of the time conversations start with greetings, introduction, etc. All these are elements of the etiquette of a culture, though they can differ in the studied and target languages. Dzameshi, who undertook a study in Ghana with Ewe (it is a local language in Ghana, West-Africa) and English speakers, confirmed that different cultures view politeness differently. Also, in different cultures different factors require politeness [2].

Language or speech etiquette is a holophrastic system. The elements of this system generally may be realized at different language levels.

- On the lexical level these are the phraseologies, special words and expressions, address forms such as Thank you, excuse me, See you, Mr. etc..
- At the morphological level of question forms, imperative forms can be used to express politeness such as Could you give me your pen, please? - Give me your pen, please. Also, in address forms in many languages, such as Russian or Hungarian and others, one can use plural instead of singular (T/V system - called after the French Tu and Vous).
- At the stylistic level it is in the request of literature, cultural speech; rejection of use of abusing words etc.
- At the level of intonation, one can see it in the use of polite intonations. For example some phrases could have different meanings depending on the intonation. The same sentence can be a direct order or a polite request.
- At the level of orthoepy the request is not to clip the words (Give me Gimme)
- At the level of organization of communication, it is not polite to interrupt the interlocutor and to cut into other's conversation. The above characteristics are general of language etiquette.

On the other hand, speech etiquette is on the basis of each culture and language, therefore it can be different. It is important for all foreign language students to know the differences between native and studied languages. In English

for example Dear is used in official letters as address. While in Russian or in Hungarian it is a very familiar form Дорогой/Дорогая – Drága/Kedves. In England or USA for the question How are you the answer is likely to be: Fine, Good etc. The answers Bad or Not so good are not the requested polite answers, while in Russia the same question should be answered neutrally Normal, Nothing etc (Нормально, Ничего).

Conclusion. As has been shown, teaching culture and intercultural communication as part of teaching foreign

language is very important and the dynamic nature of culture should not be lost in the process. It helps all participants to pick up the intercultural communication and speech etiquette as well. If the socio-cultural competence of the learner is well established and developed during the language teaching process, one can be almost equal with the native speakers in the cultural aspects. But at the same time it should be noted that, although etiquette as part of culture is fixed the norms are always changing.

REFERENCES

1. Anderson, A. J. (2006): Request forms in English in Ghana. *Legon Journal of Humanities*, Vol. XVII, pp. 75-104
2. Dzameshi, A. (2001) A Cross-Cultural Comparison of Requesting Behaviour in Ewe, British English and Ghanaian English. University of Reading, Reading.
3. Formanovskaya, N. I. (1982): Употребление русского речевого этикета. *Русский язык*, Moskva.
4. Genc, B. & Bada, E. (2005): Culture in Language Teaching and Learning. *The Reading Matrix*, 5 (1), pp. 73-84.
5. Henrichsen, L. E. (1997): Understanding Culture and Helping Students Understand Culture.
6. Kramsch, C. (1993): Context and Culture in Language Teaching. Oxford University Press, Oxford. PHILIPS, S. U. (1983): *The Invisible Culture: Communication in Classroom and Community on the Warm Springs Reservation*. Longman, New York.
7. Lessard-Clouston, M. (1997): Towards an Understanding of Culture in L2/FL Education. In: Ronko, K. G. (Ed.): *Studies in English*, 25, Kwansei Gakuin University, Tokyo, pp. 131-150.
8. Керекеша, И. А. Speech etiquette as a component of the cultural minimum / И. А. Керекеша. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2019. — № 7 (245). — С. 259-260.



Husniddin ESHONQULOV,
BuxDU dotsenti, filologiya fanlari doktori
E-mail: husniddin.eshonqulov72@mail.ru
Azimjon HAMIDOV,
BuxDU o'qituvchisi
E-mail: hamidov_azimjon@mail.ru

SamDU professori, filologiya fanlari doktori M.Q.Muhiddinov tahriri ostida

ALISHER NAVOIY G'AZALIYOTIDA MUALLIF TAHRIRI: SHAKL VA MAZMUN MUKAMMALLASHUVI

Аннотация

Maqolada Alisher Navoiy g'azallarida muallif tahriri masalasi "G'aroyib us-sig'ar" "Debocha"si misolida o'rganilib, shoirning mustaqil baytlardan tuzilgan g'azallari ustida olib borgan tahriri xususida so'z yuritiladi. Vazn, qofiya, radif singari poetik unsurlar bunday nazm namunalari kompozitsion butunligini ta'minlashga xizmat qiluvchi g'azallar tahririda ulug' shoir baytlarning o'zaro almashishiga alohida e'tibor qaratgani tahlillar asosida dalillanadi. Muallif tahriri natijasida g'azal mazmunining badiiy mukammallashuviga erishilgani ilmiy izohlanarkan, parokanda g'azallardagi baytlarning mustaqil ma'no ifodalashi nisbiy mohiyat kasb etishi xususida mulofaza yuritiladi. Ulardagi mazmuniy mustaqillik g'azal baytlarining muayyan guruhlarga ajralishida ham namoyon bo'lishi ko'rsatib o'tiladi. An'anaga muvofiq shoir taxallusining maqtada qo'llanilishi tahrir jarayonida Alisher Navoiy e'tibor qilgan muhim poetik hodisa ekanligi dalillanadi. Ayni jihatlariga ko'ra ulug' shoirning tahrirda g'azalning shakl va mazmuniy mukammallashuviga erishgani asoslanadi.

Kalit so'zlar: Mustaqil baytlardan tuzilgan g'azal, bayt, shakl, mazmun, "Xazoyin ul maoniy", "Debocha", maqta, "G'aroyib us sig'ar", "Badoyi' ul bidoya".

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ФОРМЫ И СОДЕРЖАНИЯ АВТОРСКИХ СТРОК В ГАЗЕЛЯХ АЛИШЕРА НАВАИ

Аннотация

В статье говорится о вопросах авторских строк, использованных в газелях на примере поправок газели "Гаройиб ус-сигар" как "Дебоcha" ("Начало") творческого пути в газелях Алишера Навои. Размер, строка с пофторами слов, рифма и другие поэтические элементы послужившие как средства обеспечения композиционной целостности обеспечили редактированию и взаимосвязь газелей на основе глубокого анализа, что привлекло особое внимание автора как великого поэта. В результате авторского анализа достигнуто совершенство произведений (газелей) автора содержание и философское значение, как результат художественного совершенства обоснованное научным толкованием. А также ведется размышление о самостоятельном осмыслении каждой строки разьединенных газелей как единое целое. Указывается на общность по смысловому значению и разделение на группы разьединенных газелей. Доказывается необходимость поэтических псевдонимов Алишера Навои как традиционные применения таких явлений в процессе анализа. Обосновывается совершенство поэтического мастерство в авторской редактировании великого поэта.

Ключевые слова: Газели созданные отдельными строками, строка, форма, смысл и значение, "Хазоин ул маони", "Дебоcha" ("Начало"), макта (строка в конце газели), "Гаройиб ус-сигар", "Бадон уль-бидоя".

AUTHOR'S EDITING IN ALISHER NAVOI'S GHAZALS: PERFECTION OF FORM AND CONTENT

Annotation

The article examines the issue of author's editing in Alisher Navoi's ghazals on the example of "G'aroyib us-sig'ar" ("Wonders of childhood") "Debocha" ("Inception") and discusses the poet's editing of ghazals (one type of poetry) composed of independent verses. The analysis proves that the poetic elements such as weight, rhyme, radif pay special attention to the interchange of verses of the great poet in the editing of poems, which serve to ensure the compositional integrity of such poems. While the author explains that the artistic perfection of the ghazal content has been scientifically refined, it is argued that the independent meaning of the bytes (a two-line part of ghazals) in the scattered ghazals is of relative importance. It is pointed out that the semantic independence in them is also reflected in the division of ghazal verses into certain groups. Traditionally, the use of the poet's nickname in praise is an important poetic event that Alisher Navoi noticed during the editing process. In this sense, it is based on the fact that the great poet perfected the form and content of the poem in the edit.

Keywords: Ghazal consisting of independent bytes, byte, form, content, "Khazayn ul maoniy" ("Treasure of thoughts"), "Debocha" ("Inception"), acclaim, "G'aroyib us-sig'ar" ("Wonders of childhood"), "Badoyi ul-bidoya" ("New inception").

Kirish. Alisher Navoiy "G'aroyib us-sig'ar" "Debocha"sida umri davomida yozgan she'rlarini g'oyaviy-badiiy jihatdan "takmil rishtasig'a" [2, 16] tortilganini, ularni jiddiy tahrirdan o'tkazib, "Xazoyin ul-ma'oni"ni tartib berganini, buning uchun ellik-olmishtacha, ba'zan yuztacha qayta ko'rib chiqilgan g'azallarining sulton Husayn Boyqaro nazaridan o'tkazib borganini e'tirof etadi [2, 16-17]. Shoir g'azallarining dastlabki devonlardagi matni bilan "Xazoyin ul-maoniy"dagi matni qiyoslanganda, ulaarning o'nlab namunalari matnida baytlarning o'zaro o'rin almashganining kuzatilishi muallif tahriridan darak beradi. "Debocha"dagi

ishoralar fikrimizni dalillaydi. Ulug' shoirning g'azallari bog'liq tahrirlarini ilmiy o'rganish muallif dunyoqarashi va shoirlik mahorati takomilini muayyanlashtirish imkonini hosil qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. G'iyosiddin Xondamir "Makorim ul-axloq"da Alisher Navoiyning davlat ishlaridan aksariyat bo'sh vaqtlarida o'zi yozgan va xattotlar tomonidan ko'chirilgan asarlarni tahrir qilish bilan mashg'ul bo'lganini ta'kidlaydi [10]. Ulug' shoirning "Ilk devon", "Badoyi' ul-bidoya", "Navodir un-nihoya" devonlaridan o'rin olgan lirik asarlari "Xazoyin ul-maoniy" tartib berilayotganda

muallifning jiddiy tahriridan o'tkazilgani A.Hayitmetov [11], N.Jumaxo'ja [4], A.Erkinovlar [7] tadqiqotlarida ham ko'rsatib o'tiladi. Bunday tahrirlarda g'azallarning kompozitsion mukammalligi ham nazarda tutilganligi ahamiyatga molikdir. Alisher Navoiy tadrij – fikrni baytlararo ketma-ket rivojlantirib borish uslubida g'azallar ijod qilishga ko'proq mayl ko'rsatsa-da [6], oshiqona g'azal tarkibida “biror-ikkiror nasihatoro va ma'vizatoso bayt” [1, 23] qo'shishni ham ma'qul ko'radi. Tabiiyki, bunday adabiy niyatni amalga oshirishda ulug' shoirga tuzilishiga ko'ra parokanda – mustaqil baytlardan tarkib topgan g'azallar ijod qilish qo'l keladi.

Tadqiqot metodologiyasi. G'azalning mustaqil baytlardan tarkib topishi uni tahrirlashda baytlarning g'azal matnidagi o'rnini almashtirish imkonini beradi. Alisher Navoiy bunday imkoniyatdan har bir g'azalning badiiy tuzilishiga ko'ra shunday janrdagi she'rlar bilan umumiy jihatlari bo'lganidek, uning o'ziga xos badiiy qurilishi ham mavjudligini [3; 8] unutmagan holda ijodiy foydalangan. Ulug' shoirning ushbu tahrirlarini qiyosiy-tarixiy, sharhlash, tavsiflash va tasniflash metodlari bilan ilmiy o'rganish jarayonida g'azal tahririda Alisher Navoiyning o'ziga xos adabiy-estetik qarashlari mavjudligiga amin bo'ldik.

Tahlil va natijalar. Alisher Navoiy “Badoyi' ul-bidoya”dagi “Vah, ne qotildur, kelur oyini zulm-u kin solib...”, [1, 78], “Topqali xokiy tanimg'a novaki ishqing kushod” [1, 117], “So'zi hajring ichra har dam za'flig' jismim yonib” [1, 83], “Ne navo soz aylagay bulbul gulistondin judo” [1, 67], “Chamanda sarv yo gul chun sabodin tebranur nogah” [1, 518-519], “Ul sarv uzori guli serobdek erish” [1, 244-245], “Kunduz ul xurshidi raxshondin ko'zumda yosh erur” [1, 176], “Qatlima tiyg' o'lgalikim charx ishi ozordur” [1, 146], “Yor ila bir xilvat istarmenki, ag'yor o'lmag'ay” [1, 563], “Necha kilki taxayyul birla bir surat nigor aylay” [1, 537] satri bilan boshlanuvchi g'azallar matnidagi ikki baytning o'rnini almashtirish bilan shakl va ma'noda mukammallashuviga erishadi. To'qqiz baytli “Chamanda sarv yo gul chun sabodin tebranur nogah” misrasi bilan boshlanuvchi g'azal misolida fikrimizni muayyanlashtirishga harakat qilamiz:

Chamanda sarv yo gul chun sabodin tebranur nogah,
Sog'inib sarvi gulro'yum kelur, afg'on chekarmen, vah.
Boshimni olmag'aymen sajdayi shukr aylayu yerdin, Agar
sarvi xiromonimg'a bo'lsam soyadek hamrah O'zum ham
ermon o'z holimdin ogah to ani ko'rdum, Yo'q ulkim, ermas
ahvolimdin ul nomehribon ogah. Yuz olmoq sarv birla gul
ayog'idinki, vah, yo'qtur Aning qaddu yuziga bog' aro bu
ikkidin ashbah. Zanoxdoningda xay ermasi, obi
zindagoniydur, Ki hayvon chashmasining ostida voqi'durur ul
chah.

Yuzung vasfini yuz tah safhag'a yozsam tamom
o'lmas, Ki bo'lg'ay safhayi xurshidcha ul safhadin har tah [1, 18-519].

Ushbu to'qqiz baytli g'azal “Badoyi ul bidoya” devoni va “Xazoyin ul maoniy” kuliyotining “G'aroyib us-sig'ar” devonidan o'rin olgan. G'azalning dastlabki devondagi matni-ning to'rtinchi va beshinchi baytlari “G'aroyib us-sig'ar” devonida tahrir natijasida o'zaro o'rin almashgan. Nazarimizda, Alisher Navoiy ushbu g'azalni shakl va mazmun jihatidan badiiy takomillashtirish maqsadida tahrir jarayonida undagi baytlar o'rnini atayin o'zgartirgan ko'rinadi. G'azalning to'rtinchi, beshinchi va oltinchi baytlariga diqqat qaratadigan bo'lsak, to'rtinchi baytda ma'shuqaning yuz go'zalligi, beshinchi baytda suyakli yorning zanaxdoni, ya'ni iyak qismi badiiy talqin etilib, oltinchi baytda esa fikr yana yorning yuziga qaratiladi. Ko'rinib turibdiki, ulug' shoir g'azal ma'nosiga e'tibor qaratib baytlarning ma'no jihatidan ham mukammalligini ta'minlashga alohida diqqat qaratgan. Yuz haqidagi fikrlarning davomiyligini ta'minlash maqsadida g'azalning to'rtinchi va beshinchi baytlarini o'zaro

almashtirgan. G'azal matlasida chamanda sarv yoki gulning sabodan nogoh tebrinishi ta'siridan lirik qahramon “sarvi gulro'” – ma'shuqasining kelishini sog'inib afg'on chekishi, ikkinchi-uchinchi baytlarda esa lirik qahramon o'sha sarvi xiromoniga soyadek hamroh bo'lsa, boshini yerdan olmay sajdayi shukr qilishi, to sevgilisini ko'rgunga qadar o'z holidan uni ogoh etmasligi-yu, “ul nomehribon”ning oshiq ahvolidan ogoh emasligi, beparvoligi badiiy tasvirlangan.

Tahrirlangan matnga ko'ra, g'azalning beshinchi-oltinchi baytlarida ma'shuqaning qadi-yu yuziga bog'aro sarv va guldari bo'lak o'xshash narsa bo'lmagani uchun oshiq shularning oyog'idari yuzini olmasligi, ya'ni ularga sajday qilib turishi, yor yuzining vasfini yuzlab sahifalarga yozsa, tugamasligi-yu, faqatgina bu sahifalarning qatma-qatligi quyosh sahifasicha bo'lishi mubolag'aviy tasvirlangan. Shundan so'ng butun-bo'lak munosabatlariga ko'ra, zanaxdon – iyakdagi kulgich tasviriga she'rxon diqqati tortilgan. Unda ma'shuqa kulgichidagi hayoning samarasi bo'lgan xay – ter tiriklik suvi sifatida vasf etilib, uning chashmasi ostida shundoq chohning borligi ma'shuqaning kulgichidagi terga kutilmagan chiroyli o'xshatish bilan badiiy dalillangan. Ko'rinadiki, g'azaldagi badiiy manzaralarning mustaqilligi baytlarning o'zaro guruhlanishi samarasi sifatida namoyon bo'lgan. Ulug' shoir muayyan badiiy manzara tasviriga birlashgan baytlar ketma-ketligini tizimga solib, undagi mazmuni tadrijiy rivojlantirgan.

Alisher Navoiy xuddi shunday tahrir usulini g'azal matnidagi bir necha baytlar tartibining o'zgartirish orqali ham amalga oshiradi. “Badoyi' ul-bidoya”dagi “Ey, hamd o'lub mahol fasohat bila sanga” [1, 29-30], “Mendin ul chobukning, ey payki sabo, maydonin o'p” [1, 87], “Necha kilki taxayyul birla bir surat nigor aylay” [1, 537] satri bilan boshlanuvchi g'azallar ana shunday tahrirlarga sabab bo'lgan ko'rinadi. Dastlab “Badoyi' ul-bidoya”, keyinchalik esa “G'aroyib us-sig'ar”dan o'rin olgan “Ey, hamd o'lub mahol fasohat bila sanga” [1, 29-30] misrasi bilan boshlanuvchi g'azal to'qqiz baytli bu g'azalning matni dastlab quyidagi ko'rinishda namoyon bo'lgan:

Ey, hamd o'lub mahol fasohat bila sanga,
Andoqi, qurbi taqvi-yu toat bila sanga.
Topmoq ajib fikr-u taxayyul bila seni,
Etmak xayol aql-u farosat bila sanga.
Chun koinot zubdasi ojiz ko'rub o'zin,
Hamd eta olmas oncha fasohat bila sanga.
Izhor ajz bizdin adab tarkidur base,
Yuz ming qusur-u nuqs-u kasofat bila sanga.
Har tiyra ro'zgorki, vaslingg'a yo'l topib,
Sendin etib charog'i hidoyat bila sanga.
Lutfung rafiqim o'lmasa, ne hadki, etkamen
Boshtin-ayog' gunoh-u zalolat bila sanga.
Chun sendin o'zga yo'q panahim, qochmayin netay
Jurm-u gunahdin oh-u nadomat bila sanga?
Isyon ko'p Navoiyning-u yo'q uyotikim,
Istar etishsa muncha xijolat bila sanga.
Lutf aylagilki, mumkin emas qilmasang qabul,
Etmak tamomi umr ibodat bila sanga [1, 29-30].

G'azal tuzilishiga ko'ra parokanda bo'lib, vazn, qofiya va radif vositasida undagi turli adabiy manzaralar bir butunlik hosil qilishi kuzatiladi. Vazn, qofiya va radifning turli adabiy lavhalardagi g'azal baytlarining erkin bog'lash poetik vazifani bajarishi bu kabi g'azallarda baytlarning o'rnini almashsa ham, undagi ma'noning sezilarli darajada o'zgarib ketishiga sabab bo'lmaydi. Alisher Navoiy “Xazoyin ul-maoniy” devoni tarkibidagi birinchi devon “G'aroyib us-sig'ar” ni tartib berishda yuqoridagi hamd g'azalning muayyan darajada tahrir qilganligi undagi ayrim so'zlarning o'zgartirilishi va baytlar tartibining o'zgarishida kuzatiladi. Fikrimizni g'azalning umumiy mazmuniga e'tibor qaratish asosida aniqlashtirishga harakat qilamiz.

G'azalning matlasida ulug' shoir Allohga murojaat qilib, taqvo va toat ibodati bilan Allohga yaqinlik hosil qilib, unga hamd (maqtov) aytishga o'zlik qilishini bayon etadi. Shoir bu bilan barcha toat-u ibodati Alloh uchunligini ma'lum qilib, chiroyli so'zlar aytish bilan Allohni maqtashdan ham o'zining o'zligiga diqqat qaratadi. Shu o'rinda ijodkor inson faqat boshi sajdaga yetganidagina me'rojga chiqqandek bo'lishi, Rabbisiga yaqin turib, u bilan suhbat qura olishiga ishora qiladi. Keyingi baytda ijodkor Alloh taologa fikr-u taxayyul (xayolga keltirish), aql-u farosatga tayanib, xayol surish bilan yetish ajablanarli hol ekanligini mubolag'aviy tasvirlaydi. G'azalning ushbu ikkinchi baytidagi "Etmak xayol ..." birikmasi "G'aroyib us-sig'ar" da "Etmak mahol" bilan almashtirilgan. Ya'ni Alloh taologa fikr-u taxayyul va aql-u farosat bilan yetish qiyin ekanligi baytda o'z ifodasini topgan. Ehtimol, bunda kotibning xatosi tuzatilgandir. G'azalni o'qish davomida ijodkor ilohiy kitob "Baqara" surasidagi "Albatta, biz Allohning (bandalarimiz) va albatta, biz u zotga qaytuvchimiz" [9] oyati karimasiga ishora qilganini ham ko'rish mumkin. Ushbu g'azalda Alloh insonni ikki borliq - ko'z bilan ko'rinadigan moddiy va ko'z bilan ko'rinmaydigan ma'naviy borliq bilan yaratgani, ko'pincha insonning moddiy borlig'i ma'naviy borlig'idan ustun kelishi, shu payt insonning irodasi Haqni taniyolmay qolishi-yu, bu esa insonning qalb ko'zlarini berkilishiga olib kelishi, bunday illatning davosi esa faqat Allohga hamd ekani ijodkor tomonidan yuksak mahorat bilan ishoralarda badiiy tasvirlangan.

G'azalning uchinchi baytida hattoki komillikka erishgan kishi ham shuncha aql-zakovati bilan Allohga hamd aytishda o'z ekanligi to'g'risida so'z yuritiladi. Keyingi baytda ijodkor o'zining o'zligini badiiy ifodalab, unga bu holat odat ekani va bundan qutula olmasligini ayta turib, yuzminglab kamchiliklari bilan Allohga intilayotganini bayon qiladi. Beshinchi baytda, har kim sening huzuringa yo'l topsa, unga hidoyat nuri sendan yetgan bo'ladi va senga intiladi deyiladi. Oltinchi baytda ijodkor o'z holidan shikoyat qilib, boshdan-oyog' gunohga botgani bois unga Alloh taolodan lutf yetmasa ham ajablanarlimasligini aytib iltirab chekadi. Yettinchi baytda Allohdan boshqa iloh yo'qligini e'tirof etib, oh va nadomatlari bilan unga talpingani o'z ifodasini topadi. Keyingi baytda ijodkor o'zining isyonkor ekanligini malomatiylik uslubida badiiy ifodalab, shuncha kamchilik va nuqsonlari bilan Yaratganga intilayotganini bayon etgani kuzatiladi. G'azalning so'nggi baytida esa yana Allohga yuzlanib, lirik qahramon undan marhamat qilishini so'raydi. Negaki, Alloh lutf qilmasa, butun umr bo'yi Unga ibodat qilib ham Unga yetib bo'lmaydi.

Ko'rinadiki, g'azalda shoirming taxallusi maqtada keltirilgan, balki sakkizinchi baytda uning mavjudligi kuzatiladi. An'anaga ko'ra, taxallusning maqtada keltirilishi g'azalning shakli va mazmuniy mukammallashuviga omil bo'ladi. Alisher Navoiy tahrir jarayonida masalaning bu jihatini e'tiborga olgan ko'rinadi. Shu bois "G'aroyib us-sig'ar" devonida yuqoridagi hamd g'azalning yettichi bayti sakkizinchi, sakkizinchi bayti to'qqizinchi va to'qqizinchi bayti esa yettinchi bayt sifatida g'azaldan o'rin oladi. "Badoyi ul-bidoya"dagi ushbu g'azal to'qqizinchi baytining "G'aroyib us-sig'ar"da yettinchi bayt sifatida qo'llanilishi uning oltinchi bayt mazmuni bilan o'zaro butunlik hosil qilishini ta'minlagan:

Lutfung rafiqim o'lmasa, ne hadki, etkamen

Bosh-tin-ayoq gunoh-u zalolat bila sanga.

Lutf aylagilki, mumkin emas qilmasang qabul,

Etmak tamomi umr ibodat bilan sanga [2, 28].

Oltinchi baytda Alloh taoloning lutfi lirik qahramonning rafiqi - do'sti bo'lmasa, boshdan-oyog', ya'ni tamomila gunohga botgani holda Unga yetish imkonsiz ekanligi badiiy tasvirlangan. Keyingi baytning "Lutf aylagilki" birikmasi bilan boshlanishi esa g'azaldagi ta'kidni kuchaytirgan. Shoir Yaratganga munajat qilarkan, Undan lutf qilishini o'tinib so'rash bilan baytlardagi mazmuniy bog'liqlikni ta'minlashga erishgan. Ko'rinadiki, bunda adabiy fikrning tadrijiy rivojlantirilgani kuzatiladi. Parokanda g'azallarga xos mazmunning vazn, qofiya va radif bilangina bog'liqligi haqidagi qarashning nisbiy mohiyat kasb etishi ayonlashib qoladi. G'azaldagi baytlarning mustaqil ma'no anglatishining har bir baytda namoyon bo'lishi bilan bir qatorda ayrim g'azallarda bunday mustaqillik baytlar guruhi holida bo'lishi ham nazarga tashlanadi. G'azalning maqta' va undan oldingi baytda ham o'zaro ajralmas mazmuniy birlik yuzaga kelgani e'tiborni tortadi:

Chun sendin o'zga yo'q panahim qochmayin netay

Jurm-u gunahdin oh - u nadomat bilan sanga.

Isoni ko'p Navoiyning yo'q uyotikim,

Istar etishsa muncha xijolat bilan sanga [2, 28].

Sakkizinchi baytda lirik qahramonning gunohlari ko'pligidan iltirab chekayotganini badiiy ifodalaydi. U Parvardigori olamning lutfiga musharraf bo'lishdan o'zga panohi bo'lmaganini teran anglagani bois bu qadar ko'p gunohlardan oh-u nadomat chekib qochmasdan bo'lak chorasi yo'qligini izhor qiladi. Maqtada esa shoir, taxallusini qo'llab, o'z qilmishidan uyalmaganini malomat qiladi, isyonkorligini bila turib, xijolatli holga tushganligiga qaramay Allohga yetishni orzu qilganini badiiy ifodalaydi. Maqtaning rajo - umidvorlik [5] maqomidagi solikning holi bilan nihoyalanishi undagi o'ziga xos ehtirosning kuchayishiga, ayni choqda shoir taxallusining maqtada qo'llanilishi g'azalga shakli va mazmuniy jihatdan mukammallikning hosil qilinishiga omil bo'ladi. Bu hol ulug' shoirming nihoyatda talabchan, sinchkov va e'tiborli ekanligining bir ko'rinishi sifatida namoyon bo'lgan.

Xulosa va takliflar. "Badoyi ul-bidoya" dagi o'nta g'azalning ikki bayti, uch g'azalning ikkidani ortiq bayti tartibining o'zgartirilib, "Xazoyin ul-maoniyy" devonlaridan o'rin olishi muallif tahririning yorqin namunasidir. Bunda ulug' shoir parokanda - mustaqil baytlardan tarkib topgan g'azallar matni ustida jiddiy tahrirlarni amalga oshirilgani kuzatiladi. Tahrir jarayonida ikki baytning o'zaro o'rin almashinuvi ham g'azalning shakli va ma'no jihatdan muayyan darajada mukammallashuviga sabab bo'lgan. G'azalning bir necha baytlarining tahrir jarayonida o'rin almashinuvi esa g'azaldagi mazmunning anchagina mukammallashuviga, maqtaning g'azalda o'z o'rnida qo'llanishiga bois bo'lgan. Mustaqil baytlardan tuzilgan g'azallardagi bir necha adabiy manzaraning muayyan baytlar guruhi tasvirlanishi, - bunda ularning matnda ketma-ket joylashishi guruhlarini hosil qilishi nazarda tutiladi, - ularda adabiy fikrning qisman bo'lsa-da, tadrijiy rivojlantirilishiga zamin yaratgan. Ulug' shoir masalaning ayni jihatiga tahrirda alohida e'tibor qaratgan.

ADABIYOTLAR

1. Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. 1 том. Т.: "Фан", 1987.
2. Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. 3 том. Т.: "Фан", 1988.
3. Исҳоқов Ё. Навоийнинг илк лирикаси. - Т.: "Фан", 1965. Б. 54-67
4. Жумахўжа Н. Саг'рлар силсиласидаги сеҳр. - Т.: "Ўқитувчи", 1996. Б.5-6.
5. Комилов Н. Тасаввуф. Биринчи китоб. Тошкент: "Ёзувчи", 1996. Б.27.
6. Шайхзода М. Асарлар. Олти томлик, 4-том. - Тошкент. 1972. Б. 195-216.
7. Эркинов А. Матншуносликка кириш. Тошкент, 1997. Б. 9.

8. Eshonqulov H. Alisher Navoiy oshiqona g‘azallarining badiiy qurilishiga oid o‘ziga xosliklar//. Golden Scripts Oltin bitiglar. 2021. Vol.1. - B. 69-86.
9. Қуръони карим. Ўзбекча изоҳли таржима. Таржима ва изоҳлар муаллифи Алоуддин Мансур. Тошкент: “Чўлпон”, 1992. Б. 23.
10. Ғиёсиддин Хондамир. Макорим ул-ахлоқ. - Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2015. Б. 65-66.
11. Ҳайитметов А. Навоий даҳоси. - Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1970, Б. 152-155.



УДК:821.161.1

Охида ЮЛДАШЕВА,
Ўзбекистон Миллий университети таянч докторанти
E-mail: odiljon12@bk.ru

ЎзМУ проф., филол.ф.д. О.Н. Гибралтарская тақризи асосида

CATEGORY «IMAGE» IN LITERARY CRITICISM AND ART

Annotation

The article explores the term «image», the history of the term, the ways of its origin and the materialization of this term today. Works are analyzed: article by T.Yu. Serikov «The history of the formation of the concept of «image» in the humanities», where the author considers the formation of the term (concept) «image» from antiquity to the present day; the work of A.N. Andreev «A holistic analysis of a literary work», where the author gives an overview of the study of the concept of «image» in two aspects: in science and in art, and other works.

Key words: Text, literary text, image, mimesis, history, emergence, consciousness, concept, essence, thought, emotion, integrity.

АДАБИЁТШУНОСЛИК ВА САНЪАТДА «ОБРАЗ» КАТЕГОРИЯСИ

Аннотация

Мақолада «образ» атамаси, атаманинг тарихи, унинг келиб чиқиш усуллари ва бугунги кунда ушбу атаманинг моддийлашуви ўрганилган. Мавзуга оид ишлар таҳлил қилинди: Т. Ҳ. Серикованинг «гуманитар билимларда «образ» тушунчасининг шаклланиш тарихи» мақоласи, унда муаллиф антик даврдан то ҳозирги кунгача «образ» атамаси (тушунчаси) шаклланишини ўрганади; А. Н. Андреевнинг «Адабий асарнинг яхлит таҳлил» иши, бу ерда муаллиф «образ» тушунчасини икки жиҳатдан ўрганиш ҳақида умумий маълумот беради: илм-фан ва санъатда ва бошқа мавзуга оид ишлар.

Калит сўзлар: Матн, бадиий матн, образ, мимесис, тарих, пайдо бўлиш, онг, тушунча, моҳият, тафаккур, ҳиссиёт, яхлитлик.

КАТЕГОРИЯ «ОБРАЗ» В ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИИ И ИСКУССТВЕ

Аннотация

В статье исследуется термин «образ», история термина, пути его возникновения и материализация этого термина на сегодняшний день. Анализируются труды: статья Т.Ю. Серикова «История формирования понятия «образ» в гуманитарном знании», где автор рассматривает формирование термина (понятия) «образ» начиная от античности и до наших дней; работа А.Н.Андреева «Целостный анализ литературного произведения», где автором дается обзор изучения понятия «образ» в двух аспектах: в науке и в искусстве и др. работы.

Ключевые слова: Текст, художественный текст, образ, мимесис, история, возникновение, сознание, понятие, сущность, мысль, эмоция, целостность.

Литературное произведение предстает перед читателем как текст. Текст - это совокупность последовательно расположенных предложений, абзацев, связанных по смыслу и грамматически. Текст состоит из слов, предложений и языковых знаков, а что такое художественный текст и как через художественный текст передается тот или иной образ?

Художественный текст - это текст, написанный человеком и показывающий его отношение к тому или иному явлению либо к окружающему миру. Художественный текст - это мысли, состояние, природа, среда, представление автора об окружающей действительности и воплощение перед читателем как определенный образ или образы. Можно сказать, что художественный текст и художественный образ тесно связаны между собой или будет не ошибкой, если скажем одно целое. Эти понятия невозможно рассматривать по отдельности, так как через художественный текст материализуется (воплощается) образ. Исходя из выше сказанного можно сказать, что образ с одной стороны - это способ и форма освоения жизни, а с другой - это язык искусства и его высказывание, реализующиеся в художественном тексте.

Художественный образ - это одна из категорий искусства и способ отображения и преобразование действительности, система конкретно-чувственных

средств, воплощающая собой собственно художественное содержание.

Художественный образ - это сложный феномен, включающий в себя общее и индивидуальное, характерное и типичное.

На сегодняшний день учеными накоплен огромный материал и дано много определений касающееся этого термина образ. Например, в работе «Основы теории литературы» Л.И.Тимофеев дает следующее определение термину: «образ - это конкретная и в то же время обобщенная картина человеческой жизни, созданной при помощи вымысла и имеющая эстетическое значение» [7].

Л.И.Тимофеев в своем определении выделяет две существенные особенности образа (образного отражения жизни): первое с точки зрения науки, как обобщение жизненных явлений (понятий), а второе изображение действительности таким, каким мы его видим. По мнению исследователя, предметом художественного образа (изображение) является человек, его роль и взаимоотношение с обществом и природой.

Автор изображает в своем произведении действительность и всю сложность жизненных отношений, но представляет их в определенном рефракции, так, как это проявляется в конкретной человеческой жизни. Исходя из выше сказанного можно сделать вывод, что действительность - это предмет

познания, а человек в его многогранных отношениях к действительности, человек как личность - это предмет изображения. Из этого следует, что образ является картиной человеческой жизни, а изображать жизнь с помощью образов - значит рисовать картины человеческой жизни и передать его поступки, переживание, все, что касается жизни. Образ - это наглядный пример, где автор, художник, творец показывает человека со всей окружающей средой, точнее, как уже было сказано центральным является сам человек - личность.

Н. А. Гуляев в своей работе «Теория литературы» пишет, что «образ содержит в себе авторский оценочно - субъективный момент к изображаемому предмету» [4]. Н. А. Гуляев считает, что образ это реакция и оценка автора на действительность или результат его восприятия.

Похожую точку зрения на образ мы находим в «Краткой литературной энциклопедии» И.Б. Роднянская, В.В. Кожин. По мнению исследователей, «художественный образ - форма отражения действительности искусством, конкретная и вместе с тем обобщенная картина человеческой жизни, преображаемой в свете эстетического идеала художника, созданная при помощи творческой фантазии» [5].

Герцен считает, что образ - эстетическая реальность, а Белинский - художественным миром [6]. Из данных определений Герцена и Белинского можно обобщая образ назвать художественной моделью реального мира.

Другие ученые считают, что художественный образ - это лишь способ и форма освоения действительности, который преобразует и воссоздает действительность через синтез конкретности, например: детали, вещи, предметы и воплощаются в художественном произведении как образ. Из выше сказанных можно рассмотреть образ: в узком смысле - это часть художественного произведения, где образ реализуется через персонажей или является предметом изображения, а в широком понимании - это способ бытия и воспроизведения художественной реальности с помощью чувств, мыслей, представлений (чувственно усваиваемый и вообразимый предмет или лицо).

Если обратиться к источникам, термин «образ» был позаимствован из церковного языка в отечественное литературоведение, что обозначало лицо, щеку, а в переносном значении - картина; номинация «образ» является калькой из гр. *eikon* (икона) - изображение.

Т.Ю. Серикова в своей статье «История формирования понятия «образ» в гуманитарном знании» [7], рассмотрела историю возникновения и пути формирования термина (понятия) «образ» начиная от античности и до наших дней. В своей работе Т.Ю. Серикова стремилась показать пути зарождения и развития понятия «образ» и его выражение сегодня. Изучение данного термина Т.Ю. Серикова начинает с античности с определения Платона и заканчивает свое исследование определениями (точкой зрения, идеями, мыслями) мыслителей XX века. Кроме этого в работе Т.Ю. Серикова стремиться дать четкое разграничение понятий «визуальный образ» и «художественный образ».

Теория художественного образа была создана в античную эпоху, как было сказано выше, и связывалась с понятием подражания (мимесис): художник воссоздает жизнь в ее неповторимо - индивидуальном значении. Аристотель понимал произведение как живое существо, которое подчиняется собственным правилам, оторвавшись от автора, художественное творение «производит» продукт эстетического наслаждения. Но развернутое обоснование этого понятия, близкое к современному, дано в немецкой классической эстетике, особенно у Гегеля. Он видел в искусстве чувственное (т.е.

воспринимаемое чувствами) воплощение идеи и считал, «что от теоретического, научного изучения художественное осмысление отличается тем, что не стремится превратить его всеобщую мысль и понятие» [3].

Понятие образ в двух аспектах: в науке и искусстве после Гегеля рассматривает Андреев А.Н. в своей работе «Целостный анализ литературного произведения», в первой главе «Теория литературно-художественного произведения», в параграфе «Целостность художественного образа».

Он считает, что в искусстве «понятие образ это особый способ воспроизведения и познания действительности» [1]. «Образ - это чувственно воспринимаемый индивидуализированный «представитель» определенных предметов и явлений» [1]. А в науке, в том числе и в литературоведении, по его мнению, используется не образ, а понятие. Понятие в науке - «обозначение предельно абстрагированной от индивидуальных признаков сущности» [1].

Образ в искусстве связан с восприятием чувств, эмоции или наоборот передается посредством мироощущения, мировосприятия, т.е. картина мира, которая сформировалась у человека. Ключевым в искусстве являются чувства, а в науке - понятие. Понятие - это сущность. «Сущность как таковая вообще не может быть чувственно воспринята» [1]. С помощью образа немисливо изложение научной теории, но из понятий можно выстроить цепочку научных определений (обоснований): гипотезу, теорию, умозаключение только невозможно создание образа.

В науке мы основываемся (ссылаемся) на сознание, которое оперирует сущностями и стремится к устроению эмоций, чувств, переживаний. В искусстве эмоции это мысли, а мысли - это эмоции. Они взаимосвязаны между собой. Если рассмотреть понятие образ с точки зрения науки и искусства, то образ - соединение (синтез) сознание и психики, мысли и чувства.

Автор считает, что «Сведение образа к мысли (к цели понятий) является невозможным. В этом случае нужно будет отвлечься от переживаний и эмоций. Свести образ к непосредственному переживанию - значит «не заметить» оборачиваемости психики, способности ее быть чреватой мыслью» [1]. Исходя из слов автора, мы можем прийти к выводу, что если понятие образ нельзя свести к понятию мысль и непосредственно переживанию, то в этом случае у нас появляется основание говорить, суммируя выше сказанное о целостности образа, как объективной предпосылке эстетического отношения.

Воспринимать образ мы можем только целостно: как переживание мысли или как чувственно воспринимаемая сущность. Понятие образ неразложимо. Он содержит несколько аспектов и принципиально многозначен. В искусстве образ отражается суммами смыслов и это является неперменным условием жизни художественного образа.

По словам автора невозможно решить, какой смысл является истинным, а какой главным. Процесс решение этой задачи является бесконечным. Поскольку образ (произведение) может быть понят до конца лишь тогда, когда осуществляется абсолютная логическая развертка образов. Исходя из этого, можно подтверждать, что познание высокохудожественного произведения - это безграничный процесс.

Мы не можем рассматривать (анализировать) отдельно как систему. Образ необходимо изучать как системность, стремясь к целостности. Как систему, но держа в уме, что перед ним не система, а целостность.

По мнению автора есть и другой подход рассмотрения образа, но он не научен. Эти подходы нужно дополнять, а не исключать.

Итак, А.Н.Андреев в своей работе «Целостный анализ литературного произведения», в первой главе «Теория литературно-художественного произведения», в параграфе «Целостность художественного образа» считает, что «целостный художественный образ со всеми своими уникальными возможностями - это всего лишь способ, средство» еще один подход рассмотрения образа.

Из выше сказанного следует, что освоение действительности и представление ее в художественном произведении дается через образ, а точнее образ - это

реакция и оценка автора на действительность или результат его восприятия, воплощающийся в художественном произведении.

Форма и содержание - это две стороны художественного произведения. Если взять эти категории, то можно сказать, что содержание - это освоенная характерность жизни (действительность), а форма - это воплощение действительности в художественном произведении через образ.

ЛИТЕРАТУРА

1. Андреев А.Н. Целостный анализ литературного произведения: Учеб.пособие для студентов вузов. – МН.: НМЦентр, 1995 //
2. <https://docplayer.com/53778042-Anatoliy-nikolaevich-andreev-lekcii-po-teorii-literatury-celostnyy-analiz-literaturnogo-proizvedeniya.html>
3. Борисова Е.Б. О содержании понятий «художественный образ» и «образность» в литературоведении и лингвистике. Вестник ЧГУ. № 35.,2009//file:///C:/Users/user/Downloads/Telegram%20Desktop/o_soderzhanii_ponyatiy_hudozhestvennyy_obraz_i_obraznost_v_literaturovedenii.pdf
4. Гегель Г. В. Ф. Эстетика: В 4 т. М., 1968. Т. 1.
5. Гуляев Н.А. Теория литературы. – М., 1985.
6. Роднянская И.Б., Кожин В.В. Образ художественный // Краткая литературная энциклопедия. Т.5 – М., 1975.
7. Серикова Т.Ю. История формирования понятия «образ» в гуманитарном знании. ISSN 1991-5497. МИР НАУКИ, КУЛЬТУРЫ, ОБРАЗОВАНИЯ. № 4 (23) 2010. // <https://cyberleninka.ru/article/n/istoriya-formirovaniya-ponyatiya-obraz-v-gumanitarnom-znanii>
8. Тимофеев Л.И. Основы теории литературы. – М., 1976.